

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim
standarti va o‘quv dasturi
Ona tili
Adabiyot
O‘zbek tili
(5 – 9 sinflar)**

TOSHKENT -2010



**О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА О‘РТА МАXSUS ТА‘ЛИМ ВАZIRLIGI**

**XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGINING
QO‘SHMA HAY‘AT MAJLISI
QARORI**

2010 yil 1 iyul

№ 6/2 / 4/1

Toshkent sh.

**Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida
o‘qitiladigan umumta‘lim fanlari hamda oliy ta‘limda davom
ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash
to‘g‘risida**

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar kompleksining 2010 yil 17 martdagi qo‘shma yig‘ilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus hamda Xalq ta‘limi vazirliklarining 134- va 62-sonli qo‘shma buyruqlariga asosan, umumta‘lim fanlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha umumta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta‘lim muassasalarining yuqori pedagogik mahorat va tajribaga ega amaliyotchi o‘qituvchilari, yetakchi olim, metodist va mutaxassislarni jalb etgan holda 31 ta ishchi guruhi tuzildi.

Mazkur ishchi guruhlar tomonidan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi Davlat ta‘lim standartlarining sharhlari, o‘quv dasturlari va darsliklari uzviylik, uzluksizlik hamda o‘quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi jihatidan tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar tayyorlandi.



Tahlillar asosida o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlariga asoslanmasdan umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga kiritilgan yoki 12 yillik majburiy ta'limga o'tish davrida quyi bosqichlarga o'tkazilgan, sinflar, ta'lim bosqichlari (umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi) mazmunida takrorlangan, izchilligi ta'minlanmagan jami 813 soat hajmdagi mavzular aniqlanib, optimallashtirildi.

Shundan, 247 soat hajmdagi mavzular umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlaridan chiqarilib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, 327 soat hajmdagi mavzular esa sinfdan-sinfga o'tkazildi, 239 soat hajmdagi mavzular sinflarda takrorlanganligi uchun qisqartirilib, maqbullashtirildi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tkazilgan va sinflar kesimida maqbullashtirilgan soatlar hisobidan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'shimcha 240 soat, murakkab mavzularni kengaytirib o'qitish uchun 359 soat, yangi mavzular uchun 214 soat ajratildi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida 413 soat hajmdagi mavzular optimallashtirilib, 333 soat hajmdagi mavzularga qo'shimchalar kiritildi va to'ldirildi, qolgan 80 soati mavjud mavzular tarkibiga singdirildi.

Natijada, umumiy o'rta ta'lim davlat standartlarining sharhlari va umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejarida o'qitiladigan 18 ta umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlari qayta ishlanib Respublika ta'lim markazi huzuridagi fanlar bo'yicha Ilmiy-metodik kengashlar hamda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning fan komissiyalarida muhokama etilidi va tasdiqlandi.

Bundan tashqari, barcha umumta'lim fanlari bo'yicha o'qituvchilar uchun taqvim-mavzu rejalarining namunalari ishlab chiqildi hamda optimallashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlandi.

Shu asosda umumiy o'rta ta'limda foydalanib kelinayotgan darsliklar mazmuniga ham tegishli o'zgartirishlar kiritildi, masalan, 8-sinf iqtisodiy bilim asoslari fanidan 6,3%, geografiya fanidan 3,5%, 9-sinf biologiya fanidan (sitologiya va genetika asoslari) 6,2% o'zgarishlar darsliklar mazmuniga singdirildi.

Shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida, oliy ta'limning



o'quv dasturlari qayta ishlanib, ularning takomillashtirilgan loyihalari tayyorlandi.

Oliy ta'lim tizimidagi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining uzluksizligi va uzviyligi, fanlar mazmunidagi takrorlanishlarni bartaraf etish va o'quv reja hamda dasturlarni optimallashtirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish maqsadida, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga mos holda sakkizta bilim sohasi bo'yicha tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan tanlangan bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining uzluksizligi va uzviyligi tanqidiy tahlil qilindi.


Ishchi guruhlar tomonidan tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlarga mos keluvchi magistratura mutaxassisliklari o'quv rejaları, o'quv soatlarini solishtirish, o'quv dasturlari va ularning mazmunini taqqoslab chiqish, fanlar bo'yicha tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari (darslik va o'quv qo'llanmalari)ni tanqidiy tahlil qilish asosida, o'quv reja va dasturlarini optimallashtirish hamda ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini unifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlari, boshqaruv va xo'jalik yuritish sub'ektlari uchun chuqur va fundamental, ayniqsa, yuqori va innovatsion texnologiyalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatorining yangi tahriri tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tasdiqlandi.

Klassifikatorga yangidan kiritilgan 4 ta bakalavriat yo'nalishlari va 128 ta magistratura mutaxassisliklari, birlashtirilgan 25 ta bakalavriat yo'nalishlari va 275 ta magistratura mutaxassisliklari, shuningdek, nomi va shifri o'zgartirilgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining davlat ta'lim standartlari rivojlangan xorijiy davlatlar va respublikada to'plangan ilg'or tajribalar asosida yaratildi hamda ish beruvchi yirik korxonalar va tashkilotlar, Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Bugungi kunda "O'zstandart" agentligiga topshirilgan 1258 ta Davlat ta'lim standartlaridan 583 tasi ro'yxatdan o'tkazildi va bu jarayon davom etmoqda.

Kun tartibidagi masalani har tomonlama muhokama qilgan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari umumta'lim



fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida, qo'shma Hay'at majlisi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika ta'lim markazi huzuridagi fanlar bo'yicha Ilmiy-metodik kengashlar hamda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash fan komissiyalarining qo'shma qarorlari bilan tavsiya etilgan umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan o'quv dasturlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin va 2010—2011 o'quv yilidan amaliyotga joriy etilsin.

3. Umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha monitoring guruhi 2-ilovada berilgan tarkibda tasdiqlansin.

4. O'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan taqvim-mavzu rejalarining namunalari hamda uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

5. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari, o'quv dasturlarining mazmun-mohiyatini o'rganish bo'yicha umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining o'quv-seminarlarini o'tkazish tartibi 4-ilovaga va o'quv-mavzu rejasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish bosh boshqarmasi (Y.Asadov), Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bosh boshqarmasi (F.Ahmedov), Respublika ta'lim markazi (I.Zokirov), O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi Ta'lim standartlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish boshqarmasi (R.Nimatov), Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi (B.Raximov) ga:

umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun o'tkaziladigan o'quv-seminarlarini belgilangan muddatlarda yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash;



pedagog xodimlarning avgust kengashlarida umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha sho'ba ishlarini birgalikda tashkil etish;

- joriy yilning 15 avgustiga qadar uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari, o'quv dasturlarini Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining ta'lim portallariga joylashtirish vazifalari yuklatilsin.

7. Xalq ta'limi vazirligi Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (U.Daulanov), Respublika ta'lim markazi (I.Zokirov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (A.Narimbetov), O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (E.Ermatov) ga:

- ichki imkoniyatlar doirasida hamda homiylarni jalb etgan holda barcha umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish yuzasidan metodik tavsiyalar va taqvim-mavzu rejalar namunalarini chop ettirish uchun mablag'larni izlab topish;

- umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari va o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich o'qitish tillari (rus, qoraqalpoq va boshq.) ga tarjima qilish;

- umumta'lim fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari va o'quv dasturlari, ularni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tayyorlangan metodik tavsiyalar, taqvim-mavzu rejalar namunalarini har bir ta'lim muassasasiga yetkazish vazifalari yuklatilsin.

8. Xalq ta'limi vazirligi Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bosh boshqarmasi (F.Ahmedov), A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti (M.Aliyev), Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi (B.Raximov), O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti (X.Rashidov) va hududiy pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlariga:

- umumta'lim fanlari o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslari o'quv rejalarini uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlarining sharhlari hamda o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish;

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga uzviylashtirilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha amaliy-metodik yordam ko'rsatish vazifalari yuklatilsin.



9. Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining birinchi oʻrinbosari (U.Tashkenbayev) umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimidagi umumtaʼlim fanlari hamda oliy taʼlimda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash maqsadida, qayta ishlangan va takomillashtirilgan oliy taʼlimning oʻquv dasturlari loyihalarini Oliy va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasidan oʻtkazish, kelishish va oʻrnatilgan tartibda tasdiqlatish hamda 2010-2011 oʻquv yilidan amaliyotga joriy etish yuzasidan tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni koʻrsin.

10. Qoraqalpogʻiston Respublikasi xalq taʼlimi vazirligi, Toshkent shahri, barcha viloyatlar xalq taʼlimi va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi boshqarmalariga:

- 2010-2011 oʻquv yilidan umumtaʼlim fanlaridan uzviylashtirilgan oʻquv dasturlarini taʼlim jarayoniga joriy etish boʻyicha aniq tashkiliy-pedagogik chora- tadbirlarni belgilab, amalga oshirish;

- umumtaʼlim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oʻqituvchilari uchun oʻtkaziladigan oʻquv-seminarlarining muddatida, tegishli mutaxassislarni toʻliq jalb etgan holda, yuqori saviyada oʻtkazilishini taʼminlash;

- har bir taʼlim muassasasini oʻquv dasturlari, taqvim -mavzu rejalar namunalari va ularni taʼlim jarayoniga joriy etish boʻyicha metodik tavsiyalar bilan taʼminlash;

- pedagog xodimlarning avgust kengashlarida umumtaʼlim fanlari boʻyicha shoʻʻbalar ishini, umumtaʼlim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oʻqituvchilarini jalb etgan holda, birgalikda oʻtishini taʼminlash;

- umumtaʼlim fanlaridan uzviylashtirilgan oʻquv dasturlarini taʼlim jarayoniga joriy etish ishlarining monitoringini olib borish va har chorak yakuni bilan Xalq taʼlimi vazirligi va Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi markazi monitoring guruhiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

Belgilab qoʻyilsinki, umumtaʼlim fanlaridan uzviylashtirilgan oʻquv dasturlarini taʼlim jarayoniga joriy etish, uning monitoringini olib borish, natijalarni tahlil etib, hisobotlar tayyorlash ishlarini tashkil etishga taʼlimning hududiy boshqaruv idoralari va taʼlim muassasalari rahbarlari shaxsan masʼuldirlar.



11. Ushbu qo'shma qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq ta'limi vazirligining 2009 yil 26 iyundagi 6/4-sonli qarori, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligining 2009 yil 6 oktyabrdagi 41QB/273-sonli, Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining 31 martdagi 134- va 62-sonli qo'shma buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosarlari U.Toshkenbayev, Sh.Javlonov va Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari B.Daniyarov zimmalariga yuklatilsin.

*O'zbekiston
Respublikasi
Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vaziri*

_____ *B.Xodiyev*

*O'zbekiston
Respublikasi
Xalq ta'limi
vaziri*

_____ *A.Maraximov*

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv rejasi

	O‘quv fanlari	Sinflar									Hafta-lik umumiy soat	Jami yil-lik soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9		
	Davlat ixtiyoridagi soatlar	20	22	24	24	30	32	33	34	35	254	8616
1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	9	7	5	5	5	67	2270
2.	O‘zbek tili/rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	16	544
3.	Xorijiy til					3	3	3	3	3	15	510
4.	Tarix					2	2	3	3	3	13	442
5.	Davlat va huquq asoslari								1	1	2	68
6.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1	2	68
7.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	45	1525
8.	Informatika								1	2	3	102
9.	Fizika, astronomiya						2	2	2	2	8	272
10.	Kimyo							2	2	2	6	204
11.	Biologiya					1	2	2	2	2	9	306
12.	Tabiiyot va geografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	13	441
13.	Odobnoma	1	1	1	1						4	135
14.	Vatan tuyg‘usi					1	1				2	68
15.	Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari							1	1	1	3	102
16.	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1			7	237
17.	Tasviriy san’at	1	1	1	1	1	1	1			7	237
18.	Chizmachilik								1	1	2	68
19.	Mehnat	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12	407
20.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18	610
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18	610
	Umumiy soatlar	22	24	26	26	32	34	35	36	37	272	9226
	Amaliy mehnat mashg‘uloti (kun hisobida)					6	6	10	16			

Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti

5—9 sinflar

O'quvchilar ona tili fanidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

a) grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlar:

fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar.

b) nutqni o'stirish:

birinchi yo'nalish — o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish (o'quvchilarning o'zlari uchun yangi bo'lgan so'zlarning ma'nosini va qo'llanish doirasini aniqlash);

ikkinchi yo'nalish — o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rganish, adabiy talaffuz me'yorlari (to'g'ri talaffuz me'yorlari, so'z birikmalari va gap tuzish me'yorlari, so'z turkumlari va sintaktik tuzilishlarining uslubiy imkoniyatlari, xususan, sinonimikasi) shuningdek, lug'aviy sinonimika va qo'shimchalarning sinonimikasi hamda, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishish;

uchinchi yo'nalish — o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka va ko'nikmalari shakllanadi.

1. Ona tili ta'limining maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasida «Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi», - deyilgan. O'quvchining bilim saviyasiga qo'yiladigan talab esa, ta'lim jarayoni oldiga qo'yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Shunday ekan, Davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili Davlat ta'lim standarti ham ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berildi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan

ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsadga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

-o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

-o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

Standartlashtirishning umumiy talab va mezonlariga ko'ra ona tili ta'lim standarti kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmunidan kelib chiqib belgilab berildi.

Ona tili ta'lim standarti ona tilidan belgilanadigan ta'lim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmini hamda o'quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan o'quv yuklarni hajmini, umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1. O'qish texnikasi. Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni berilgan matndan minutiga nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. Sinfdan-sinfga o'tish davrida miqdoriy ko'rsatkichdagi so'zlarning soni oshishi bilan birga berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

2. O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og'zaki bayon qilinayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu

parametr o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdagi mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq, mavhum va hokazo);
- v) tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati;
- g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;
- d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifati.

Ona tili ta'limi jarayonida pedagogikaning ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi.

O'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bog'lanish yo'lga qo'yiladi. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar, adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

II. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar

5-sinf

Bilimlar: Tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati. O'zbek tilshunosligi, o'zbek adabiy tili, o'zbek xalq shevalari, til va yozuv, dunyo tillari, yozma adabiy nutq, og'zaki adabiy nutq, nutq va matn, matnning xarakteri. «Davlat tili haqida»gi Qonunning tarixiy va ijtimoiy ahamiyati.

O'zbek tilshunosligining asosiy bo'limlari.

Sintaksis. So'z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak gap, so'roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap), gap bo'lagi, gapning bosh bo'laklari: ega, kesim.

Sodda gap, yig'iq sodda gap, yoyiq sodda gap. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Tinish belgilari, ko'chirma gap. Uyushiq bo'lakli gaplar. Undalma.

Fonetika. To'g'ri talaffuz (orfoepiya). Grafika, imlo. Nutq a'zolari. Nutq tovushlari va harflar, harf birikmalari. Unli va undosh tovushlar. Jarangli va jarangsiz undoshlar. So'zda tovushlarning almashinishi. Unli va undosh tovushlar imlosi. Ochiq va yopiq bo'g'in. Bo'g'in ko'chirish qoidalari. So'zni bo'g'inlarga ajratish. So'z urg'usi va mantiqiy urg'u.

Grafika. Alfavit, bosh harf, tutuq belgisi, ko'chish belgisi, harflar birikmasi, qator kelgan bir xil undosh harflar, o'zbek tili imlosining asosiy tamoyillari, imlo qoidalari.

Leksikologiya. So'z va uning ma'nolari. O'zbek tilining so'z boyligi. Lug'atning asosiy boyish manbalari. So'z ma'nosi, lug'aviy ma'no. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning bosh ma'nosi. So'zning o'z va ko'chma ma'nosi. So'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishi borliqni aniq va ramziy ifodalash vositasi sifatida. Sinonim (ma'nodosh), uyadosh so'zlar, antonim (zid ma'noli), omonim (shakldosh) va paronimlar. Iboralar, ularning lug'aviy ma'nosi, uslubiy o'rni va nutqdagi vazifasi.

Izohli lug'at, imlo lug'ati, sinonimlar lug'ati. Lug'at va lug'atlarning turlari. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. O'zbek tilining antonimlar lug'ati.

Morfologiya. So'z tarkibi. O'zak. So'z yasalishi. So'zning o'zak qismlari. O'zakdosh so'zlar. Qo'shimchalarning turlari: so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar.

So'zlarning turkumlarga bo'linish mezonlari. Mustaqil so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish). Yordamchi so'z turkumlari (bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, undovlar, modal so'zlar, taqlid so'zlar).

Ot so'z turkumi, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Otning ma'no turlari. Atoqli otlarning uslubiy qo'llanishi. Otlarda son shakllari. Ko'plik qo'shimchasi. Kelishiklar. Egalik qo'shimchalari. Otlarning tuzilish jihatdan turlari (sodda, juft, qo'shma va qisqartma otlar).

Fe'l, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Fe'lning tuslanishi. Fe'l zamonlari. O'tgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon fe'llari.

Ko'nikmalar: Tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati, o'zbek tilshunosligi, o'zbek adabiy tili, o'zbek xalq shevalari, til va yozuv, tilning paydo bo'lishi, tillar o'rtasidagi munosabatlar, dunyo tillari,

yozma adabiy nutq, og'zaki adabiy nutq kabilarni izohlay olish: so'zlarning turkumlarga bo'linish mezonlari haqida tasavvur hosil qilish, mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlarini farqlay bilish; umumxalq so'zlari bilan qo'llanish doirasi cheklangan so'zlarni, so'zlashuv leksikasi bilan kitobiy leksikani, so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolarini, tub so'zlar bilan yasama so'zlarni, sodda, qo'shma va juft so'zlarni, so'z turkumlarini, mustaqil so'z bilan yordamchi so'zni, so'z bilan so'z birikmasini, sodda gaplarning turlarini, gap bo'laklarini, sodda gap bilan qo'shma gapni o'zaro farqlay olish; fonetik, lug'aviy, leksik, morfologik jihatdan qisman sintaktik tahlil qila olish; grammatik atamaga asoslanib grammatik vositani va qoidani, grammatik vositaga asoslanib grammatik atama va qoidani eslay olish;

Sintaksis bo'yicha. So'z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay bilish, gap bo'lagi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, undalmani nutqda to'g'ri qo'llay olish.

Fonetika bo'yicha. Orfoepiya, grafika, imlo, nutq a'zolari, nutq tovushlari va harflar, harf birikmalari, unli va undosh tovushlar, so'zda tovushlarning almashinishi, ochiq va yopiq bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalari, so'zni bo'g'inlarga ajratish, so'z urg'usi va mantiqiy urg'uni izohlay olish;

Leksikologiya bo'yicha. So'z va uning ma'nolari. O'zbek tilining so'z boyligi. Lug'atning asosiy boyish manbalari. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning o'z va ko'chma ma'nosini farqlay olish, iboralar haqida tasavvurga ega bo'lish, lug'at va uning turlarini farqlay bilish.

Morfologiya bo'yicha. So'z tarkibi, o'zak, so'z yasalishi, so'zning o'zak qismlari, o'zakdosh so'zlar, qo'shimchalarning turlarini ajrata olish.

Malakalar: matn yaratish darajasida gap tuzish; mustaqil gaplarni o'zaro bog'lay bilish, gapda so'z tartibini to'g'ri belgilash; matnda xat boshining yaxlitligi va fikr izchilligi, muhokama elementli matn yaratish; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko'rsatkich – 10-12 gap); tinish belgilaridan (undalmali gaplarda), uyushiq bo'laklarda, ajratilgan izoh bo'laklarda, undalmalarda va qo'shma gap qismlarini bog'lashda, ko'chirma gapda, dialogda to'g'ri foydalanish; grammatik atama va tushunchalardan, qoida va ta'riflardan matn yaratish jarayonida foydalanish. O'rganilgan gap qurilishlariga mos keladigan matn yaratish; darak,

so'roq, buyruq gaplarni, uyushiq bo'lakli, qo'shma va ko'chirma gaplarni ifodali o'qish; unli va undosh tovushlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq to'g'ri talaffuz qilish; qo'shma va qisqartma otlarni, qo'shma fe'llarni to'g'ri yozish; nutqda sinonim, omonim, antonim va uyadosh so'zlardan o'rinli, uslub talabiga ko'ra to'g'ri foydalanish; imlo lug'atidan va ikki tilli lug'atlardan, izohli va boshqa lug'atlardan foydalanish; uyadosh so'zlarga misollar keltirish; atamalar va mahalliy so'zlarni ajratish, ular orasidagi ma'noviy farqlarni aytib berish.

6 – sinf

Bilimlar: Leksikologiya. Sinonimik qator, sinonimik qatordagi bosh so'z, leksik sinonimlar. Sinonimiya stilistikaning asosi ekanligi. Uslubiy chegaralangan so'zlar. Atama. Shevaga xos so'zlar. Kasb-hunarga oid so'zlar. Tasviriy ifoda. Ishlatilish doirasi cheklangan so'zlar. Yangi paydo bo'lgan so'zlar. O'zlashgan so'zlar. Eski qolgan so'zlar. Faol so'zlar. Faol so'zlarning so'zlashuv uslubiga xosligi. Passiv so'zlarning kitobiy uslubga xosligi. Leksikografiya, Turkiy tillar, tilning paydo bo'lishi, tillar o'rtasidagi munosabatlar.

Morfologiya. So'z yasash yo'llari. Yasama so'zning tarkibi. So'zning asosi. O'zak. O'zakdosh so'zlar. Sodda va qo'shma so'zlar. Juft so'zlar. Qo'shimchalar imlosi. So'z shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar So'z o'zgartuvchi, shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar ma'nodoshligi va vazifadoshligi. Morfologik sinonimlar. Mustaqil so'z turkumlari.

Ot so'z turkumi, otning ma'no turlari, otlarning yasalishi.

Fe'l so'z turkumi. To'liqsiz fe'l. Fe'l mayllari. Fe'l nisbatlari. Fe'l shakllari. Fe'lning yasalishi. Ko'makchi fe'llar.

Sifat so'z turkumi, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Sifat darajalari. Sifatning yasalishi. Sifatning otlashuvi. Sifatlarning uslubiy qo'llanishi.

Son so'z turkumi, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Sonning ma'no turlari. Sonning yasalishi. Sonning otlashuvi. Sonlarning uslubiy qo'llanishi.

Ravish so'z turkumi, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Ravishning ma'no turlari. Ravishlarda daraja. Ravishning yasalishi. Ravishlarning uslubiy qo'llanishi. Modal so'zlar.

Ko'nikmalar: Leksikologiya bo'yicha. Sinonimik qator, leksik sinonimlar, tasviriy ifoda, leksikografiya haqida tasavvurga ega bo'lish.

Morfologiya bo'yicha: fe'lining ma'no turlarini, fe'l shakllarini, sifatning ma'no turlarini, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan grammatik ma'nosini, sonning, ravishning ma'no turlarini farqlay bilish; fe'dagi o'timli—o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, shaxs-son va zamon shakllarini ajrata bilish. Kelishik shaklidagi ot bilan ravishni, ot bilan kishilik olmoshini ajratish; so'z turkumlarining muhim belgilarini, so'zlarning otlashuv hodisasini izohlay bilish; sodda, qo'shma, juft so'zlarni o'zaro farqlay olish.

Malakalar: Leksikologiya va morfologiya bo'yicha egallangan ko'nikmalarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash; nutqda o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlariga rioya qilish; sinonimlar, omonimlar, antonimlar va paronimlardan foydalanish talablariga rioya etish; qisqartma otlarni to'g'ri yozish va qo'llash; gapda so'z tartibiga amal qilish. Rivoya-matn, tasvir-matn tuzish. Tabriknoma, ma'lumotnoma yozish; fonetik, lug'aviy, morfologik, sintaktik, uslubiy tahlil qilish; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko'rsatkich - 12-14 gap).

7-sinf

Bilimlar: *Mustaqil va yordamchi so'z turkumlari.* Olmosh so'z turkumi, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Olmoshning ma'no turlari. Olmoshlarning uslubiy qo'llanishi.

Fe'l so'z turkumi. Matnda fe'llarning zamon jihatdan uyg'unligi. Yetakchi va ko'makchi fe'llar.

Sifatdosh. Ravishdosh. Harakat nomi.

Taqlid so'zlar, ularning ma'nosi va gapdagi vazifasi.

Modal so'zlar, ularning ma'nosi va gapdagi vazifasi.

Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar, ularning turlari: sof ko'makchilar, ko'makchi vazifasidagi so'zlar. Bog'lovchilar, ularning turlari: teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar. Yuklamalar, ularning turlari. Undovlar, ularning turlari.

Sintaksis. Fe'lli birikma, otli birikma. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi. Dialogda tinish belgilarining ishlatilishi.

Ko'nikmalar: Mustaqil so'z turkumlari, ularning imlo qoidalari haqida tasavvurga ega bo'lish va ularni farqlay bilish; yordamchi so'zlarni ajrata olish va o'rinli qo'llay bilish; grammatik atamaga asoslanib grammatik vositani eslay olish; o'z nutqining grammatik vositalar hisobiga

boyiganligini namoyon eta bilish; olmoshning ma'no turlarini, ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning turlarini farqlay olish; so'z turkumlarining uslubiy qo'llanishini ajrata olish; tub va yasama so'zlarni, so'z turkumlarining ma'no turlarini ajrata bilish; o'zlashtirma gap va undagi tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish; ega bilan kesim orasida, dialogda tinish belgilarini ishlata olish.

Malakalar: mustaqil va yordamchi so'z turkumlari bo'yicha egallangan ko'nikmalarni yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llash; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko'rsatkich: 14-16 gap); sifat ko'rsatkichlari: gaplarda fikrni aniq, mantiqiy izchillikda yoritish; mustaqil gaplarni, qo'shma gap qismlarini, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lashda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilardan, matniy sinonimlar va boshqa vositalardan foydalana olish; xatboshilarni to'g'ri ajratish, matniy sinonimlarni ishlata bilish; fikr izchilligini ta'minlash.

Ariza yozish. So'z ishlatishda nutq uslublari doirasidagi qoidalarga amal qilish.

So'zlar, so'z shakllari, so'z birikmalari, gaplar, matnning biror qismini morfologik, sintaktik va uslubiy tahlil qilish

8-sinf

Bilimlar: *Sodda gap sintaksisi.* Gap va uning nutqdagi o'rni. Gapning grammatik asosi. Ega va kesim, ularning ifodalanishi. Sodda gap, uning tuzilishi, ma'no xususiyatiga ko'ra turlari.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi, ularning ifodalanishi. Ma'no va grammatik tuzilishiga ko'ra turlari. Gapda gap bo'laklarining tartibi. Odatdagi tartib. O'zgargan tartib.

Gapda kirish bo'laklar. Gapning uyushiq bo'laklari, ularda umumlashtiruvchi bo'laklar. Uyushiq va uyushmagan aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchilarning tartibi. Uyushiq bo'laklarning o'zaro bog'lanishi. Undalma, undalmali gaplarda tinish belgilari. Ajratilgan izoh bo'laklar ma'nosi va grammatik tuzilishiga ko'ra turlari, ajratilgan izoh bo'laklarda tinish belgilarining ishlatilishi, O'zlashtirma gap, o'zlashtirma gaplarda tinish belgilari.

Ko'nikmalar: O'rganilgan grammatik atamalarni esda saqlay olish. Grammatik atamalar orqali zarur qoidalarni tez topa olish, bunda ba'zan tasniflarga tayana bilish. So'z birikmasi bilan gapni, gap bo'laklarini, sodda gapning turlarini, sodda gap bilan qo'shma gapni, kiritma bilan

gap bo'lagini, ajratilgan izoh bo'lak bilan gap bo'lagini o'zaro ajrata olish, muhim belgilarini izohlay bilish. Yozma ish uchun material to'play olish, to'plangan materialni tizimga sola bilish, sodda va murakkab reja tuza bilish, yozma ishga epigraf tanlay olish, ishga qiziqarli epizod qo'sha olish, dialogli parchalar kiritish, tinish belgilarini o'rinli ishlata olish, matnni tahlil qila bilish. Matniy sinonimlarni ishlata bilish.

Malakalar: Fikrni yozma shaklda bayon etish. (Miqdoriy ko'rsatkichi 20-25 gap). Sifat ko'rsatkichlar- matnda bog'lovchi vositalardan to'g'ri foydalanish.

Matn yaratish jarayonida o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlariga rioya qilish, so'zlashuv nutqi bilan kitobiy nutq me'yoriga amal qilish, gapda so'zlarni to'g'ri joylashtirish, o'zgargan tartibdan to'g'ri foydalanish. Ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplardan sintaktik sinonimlar tarzida foydalanish.

Bayon, insho, ish qog'ozlari (xabar, ma'lumotnoma, ariza, hisobot, tarjimai hol) yozish. Uyushiq bo'lakli, ajratilgan izoh bo'lakli gaplarni ifodali o'qish.

9-sinf

Bilimlar: Qo'shma gapning turlari. Bog'langan qo'shma gapning tuzilishi va unda bog'lovchi vositalar: ohang va teng bog'lovchilar.

Ergashgan qo'shma gapning tuzilishi, undagi qismlarning (bosh va ergash gap) bog'liqligi. Ergash gaplarning turlari. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasidagi ma'noviy munosabat. Har xil birikkan gaplardan tuzilgan qo'shma gaplar. Sintaktik sinonimlar, frazeologik sinonimlar, stilistik vosita. Maqola, ma'ruza, referat, ish qog'ozlari. Bog'lanishli nutq, matn, mavzu, asosiy fikr, mazmun, matnning tuzilishi, monologik nutq, dialogik nutq. Rivoya, tasvir, muhokama-matnlar, batafsil bayon, epigraf. Sodda reja, murakkab reja. Nutq madaniyati, nutqiy muomala. Inversiya.

Ko'nikmalar: O'rganilgan grammatik atamalarni eslay olish. Grammatik atamalarga asosanib kerakli qoidani darslikdan topa bilish. Umumxalq so'zlari bilan qo'llanish doirasi cheklangan so'zlarni, so'zlashuv leksikasi bilan kitobiy leksikani, adabiy til me'yori bilan shevaga xos xususiyatlarini ajrata olish, lug'atlarning turlarini farqlay bilish; so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolarini, so'zning turlanishi

bilan tuslanishini, tub soʻzlar bilan yasama soʻzlarni; sodda, qoʻshma va juft soʻzlarni, soʻz turkumlarini, mustaqil soʻz bilan yordamchi soʻzni; soʻz bilan soʻz birikmasini, soʻz birikmasi bilan gapni, gap boʻlaklarini, gapning maqsadga koʻra turlarini, sodda gaplarning turlarini, sodda gap bilan qoʻshma gapni, qoʻshma gapning turlarini, gap boʻlagi bilan ajratilgan izoh boʻlakni; matn turlarini, matndagi muhim va ikkinchi darajali axborotlarni, badiiy asarda soʻzning oʻz maʼnosi bilan koʻchma maʼnosini bir-biridan farqlay olish, nutqda toʻgʻri qoʻllay bilish, rasmiy idoraviy uslubdagi matnlar tuzish. Soʻzlashuv nutqi bilan kitobiy nutq meʼyoriga rioya qilish.

Malakalar: Fikrni yozma shaklda bayon etish boʻyicha: Miqdoriy koʻrsatkich 25-30 gapdan iborat boʻlgan tugal matn (fikr ehtiyoji bilan bogʻliq mavzu asosida) yaratish. Sifat koʻrsatkichlar—matndagi gaplarni mazmunan oʻzaro bogʻlash, fikr izchilligini taʼminlash, oʻrganilgan ifoda vositalarini oʻrinli qoʻllash va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish, ish qogʻozlari (ariza, maʼlumotnoma, ishonch xati, ixcham hisobot, axborot, taqriz kabilar)ni yozish. Muhokama matn yaratish.

Fonetik, lugʻaviy, morfologik, sintaktik, uslubiy tahlil qilish.

Bayon, insho yozish, yozma ish uchun material toʻplash, toʻplangan materialni tizimga solish, sodda va murakkab reja tuzish, yozma ishga epigraf va maʼlum asarlardan tsitatlar tanlash, qiziqarli epizod qoʻshish, xatboshilarni toʻgʻri belgilash, dialoglarni toʻgʻri ajratish, dialogning muallif soʻzi qismida qahramonning ruhiyatini ochuvchi, uni tavsiflovchi soʻzlarni berish, gaplarni va matn parchalarini oʻzaro bogʻlovchi leksik-grammatik vositalarni toʻgʻri qoʻllash. Matnni tahlil qilish.

**Ona tili fanidan umumiy o'rta ta'lim
Maktabining o'quv dasturi
Uqtirish xati**

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda ta’limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta’lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta’limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarining ustuvorligi, davlat ta’lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi ta’kidlab ko’rsatilgan.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o’zbek tilidan bimalol — erkin, samarali va to’g’ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to’laqonli bahramand bo’lish, zaruriy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari kerak.

«Ona tili» darslarida o’quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo’naltirish lozim. Shuning uchun ushbu dastur va u asosida yaratilajak darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg’ulotlarni o’quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Ona tili ta’limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg’ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og’zaki va yozma shakllarda to’g’ri, ravon ifodalash ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Ona tili fanining tarkibiy qismlari

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5—9 sinflarida o’tiladigan «Ona tili» fani o’quvchilarda :

- o’zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo’yicha nutqning og’zaki va yozma shakllaridan to’g’ri foydalanish uchun zarur bo’lgan ilmiy - amaliy ma’lumotlar berishni;
- o’zbek tilida to’g’ri talaffuz, imlo va punktuatsiyasining asosiy qoidalarni o’zlashtirib olishni;
- ona tilining so’z xazinasini bo’lmish turli lug’atlardan to’g’ri foydalana olishni;

- o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda, turli shakllarda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishni;

- muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish yo'llarini;

- kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yuritish ko'nikmalarini;

- yosh va bilim darajasiga mos bo'lgan badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini, shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish ko'nikmasini;

- tashqi dunyoni o'rganish va uni til birliklarida ifodalashda, jamiyat a'zolari orasida muloqot o'rnatishda ona tilining beqiyos ahamiyatini his etish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikmalar berishni asosiy vazifalar qilib oladi.

Ona tili mashg'ulotlari bosqichli ketma-ketlik, shakl bilan mazmun aloqadorligi, tilshunoslik bo'limlarining o'zaro zich bog'liqlikdagi asoslarida ko'riladi. Shuning uchun 5- sinfning birinchi choragi sintaksis bo'yicha zarur tushunchalarni — sodda va qo'shma gap, gapning markazi, gap bo'laklari, undalma va uyushiq bo'laklar, ko'chirma gap, ulardagi tinish belgilari kabilarni o'zlashtirishga bag'ishlanadi. Ikkinchi chorakning boshida o'quvchilarga leksikologiya va morfologiyaning muhim tushunchalari: so'zning ma'nosi, o'z ma'no va ko'chma ma'no, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, qo'shimchadosh so'zlar, o'zakdosh so'zlar, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, o'zak, qo'shimcha, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar haqida dastlabki zaruriy ma'lumotlar beriladi.

«Muqaddima» deb nomlangan bu bo'lim ona tilining izchil kursini o'rganish jarayonida o'quvchilarning tildan yaxlit bir tizim sifatida foydalanish, matn ustida ishlash, fonetik, leksik, morfologik hodisalarni, bu hodisalarning o'z yashash sharoitida bog'lanishli nutqda qo'llash imkoniyatini beradi. Ma'lumki, bitta eng oddiy sodda yig'iq gapda ham tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qurilishining mohiyati aks etgan bo'ladi. Shuning uchun ona tilining o'quvchilar nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi izchil kursi uchun bunday kirish o'ta zarurdir.

Tilning yaxlitlik, ta'limning esa aloqadorlik tamoyili, butun kurs davomida izchillik bilan olib boriladi. Shuning uchun har bir mashg'ulotda o'quvchi lug'aviy boylik va sintaksis ustida — so'z ma'nosi,

fonetik, morfologik hodisalarning sintaktik vazifasi ustida mashqlar bajarishga jalb qilinadi.

Ona tili o'qitishning asosiy vositalari

Ilk bosqichda: 1. Shu dastur asosida yaratilgan darsliklar.

2. O'zbek tili bo'yicha lug'atlar: «O'zbek tilining izohli lug'ati», «O'zbek tilining uyadosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining shakldosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar lug'ati».

Ikkinchi bosqichda bu vositalar sirasi «O'zbek tilining so'z yasash lug'ati», o'zbek tilidagi ensiklopediya, ona tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma tasvir uchun izohli albom, ishlatilishi lozim bo'lgan zarur so'zlar berilgan rasm-tasvirlar va h.k. bilan to'ldirilishi lozim.

Ta'lim usuli

Ta'lim usuli, asosan, induktivdir. Shuning uchun mashg'ulotda faol ishlovchi o'quvchining o'zidir. Har bir mashg'ulot taxminan to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: 1. Takrorlash. 2. Berilgan materiallarning o'quvchilar tomonidan tahlili. 3. Berilgan materiallarni o'qituvchi yordamida umumlashtirish va xulosa chiqarish. 4. Hosil qilingan umumiylikni amalda qo'llash va sinash. Dasturda ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi bosqichlardagi mashg'ulotlar mazmuni taxminiy ko'rsatildi.

O'quvchilarning matn yaratish va matn ustida ishlashlari mashg'ulotning ikkinchi, to'rtinchi bosqichlarida va sinfdan tashqari beriladigan topshiriqlarda markaziy o'rinni egallaydi.

Matnlar xilma-xildir. Ularning aniq tur va ko'rinishi qisman darslikda berilsa, asosan, o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Dastur o'qituvchiga darslikdagi barcha matnlarni o'z didi, talabi, sharoitga qulayligiga ko'ra bemalol almashtirish, o'qitish jarayonini tom ma'nodagi ijodiylik va izlanuvchanlik asosida qurishga to'liq imkoniyat beradi.

O'quvchilar yaratishi lozim bo'lgan matnlar bir necha xildir. Ulardan asosiyarlari:

1. Mashg'ulotda hosil qilingan bilim va ko'nikmani amalda qo'llab matn yaratish. Bunday matnlar ikki va uchta gapdan iborat bo'lishi, monolog va dialog tarzida, qisqagina tasvir yoki hikoya shaklida bo'lishi mumkin. Ularning aniq shaklini o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'zi tanlashi kerak.

2. Berilgan mavzu asosida tasvir (kichik insho) yaratish. Bunday

tasvirlar yozma va og'zaki ko'rinishlarda o'quvchilarning yosh va malaka darajasiga mos mazmun hamda hajmda bajarilishi lozim.

3. Insho-matnning oliy ko'rinishi. Dastur quyidagi insho turlaridan foydalanishni ko'zlaydi: a) ilmiy insho (til, tarix, biologiya va boshqa fanlardan har bir fan uchun xos bo'lgan biror mavzu yoki masalani ochish); b) ilmiy-badiiy insho (badiiy asar, yozuvchi ijodi, adabiy jarayonlar tahliliga bag'ishlangan insholar); v) badiiy- ijodiy insholar (san'at asarini o'rganishdan o'quvchining hosil qilgan shaxsiy kechinmalari tasviri); g) tasviriy insho (narsa, shaxs, manzara va h.k. tasviriga bag'ishlangan insho); d) erkin mavzudagi insho.

Matn ustida ishlash ona tili mashg'ulotlarida asosiy o'rinni egallaganligi sababli, 8-sinfning boshida «Ijodiy matn. Insho va uning turlari» bo'limi kiritildi. Bu bo'lim o'quvchilarning 1—7 sinflarda matn ustida olib borgan ishlarini umumlashtirib, ularni yuqori sinfda, litsey va kollejlarda ancha murakkab insho ustida ishlashga tayyorlaydi. Bu bo'lim mashg'ulotlari deduktiv-induktiv usulda tashkil etilishi mumkin.

Ona tilidan dastur va darsliklarning nazariy-amaliy asoslari

Maktabda ona tili o'qitishning asosiy mazmun-mohiyati hozirgi kun ta'limi maqsadlariga monand tuzilgan Davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklarning quyidagi nazariy-amaliy asoslari bilan belgilab berildi:

I. Ona tili — milliy ma'naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarining ulkan xazinasini.

II. Ona tili — millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita.

III. Ona tilini o'qitishdan maqsad, ta'lim oluvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

IV. Mashg'ulotlarda ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ustuvorligi ta'minlanadi.

V. Darsliklarda o'quv materiallari o'quvchilarning har bir sinfda o'rganadigan boshqa o'quv fanlari va ulardan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'liqlikda beriladi.

VI. Ona tili darsligidagi har bir topshiriq o'quvchi tomonidan mustaqil bajarilishiga moslab tuziladi.

VII. Darslik materiallari o'quvchilarda tafakkurni va nutqni rivojlantirishning asosiy omillariga:

- 1) lug'at boyligini oshirishga;
- 2) so'z boyligidan ijodiy matn yaratish jarayonida foydalanishga;
- 3) mustaqil fikr ifodasining maqsad va nutq vaziyatiga muvofiqligini tanlashga;
- 4) aniq, ilmiy va obrazli (ramziy) nutq ko'nikmalarini shakllantirishga moslab tuziladi va beriladi.

Ona tilidan har bir mashg'ulot yuqorida ko'rsatilgan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

VIII. Ona tiliga oid bilimlarni berishda tilning ko'p sathli, cheksiz imkoniyatli, murakkab tizim sifatidagi talqiniga tayaniladi. Shuning uchun ona tili kursi ona tili qurilishining eng asosiy birliklari va hodisalari bilan tanishtiruvchi «Muqaddima» va «Izchil kurs» kabi ikki qismdan iboratdir.

«Izchil kurs»da tilning turli grammatik hodisalarini, turli sath birliklarini o'zaro aloqadorlikda berish tilimizda aynan bir fikrni turli usullar bilan ifodalash imkoniyatlari borligini, har bir imkoniyatning o'ziga xosligini o'quvchilarga singdirishda «Muqaddima» ning ahamiyati katta.

IX. Dastur va darsliklarning didaktik asosi: o'quvchiga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi; o'qituvchiga o'quvchining o'rganish faoliyatining boshqaruvchisi; darslikka (o'quv topshiriqlariga) o'quvchi va o'qituvchi faoliyatlarini o'zaro bog'lovchi vosita sifatida yondashishdan iboratdir.

X. O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligi uning darslik topshiriqlari asosida o'qituvchi rahbarligida quyidagi turdagi mustaqil ishlarni bajarishida o'z aksini topadi:

- 1) kuzatish-darslik (o'qituvchi) topshirig'i asosida ona tili hodisalaridan berilgan namunalarni kuzatadi;
- 2) izlanish-o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, ma'lumot manbalaridan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyitadi;
- 3) alohidaliklarni sharhlash - berilgan va o'zi davom ettirgan til sirasidagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlaydi;
- 4) qiyoslash — til sirasidagi hodisalarni o'zaro qiyoslaydi;
- 5) umumiylikni aniqlash — siradagi hodisalarning o'xshash, umumiy tomonlarini aniqlaydi;

6) farqlarni topish — siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlaydi;

7) tasnif etish — til sirasidagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajratadi;

8) xulosa chiqarish — hodisalar sirasi haqida umumlashma (xulosa, qoida) hosil qiladi;

9) aloqadorlikni aniqlash — o'rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, zidlari va h.k.) bilan munosabatlarini (yaqinlik, o'xshashlik va farqlarini) aniqlaydi;

10) qo'llash — hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuzadi.

XI. Fikrni bayon etish, ijodiy matn tuzish, matn ustida ish ona tili mashg'ulotlarida alohida mavqega ega bo'lganligi sababli, dasturda VIII sinfda «Ijodiy matn ustida ish» mavzusini o'rganish ko'zda tutilgan.

XII. O'quvchilarning ona tili ta'limi asosida sinfma- sinf olgan amaliy ko'nikmalari va bilimlari ona tilidan Davlat ta'lim standarti talablari bilan baholanadi.

V sinf (204 soat)

Kirish (2 soat)

Kirish suhbat. Tilning ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyati, o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili ekanligi.

Takrorlash (12 soat)

Ayrim unlilar imlosi. Ayrim undoshlarning yozilishi. Bosh va kichik harflarning qo'llanilishi yuzasidan tushuncha. Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarning ma'nosi, imlosi va talaffuzi ustida ishlash, ularning farqlarini izohlash. Berilgan so'zlarga ma'nodoshlar topish, ularni bo'g'inlarga va satrdan satrga ko'chiriladigan qismlarga ajratish. Imlosi murakkab so'zlar ustida ishlash. Juft so'zlar imlosi. Darak, so'roq, buyruq, istak va his-hayajon gaplarda tinish belgilari.

Sintaksis va punktuatsiya (46 soat).

Sintaksis va punktuatsiya. Gap, gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmasi, gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, darak gap, so'roq gap. So'roq olmoshlari yordamida ifodalangan so'roq gaplar. So'roq yuklamalari yordamida ifodalangan so'roq gaplar. Buyruq gap. Istak gap. His-hayajon gap.

Gap bo'laklari.

Kesim – gap markazi. Faqat kesimdan iborat gap, ularning qo‘llanish o‘rinlari. Fe‘l kesim va ot kesim. Ega. So‘zlarni asosiy va qo‘shimcha ma‘no beruvchi qismlarga ajratish.

Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar. Sodda yig‘iq gaplarni ko‘p bo‘lakli gaplarga aylantirish. Ega haqida xulosa chiqarish.

Hol va uning ifodalanishi. Ularni qachon?, qanday?, qaerda?, qanday qilib? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar bilan kengaytirish, «ega+hol+kesim» qolipli gaplar tuzish, berilgan so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar tanlab, yoyiq gaplar hosil qilish, hol haqida xulosa chiqarish.

To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi. Ularni kimni?, nimani?, kimga?, nimaga?, kim bilan?, nima bilan? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar bilan kengaytirish, «ega+hol+to‘ldiruvchi+kesim» qolipli gaplar hosil qilish, so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar asosida yoyiq gaplar tuzish; to‘ldiruvchi haqida xulosa chiqarish.

Aniqlovchi va uning ifodalanishi. So‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar tanlab gaplarni kengaytirish; aniqlovchili so‘z birkmalari hosil qilish; bunday birikmalar ro‘yxatini mustaqil davom ettirish, matnni o‘qib, ajratilgan so‘zlarni ular bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirish; kuzatish va tahlillar asosida xulosa chiqarish. Sifatlovchi aniqlovchi. Qaratqich aniqlovchi.

Uyushiq bo‘laklar. Uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi vositalar va ularning yozuvda aks etishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda ohang; uyushiq bo‘laklarning o‘zaro bog‘lanishi ustida ishlash; uyushgan aniqlovchili, uyushgan holli, uyushgan to‘ldiruvchili va uyushgan egali gaplar tuzish, uyushiq bo‘lakli gaplar ishtirok etgan matn tuzish; uyushiq bo‘lakli gaplar haqida xulosa chiqarish.

Undalma. Undalmalarning gapdagi o‘rni va ularda tinish belgilarining qo‘llanishi. Undalmali va undalmasiz gaplarni taqqoslash asosida ega bilan undalmaning farqini aniqlash; undalmalarning gapdagi o‘rni va tinish belgilari ustida ishlash. Undalmani gap boshida, o‘rtasida va oxirida qo‘llab, gaplar tuzish, berilgan qoliplar asosida gaplar hosil qilish; undovli undalma ishtirok etgan gaplar ustida ishlash.

Undalmalardan foydalanib, e‘lon va murojaat matnlari tuzish.

Kirish so‘zlar. Kirish so‘zlarning gapdagi o‘rni.

Qo‘shma gap. Sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash vositalari (va, chunki, shuning uchun)ni aniqlash. Qo‘shma gap izohi.

Matndagi sodda va qo'shma gaplarni aniqlash.

Qo'shma gaplarda tinish belgilari va bog'lovchi vositalarning qo'llanilishi.

Matn tahlili asosida qo'shma gap yuzasidan o'zlashtirilganlarni mustahkamlash.

Dialog tuzish. Dialog va unda tirening ishlatilishi. Dialogli matnlar yaratish.

Takrorlash (4 soat)

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, undalma, kirish so'zlar, ko'chirma gaplar yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash.

Morfologiya (40 soat).

So'z turkumlari. «So'z turkumlari» tushunchasining izohi. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot. Otlar, turdosh va atoqli otlar. Kelishik qo'shimchalari. Egallik qo'shimchalari, sifatlar. Sifat darajalari. Sonlar. Sonlarning yozilishi. Olmosh so'z turkumi haqida tushuncha. Fe'llar. Fe'l zamonlari. O'tgan zamon. Hozirgi zamon. Shaxs-son qo'shimchalari. Ravishlar, guruhiga mansub so'zlar haqida tushuncha.

Yordamchi so'zlar. Yordamchi so'z turkumlari va ularning gapdagi vazifasi. Berilgan gaplarni o'qib, so'roq olmaydigan so'zlarni, gap bo'laklari va gaplarni bog'lashga xizmat qiluvchi, tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lashga xizmat qiluvchi, ma'noni kuchaytirishga xizmat qiluvchi guruhlariga ajratish; yordamchi so'zlar bo'yicha xulosa chiqarish; berilgan yordamchi so'zlar ishtirokida gaplar tuzish va ularning vazifasini aniqlash.

Bog'lovchilar, ularning vazifalari va yozilishi; *na* inkor bog'lovchisi hamda juft bog'lovchilarning qo'llanilishi ustida ishlash; bog'lovchilar haqida xulosa chiqarish, berilgan sodda gap juftlarini o'zaro bog'lash asosida qo'shma gaplar hosil qilish; sodda va qo'shma gap orasidagi mazmun farqini aniqlash.

Ko'makchilar, ularning ma'no-vazifalari va yozilishi. Berilgan gaplarda *-ga, -da, -dek* qo'shimchali so'zlarni uchun, tomon kabi ko'makchilardan mosi bilan almashtirib, tushunchadagi farqini izohlash, ko'makchilarning qaysi qo'shimchalardan keyin kelishi va qanday vazifa bajarishi haqida xulosa chiqarish, berilgan xalq maqollarida *bilan* so'zini

mumkin bo'lgan o'rinlarda *va* yoki *-u,-yuklamalari* bilan almashtirish, bilan ko'makchisining bog'lovchi vazifasida qo'llanishi, ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzish.

Yuklamalar, ularning ma'no xususiyatlari va imlosi. Yuklamali gaplarning ohangi. Yuklama- qo'shimchalar .

So'z-yuklamalar, ularning vazifasi, ma'nosi, imlosi va ohangi ustida ishlash, yuklamalar haqida umumlashma hosil qilish.

Mustaqil va yordamchi so'zlar yuzasidan takrorlash. Undov va taqlid so'zlar. So'zning tuzilishiga ko'ra turlari .

Qo'shma so'zlar. Bir asosli va ko'p asosli so'zlar haqida tushuncha, ularning qiyosiy tahlili. «Ot+fe'l» tuzilishli qo'shma otlar, ularning ma'nolari, yozilishi. Qo'shma otlar yuzasidan xulosa chiqarish.

Juft so'zlar. Juft so'zlar ustida ishlash, ma'nosini izohlash, ularga ma'nodosh so'zlar va so'z birikmalari tanlash. Juft so'zlar izohi. Juft so'zlar imlosi.

Takror so'zlar. Takror so'zlar bilan ishlash. Matn tahlili asosida takror so'zlar ma'nosini izohlash. Takror so'zlar sharhi va imlosi.

Qisqartma so'zlar, ularning hosil qilinishi va yozilishi.

Takrorlash (2 soat)

Mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Fonetika, grafika (46 soat)

Tilshunoslik fani va uning bo'limlari. Fonetika va grafika. Nutq tovushi va harf. Talaffuz va imlo. Unli tovushlar va ularni ifodalovchi harflar sharhi. Undosh tovushlar va ularning yozilishi. Nutq a'zolarining tuzilishi.

O'zbek tilining nutq tovushlari va harflar. Nutq tovushlarining hosil qilinishi yuzasidan tushuncha. Hozirgi o'zbek alifbosi. Alifbo tartibi haqida ma'lumot.

Adabiy talaffuzning o'ziga xos me'yorlari. "Og'zaki nutq" va "yozma nutq" tushunchalarining sharhi. Talaffuz me'yorlari va imlo me'yorlari. Imlo lug'atidan foydalanish qoidalari

Unlilar talaffuzi va imlosi. U va i unlilarining talaffuzi va imlosi. Bir tovush bilan farqlanuvchi so'z juftlarining qiyosiy tahlili. **A,o** tovushining shevalarda qo'llanilishi. Ot va fe'l turkumiga oid so'z juftlari (son-sanamoq kabi) ustida ishlash. Matn ustida ishlash asosida *-q,-v* yasovchi qo'shimchalari qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan talaffuz va imlodagi o'zgarishlar bo'yicha xulosa qilish.

Yo harfi ifodalaydigan unilarning talaffuzi. **Mo“jiza, mo“tabar, mo“tadil** kabi so‘zlarda o‘ unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo‘yilmasligi. *I* unlisi bilan farqlanuvchi so‘zlar imlosi.

Yor-ur, bo‘r-bur kabi so‘zlar imlosi va qiyosiy tahlili. *Yo* tovushli so‘zlar talaffuzi va imlosi. *Ao, oa, ua, uo, oi* birikmali so‘zlar talaffuzi va imlosiga sharh.

I va *iy* tovushli (*qariyb-qarib* kabi) so‘zlar talaffuzi va imlosi ustida ishlash.

iy, iyi, uyu, ov, uv birikmali so‘zlar talaffuzi va imlosi.

E unlisining talaffuzi va imlosi.

Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. Jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi. *B-p, d-t* jarangli-jarangsiz undosh juftlarining (*bir-pir, dor-tor*) qiyosiy tahlili. *z* ning va *v* ning jarangsizlanish darajalari va o‘rinlari.

g, va k, q va **g‘** harfli so‘zlar imlosi hamda talaffuzi ustida ish. Bunday so‘zlarning **-im, ing, - i** kabi egalik qo‘shimchalari bilan birikishidagi xususiyatlari ustida ishlash.

Q va **g** undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shimchalarning qo‘shilishi va ularning imlosi.

B, m harflaridan oldin kelgan *n* harfi va tovushi, bunday so‘zlar talaffuzi va imlosi.

- dim, -ding; -di, -dik zamon qo‘shimchalari hamda *- da* qo‘shimchasining jarangli va jarangsiz undoshlardan keyin kelishi, imlosi va talaffuzi.

g, k, q tovushlari bilan tugagan otlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash.

Ayrim undoshlarning imlosi va talaffuzi yuzasidan amaliy mashqlar.

J tovushining talaffuzi va imlosi. *Jo‘ja, jo‘ra*, singari so‘zlarning talaffuzini *jurnal, ajdar* singari so‘zlar talaffuzi bilan qiyoslash asosida *j* harfi ikki xil tovushni ifodalashi haqida xulosa chiqarish. Sirg‘aluvchi va portlovchi *j* ning qo‘llanilish o‘rinlari. Sirg‘aluvchi *j* li so‘zlar ro‘yxatini tuzish. Lug‘at diktanti.

X va H tovushlarining talaffuzi va imlosi. Berilgan *x* va *h* harfli so‘z juftlarining qiyosiy tahlili. *H, h* undoshi talaffuziga sharh.

Berilgan *h* undoshli so‘zlar qatorini davom ettirish.

x, h harflari va tovushlari bilan farqlanuvchi so‘zlarning (*shox — shoh, xol — hol* v.h.) imlosi va talaffuzi ustida ishlash.

Lug'at diktanti.

F tovushining talaffuzi va imlosi. F harfli so'zlarning imlosi va talaffuzi ustida ish, bunday so'zlar lug'atini tizish. F tovushi talaffuziga sharh.

Ng tovushining talaffuzi va imlosi; Harflar birikmasining bitta tovushni ifodalashi; *ng* harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarda bo'g'in ko'chirish tartibi; oxiri *ng* harflar birikmasi bilan tugagan so'zlarga *g*, -*gi*, -*gach* qo'shimchalarini qo'shish ustida ish. Izohli lug'at diktanti.

Sh, va **ch** harflar birikmasi hamda ularning vazifalari.

Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi. So'z o'rtasida *tt*, *kk*, *qq*, *ll*, *nn*, *mm* kabi qo'sh undoshlarning qo'llanilishi. Qo'sh undoshlar talaffuzi.

Qo'sh undoshlarning qo'llanilishi (*muhabbat*, *takabbur*, *tashakkur* kabi).

Qator undoshlar. Qator undoshlarning so'z oxirida (*sabr*, *satr*), so'z boshida (*stol*, *professor* kabi) qo'llanilishi.

Qo'sh va qator undoshlar talaffuzi va imlosi bo'yicha xulosa chiqarish.

Tutuq belgisi, uning imlosi va talaffuzi. Tutuq belgisi bilan farqlanuvchi so'zlar. Tutuq belgisining ishlatilish o'rinlari.

Bo'g'in, urg'u, ohang. So'zlarni bo'g'inlarga ajratish.

Ng,sh,ch harf birikmali so'zlarda bo'g'in ko'chirish tartibi ustida ish.

So'z o'rtasida bir xil qo'sh undoshlar kelganda, bo'g'in ko'chirish qoidasi yuzasidan amaliy ishlar. Qo'shma so'zlarni bo'g'inlarga va satrdan satrga ko'chiriladigan qismlarga ajratish.

Qisqartma otlarni talaffuzda bo'g'inlarga ajratish(mas: MDH (*em-de-ha* kabi).

O'zbek tilida urg'u o'rning barqarorligi va xususiyati ustida ish. Unlilarning cho'ziqligi va uning urg'uga aloqadorligi, Yevropacha so'zlarda urg'u va talaffuz.

Takrorlash (4 soat)

Unlilar talaffuzi va imlosi, ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi, qo'sh va qator undoshlar talaffuzi hamda imlosi, bo'g'in ko'chirish qoidalari, tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash.

Leksikologiya (33 soat)

Leksikologiya haqida suhbat. So'zning atash ma'nosi. So'z va so'zshunoslik. So'zlarni narsa-buyumlar, belgi-xususiyatlar, miqdor, harakat singari ma'nolarni ifodalashiga ko'ra guruhlarga ajratish. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.

So'zning o'z va ko'chma ma'nosi. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini qiyoslash, berilgan so'z birikmalarida so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlash. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari yuzasidan xulosa chiqarish, nasriy va she'riy matnlarni o'qib, undan so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlash; so'zlarni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab gaplar tuzish.

Shakldosh so'zlar. Shakldosh so'zlarning badiiy tasvirdagi ahamiyati. Shakldosh so'zlar lug'ati va uning tuzilishi. Shakldosh so'zlarning badiiy san'atdagi o'rni. Tuyuqlarda shakldosh so'zlar. Uyadosh so'zlar.

Paronimlar. Paronim so'zlarning shakldosh so'zlardan farqi. Paronimlar lug'ati.

Ma'nodosh so'zlar. Ma'nodosh so'zlarda umumiy va xususiy ma'nolar. Ma'nodosh so'zlarning nutqiy-tasviriy ahamiyati. She'riy asarlarda sinonimlarning qo'llanishi. Sinonimik qator haqida tushuncha. Ma'nodosh so'zlarning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni. Sinonim so'zlarni ma'no yaqinligiga ko'ra va ular orasidagi ma'no farqiga ko'ra tahlil qilish. So'zlarning salbiy va ijobiy bo'yoqlari.

Zid ma'noli so'zlar. Zid ma'noli so'zlarning qo'llanish o'rni va ahamiyati.

Kuzatish asosida zid ma'noli so'zlarning izohi. Zid ma'noli so'zlar qatori asoslarini aniqlash, qatorni davom ettirish. Zid ma'noli so'z juftlari ustida ish. O'qilgan ertaklar asosida zid ma'noli so'zlardan foydalanib ertak qahramonlariga tavsif berish. Matn ustida ish.

O'zbek tili leksikasining boyish manbalari.

Eskirgan so'zlar. Eskirgan so'zlar, ularning o'tmish badiiy tasvirini berishdagi o'rni. Berilgan matndan tarixiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni aniqlash. Tarixiy so'zlarning ishlatilishi. Eskirgan so'zlarning tarixiy asarlarda qo'llanilishi. Yangi so'zlar.

Iboralar, ularning ma'no ifodalash xususiyatlari. Matn tahlili asosida so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlash. Ularning ko'chma ma'nosiga ma'nodosh so'zlar topish, qiyosiy tahlil. Iboralar sharhi. Berilgan so'zlarga ma'nodosh iboralar tanlash, ular ishtirokida matn yaratish. Savol va topshiriqlar ustida ishlash. Tasviriy ifoda. So'z boyligining oshib borishi haqida tushuncha.

Atamalar. Bunday so'zlar haqida ma'lumot. Umumiy va xususiy ma'noli so'zlar. Ma'lum bir fan, kasb – kor sohasidagina qo'llaniladigan so'zlar. Shevaga xos so'zlar.

Olinma soʻzlar. Matn tahlili asosida olinma soʻzlar haqida tushuncha. Yevropa tillari va oʻzbek tili uchun umumiy boʻlgan soʻzlar ustida ishlash. Olinma soʻzlar izohi. Yozbek tilida arab va fors-tojik tillaridan olingan soʻzlar ustida ishlash; oʻzbek tiliga Yevropa tillaridan kirgan soʻzlar imlosi, talaffuzi va qoʻllanilishi yuzasidan amaliy ish.

Lugʻat va lugʻatshunoslik. Lugʻat turlari va ulardan foydalanish.

Oʻquv yili oxirida takrorlash (15 soat)

Gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlari, gap boʻlaklari, mustaqil soʻzlar, yordamchi soʻzlar, unli tovushlar, undosh tovushlar, boʻgʻin va urgʻu, soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari, shakldosh, maʼnodosh soʻzlar, zid maʼnoli soʻzlar, eskirgan va yangi soʻzlar, iboralar va tasviriy ifodalar, atamalar, shevaga xos soʻzlar, olinma soʻzlar, lugʻatshunoslik yuzasidan oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkamlash.

VI sinf (170 soat)

Kirish (3 soat)

5-sinfda oʻtilganlarni takrorlash (12 soat)

Fonetika. Grafika va imloning ayrim masalalari. Ayrim unli larning aytilishi va yozilishi. Ayrim undoshlarning aytilishi va yozilishi. Soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlish va satrdan satrga koʻchirish. Soʻz urgʻusi. Fonetik tahlil tartibi boʻyicha ishlash.

Maʼnodosh (sinonim) va uyadosh soʻzlar. Shakldosh (omonim) soʻzlar. Zid maʼnoli (antonim) soʻzlar. Oʻzakdosh soʻzlar. Kasb-hunarga oid soʻzlar. Iboralar. Berilgan matndagi soʻzlarni maʼnodosh, uyadosh va zid maʼnoli soʻzlar bilan almashtirish. Matndagi soʻzlar maʼnosini izohlash, bu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlarini aniqlash boʻyicha amaliy mashqlar.

Morfologiya (8 soat)

Morfologiyaga kirish. Soʻz tarkibi haqida umumiy maʼlumot. Qoʻshimchalarning maʼno va vazifasiga koʻra turlari. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar. Tub va yasama soʻzlar. Shakl yasovchi qoʻshimchalar va ularning tasnifi. Soʻzning morfologik tarkibi. Soʻz tarkibida tartib. Soʻz tarkibi va soʻz yasalishi boʻyicha tahlil.

Soʻz turkumlari. Kirish (2 soat)

Toʻplam va tasniflar. Mustaqil soʻz turkumlari haqida umumiy tushuncha.

Mustaqil so'zlarning qanday ma'no anglatishi, grammatik shakllari va gapdagi vazifasiga ko'ra alohida turkumlarga ajratilishi.

Fe'l turkumi (60 soat)

Fe'larning ma'no va grammatik vazifalariga ko'ra turlari: mustaqil fe'llar, yordamchi fe'llar, to'liqsiz fe'l. Mustaqil fe'llar haqida umumiy tushuncha. Harakat va holat fe'llari. Yordamchi fe'llar. To'liqsiz fe'l. Fe'l turkumida so'z yasalishi. Yasovchi qo'shimchalar bilan fe'l yasalishi. Yordamchi fe'llar yordamida fe'l yasalishi. Fe'lning vazifa (xoslovchi) shakllari. Harakat nomi shakllari. Sifatdosh shakllari. Sifatdoshlarning otlashuvi. Ravishdosh shakllari. Ravishdoshlarning ma'no turlari.

Fe'lning nisbat shakllari. Aniq nisbat shakli. O'zlik nisbat shakli. Orttirma nisbat shakli. Majhul nisbat shakli. Birgalik nisbat shakli.

Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari.

Fe'lning mayl shakllari. Buyruq-istak mayli, bu mayldagi fe'llarning ma'nolari. Shart mayli shakllari. Maqsad mayli shakli. Xabar mayli shakli, bu mayl shaklining zamon ma'nolari.

Fe'lning zamon shakllari. Qo'shimchalar yordamida yasaluvchi o'tgan zamon fe'llari, *edi* to'liqsiz fe'li yordamida hosil bo'luvchi o'tgan zamon fe'llari. O'tgan zamon fe'llarining yozilishi. O'tgan zamon fe'l shakllarining ma'nolari. Fe'lning hozirgi zamon shakllari: qo'shimchalar yordamida yasaluvchi hozirgi zamon fe'llari, **-(i)b** shaklli holat fe'llari yordamida hosil qilinuvchi hozirgi zamon fe'llari. Fe'lning kelasi zamon shakllari: hozirgi-kelasi zamon shakli, kelasi zamon gumon shakli. Fe'l zamon shakllarining ko'chma qo'llanishi. Fe'lning shaxs-son shakllari: fe'l tuslanishining uch ko'rinishi.

O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash.

Fe'l so'zlarning morfologik tahlili tartibi.

Ot so'z turkumi (37 soat)

Ot so'z turkumi haqida ma'lumot. Atoqli va turdosh otlar. Kishi nomlari va ularning imlosi. O'rin-joy nomlari (toponimlar) va ularning imlosi.

Turdosh otlar va ularning ma'no turlari. Aniq va mavhum otlar. Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar. Shaxs otlari. Shaxsni boshqa jihatlariga ko'ra atovchi otlar, ularning yozilishi. Narsa otlari, ularning yasalishi va yozilishi. Hayvonlarni atovchi otlar. O'rin-joy (makon)ni atovchi otlar, ularning imlosi. Yashash xona (uy) larni matn orqali tasvirlash. Faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar. Payt (zamon) anglatuvchi otlar.

Otlarning yasalishi. Sodda va qo'shma otlar. Juft va takroriy otlar, ularning yozilishi. Boshqa turkumdagi so'zlarning ot o'rnida qo'llanishi (otlashuv). Ot turkumida shakl yasalishi. Son shakllari. Son shaklining ko'chma ma'noda qo'llanishi. Otlarning kichraytirish-erkalash va hurmat shakllari, ularning imlosi. O'tilganlarni takrorlash.

Sifat turkumi (18 soat)

Sifatning umumiy belgilari va vazifalari. Sifatning qo'shimchalar yordamida yasalishi va ularning imlosi. Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda sifatlar, qo'shma sifatlar. Juft va takroriy sifatlar, ularning yozilishi. Asliy va nisbiy sifatlar. Sifat turkumida shakl yasalishi. Daraja shakllari: oddiy daraja shakli, orttirma daraja shakli, ozaytirma daraja shakli, qiyosiy daraja shakli. Sifatning ma'noviy turlari: xususiyat, hajm-o'lchov, makonzamon, rang-tus bildiruvchi sifatlar, maza-ta'm va hid bildiruvchi sifatlar. Sifatlarning otlashuvi. Boshqa turkum so'zlarning sifat o'rnida qo'llanishi (sifatlashuv). Sifatning uslubiy qo'llanishi.

O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash.

Son turkumi (12 soat)

Son so'zlarning umumiy belgilari va vazifalari.

Miqdor sonlar, uning turlari: sanoq sonlar va ularning yozilishi. Sanoq sonlar bilan qo'llanuvchi hisob so'zlari. Dona son va taqsim son shakllari. Chama sonlar va ularning yozilishi. Jamlovchi sonlar, ularning hosil qilinishi. Butun son va kasr son, ularning yozilishi. Hisob so'zlari.

Tartib sonlar, ularning yozilishi. O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash.

Ravish turkumi (12 soat)

Ravishlarning umumiy belgilari va vazifalari. Ravishlarning yasalishi.

Ravishlarning ma'no turlari: holat ravishi, o'rin ravishi, payt ravishi, miqdor-daraja ravishi. Ravishlarning uslubiy qo'llanishi. Ravish darajalari: bosh daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja shakllari. Ravish o'rnida qo'llanuvchi so'zlar. O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash.

O'quv yili oxirida takrorlash (6 soat)

So'z tarkibi (so'z yasalishi va shakl yasalishi) yuzasidan takrorlash.

Fe'l nisbatlari bo'yicha takrorlash. Fe'l zamonlari, ularning vazifa almashinuvi bo'yicha takrorlash. Otning ma'no turlari bo'yicha takrorlash.

Sifat va ravish darajalari yuzasidan takrorlash. Sonning ma'no turlari bo'yicha takrorlash.

VII sinf (102 soat)

K i r i sh (1 soat)

Til va nutq.

6-sinfda o'tilganlarni takrorlash (10 soat)

Fonetika bo'yicha o'tilganlarni takrorlash, imlo bo'yicha o'tilganlarni takrorlash. Qo'shimchalar va ularning imlosi, So'z tarkibi, so'z yasalishi. Otning ma'no turlari, ot turkumida shakl yasalishi. Mustaqil va yordamchi fe'llar. Fe'ning xoslovchi shakllari. Fe'ning nisbat shakllari. Fe'ning mayl shakllari. **Fe'ning zamon shakllari yuzasidan hosil qilingan tushunchalarni** mustahkamlash. Sifat, son, ravish, so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.

Mustaqil so'z turkumlari haqida ma'lumot (17 soat).

Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi

Olmoshlarning ma'nolari va vazifalari. Olmoshlarning ma'no turlari.

Ko'rsatish olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi

Kishilik olmoshlari va ularning qo'llanishi. *Men, sen, u, biz, siz, ular* olmoshlarining qo'llanilishi ustida ishlash. Kishilik olmoshlarining birlik va ko'plik sonda qo'llanishi. *Siz* olmoshining ma'nolarini sharhlash.

O'zlik olmoshi va uning qo'llanilishi. O'z olmoshining ma'nolari, *o'zlari* olmoshining ko'plik, hurmat yoki kesatish ma'nolarda qo'llanishi.

Belgilash olmoshlari va ularning qo'llanishi. Belgilash olmoshlari orasidagi ma'noviy farqlar. Har olmoshining yakka holda va so'roq olmoshlariga qo'shilgan holda qo'llanishi, ma'nolari. Belgilash olmoshlarining hosil bo'lishi haqida umumlashma hosil qilish.

So'roq olmoshlarining ma'no turlari, ularning qo'llanishi. So'roq ifodalovchi so'zlarning xoslanganligiga ko'ra turlari: shaxsga nisbatan qo'llanuvchi so'roq olmoshlari, hayvon, narsa-buyum yoki voqea-hodisaga nisbatan qo'llanuvchi so'roq olmoshlari, paytga, belgiga nisbatan qo'llanuvchi so'roq olmoshlari. So'roq olmoshlarining talaffuzi va yozilishi.

Gumon olmoshlari va ularning qo'llanishi. Gumon olmoshining yasalishi va ma'nolarini izohlash. Gumon olmoshlarini so'roq olmoshlari bilan almashtirish; har ikkala gap mazmunini qiyoslab, tegishli xulosa chiqarish. Gumon olmoshlarining hosil bo'lishi, imlosi va talaffuzi ustida ishlash.

Bo'lishsizlik olmoshlari va ularning qo'llanishi. Bo'lishsizlik olmoshlarining hosil bo'lishi va ma'nosi.

Hech bo'lishsizlik olmoshining qanday so'zlarga bog'lanib kelishi va ma'nosi.

Olmoshlar o'rnida qo'llaniladigan so'zlar. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda va qo'shma olmoshlar. Ularning imlosi.

Juft va takroriy olmoshlar imlosi va ma'nosi. *Kim-kim, qanday-qanday, u-bu, o'z o'zi, biz-u siz, shu-shu* olmoshlarining tarkibi va ma'nosi ustida ishlash.

So'zlarning munosabat shakllari (20 soat)

Ismlarning munosabat shakllari. Ismlarning lug'aviy va munosabat shakllari.

Aloqa-munosabat shakllari qo'shimchalari bilan birikish xususiyatlariga ko'ra so'zlarning uch katta guruhga: 1) ism; 2) so'f fe'l; 3) o'zgarmas so'zlarga bo'linishi ustida ishlash. Aloqa-munosabat shakllarining vazifalari.

-ga, -dan, -da qo'shimchalarining *uchun, bilan, sari, sababli, tomon, uzra, orqali* ko'makchilari bilan almashib qo'llanishi; *-ga, -dan, -da* sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarning vazifasi haqida xulosa chiqarish.

-im, -si, -ning, ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalarining vazifasi va ma'nosi ustida ishlash.

Egalik qo'shimchalari. *-im, -miz, -ing, -i, -si, -miz, -ingiz* kabi qo'shimchalarning so'z ma'nosidagi o'ri.

Unli va undosh bilan tugagan ismlarni (ot; sifat, son; olmosh, sifatdosh, taqlid) turlash; ularning imlosi va ma'nosi ustida ishlash.

Kelishik shakllari. Berilgan gaplarda *-ning, -ni, -ga, -da, -dan* qo'shimchali so'zlar (ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlar) da har bir qo'shimchani o'zi qo'shib kelgan so'zga qanday ma'no berayotganligini aniqlash.

Otlarning turlanishi ustida ishlash. Kelishik shakllari sirasi va so'roqlari. Kelishik shakllarining imlosi, talaffuzi, ma'nosi va vazifasiga oid ijodiy-amaliy ishlar.

Kesimlik shakllari.

Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchi (12 soat)

Ko'makchilar haqida umumiy tushuncha. Sof ko'makchilarning qo'llanishi. Bosh va qaratqich kelishiklaridagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar. Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar. Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ko'makchilar. Sof ko'makchilarning ayrim qo'shimchalar bilan

ma'nodoshligi. Ko'makchi otlar va ularning qo'llanishi. Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari.

Bog'lovchi (10 soat)

Bog'lovchilar haqida umumiy tushuncha. Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari. Sof va vazifadosh bog'lovchilar. Teng bog'lovchilarning turlari. Biriktiruv bog'lovchilarining qo'llanishi. Inkor bog'lovchilar. Yakka va takror bog'lovchilar. Ayiruv bog'lovchilarining qo'llanishi. Zidlov bog'lovchilarining qo'llanishi. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning turlari. Aniqlov bog'lovchilarining qo'llanishi. Sabab bog'lovchilarining qo'llanishi. Shart va chog'ishtiruv bog'lovchilarining qo'llanishi.

Yuklama (8 soat)

Yuklamalar haqida umumiy tushuncha. Yuklamalarning ma'no turlari. Sof va vazifadosh yuklamalar. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari. So'roq va taajjub yuklamalari. Ayiruv va chegaralov yuklamalari. Aniqlov, gumon va inkor yuklamalari. Yuklamalarning yozilishi.

Undov so'zlar (3 soat)

Undov so'zlar haqida umumiy tushuncha. His-hayajon undovlari. Buyruq-xitob undovlari. Undov so'zlarning yozilishi.

Taqlid so'zlar (6 soat)

Taqlid so'zlar va ularning qo'llanishi haqida umumiy tushuncha. Taqlid so'zlarning turlari. Tovushga taqlid so'zlar va ularning yozilishi. Taqlid so'zlarning gapdagi vazifasi. Taqlid so'zlarning morfologik tahlili tartibi.

Modal so'zlar (8 soat)

Modal so'zlar, ularning ma'nolari va qo'llanishi. Sof va vazifadosh modal so'zlar. Modal so'zlarning gapdagi vazifasi.

Tasdiq va inkor so'zlar.

O'quv yili oxirida takrorlash (7 soat)

Olmosh, ravish, taqlid so'zlarning qo'llanishi. Yordamchi so'zlar, ularning gapdagi vazifalari. Yordamchi so'zlarning yozilishi. Asosiy atamalar va ish qog'ozlari ustida ishlash.

VIII sinf (102 soat)

Kirish va takrorlash (7 soat)

Kirish suhbat: «So'zdan so'zning farqi bor». Adabiy nutq va uning uslublari haqida tushuncha.

Mustaqil so'z turkumlari. Yordamchi so'z turkumlari, undov, taqlid va modal so'zlar, olmoshning ma'no turlari, ravishning ma'no turlari kabi mavzu va tushunchalar yuzasidan quyi sinflarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma hamda malakalarni takrorlash.

Ijodiy matn. Insho va uning turlari (8 soat)

Ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn. Matndagi asosiy fikrni aniqlash.

Insho - ijodiy matnning oliy ko'rinishi. Insho turlari.

Ilmiy insholar, ularning uslubi va lug'aviy xususiyatlari, axborot berish qiymati.

Ayni bir axborotni badiiy va ilmiy uslubda berish. So'zlarning umumiste'mol va ilmiy-atamaviy ma'nolari hamda qo'llanishlari ustida ish.

Erkin insholar. Ularning uslubiy-lug'aviy xususiyatlari.

Adabiy mavzudagi insholar. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar. Inshoga epigraf tanlash.

Sintaksis, ohang va tinish belgilari

Sintaksis haqida umumiy tushuncha (1 soat)

So'z birikmasi (18 soat)

So'zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi aloqa-munosabat shakllari ustida ish. So'z birikmalarida so'zlarning o'zaro bog'lanish usullari: boshqaruv, bitishuv va moslashuv haqida tahliliy mashqlar asosida tushuncha hosil qilish.

Moslashuv va bitishuv (*suvchi qizi - suvchi qiz*), moslashuv va boshqaruv, boshqaruv va moslashuv usullarining so'z birikmalarida tushuncha farqlash vazifasi va ma'nodoshligi.

So'z birikmasi va so'zlar qo'shilmasi. So'z birikmasi va so'z. So'z birikmasi va qo'shma so'z. So'z birikmasi va ibora. Tasviriy ifoda. So'z birikmalaridan qo'shma so'zlarning kelib chiqishi ustida ish. So'z birikmasi zanjiri. So'z birikmasi va gap.

Takrorlash, test ustida ish. So'z birikmalarini tahlil qilish tartibi.

Gap (6 soat)

Gap gaqida umumiy ma'lumot.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gaplar, so'roq gaplar, buyruq gaplar, istak gaplar.

Gapning his-hayajonni ifodalashiga ko'ra turlari: his-hayajonsiz gaplar, his-hayajonli (undov) gaplar.

Gapning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda gaplar, qo'shma gaplar.

Sodda gap sintaksisi (20 soat)

Sodda gap haqida umumiy ma'lumot. Gapning bo'laklarga ajratilishi. Kesim va uning ifodalanishi. Fe'l kesim va ot kesim. Sodda kesim va murakkab kesim. Murakkab ot kesimlarning tuzilishi. Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi. Ot kesim va ega orasida tirening qo'llanishi. Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari. Ega va uning ifodalanishi. Egali va egasiz gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasiz gaplar. Shaxsi noma'lum gap. Atov gaplar. So'z-gaplar. Yoyiq atov va so'z-gaplar. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar.

Ikkinchi darajali bo'laklar (34 soat)

Hol haqida umumiy ma'lumot. Payt holi va o'rin holi. Ravish holi va daraja-miqdor holi. Sabab holi va maqsad holi. Murakkab holli gaplar. To'ldiruvchi haqida umumiy ma'lumot. Vositasiz to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchi. Aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot. Sifatlovchi aniqlovchi. Qaratqichli aniqlovchi. Izohlovchi. Gap bo'laklari tartibi. Gap urg'usi. To'liq va to'liqsiz gaplar. Gapning uyushiq bo'laklari haqida ma'lumot. Uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z. Ajratilgan bo'lakli gaplar. Ajratilgan hol, ajratilgan to'ldiruvchi va ajratilgan aniqlovchi, ularda ohang va tinish belgilari.

Gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan «bo'laklar» (5 soat)

Kiritmalar. Undalma. Undalmalarda tinish belgilarining ishlatilishi.

O'quv yili oxirida takrorlash (3 soat)

IX sinf (68 soat)

Kirish va takrorlash (5 soat)

Dunyo tillari va o'zbek tili. Tillar oilalari: hind-evropa tillari oilasi, turkiy tillar oilasi va boshqalar haqida tasavvur hosil qilish. Turkiy tillarning asosiy guruhlari. O'zbek tilining bu oiladagi o'rni.

So'z birikmasi, gap bo'laklari, uyushiq va ajratilgan bo'lakar, undalmali va kirish so'zli gaplar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.

Qo'shm a gaplar (4 soat)

Sodda va qo'shma gaplar. Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar. Qo'shma gaplar tasnifi.

Bog'langan qo'shma gaplar (9 soat)

Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot. Birikturuv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar. Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar. Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar. *Bo'lsa, esa* so'zlari va yuklamalar yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

Ergashgan qo'shma gaplar (22 soat)

Ergashgan qo'shma gap haqida ma'lumot. Bosh va ergash gap. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar. Bosh gap va ergash gap haqida tushuncha hosil qilish. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'noviy xususiyatlari asosida bosh gap va ergash gap orasidagi ma'noviy munosabatlar ustida ish. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ma'nodoshligi.

Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar. *deb* so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplar. Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar. Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gap bilan ma'nodoshligi. Kesim ergash gapli qo'shma gaplar. Ega ergash gapli qo'shma gaplar. Hol ergash gapli qo'shma gaplar. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar. Mustahkamlash.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar (6 soat)

Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida ma'lumot. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning boshqa qo'shma gaplar bilan ma'nodoshligi. Bunday gaplar tarkibiy qismlarining o'zaro ma'noviy munosabati. Bu gaplarda vergul, tire, nuqtali vergul va ikki nuqtaning qo'llanilishi, ularda ohang. Gaplarning tarkibiy qismlari orasidagi hokim-tobelik munosabatlari.

Qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi va vazifadoshligi.

Ko'chirma gapli qo'shma gaplar (9 soat)

Ko'chirma gapli qo'shma gap haqida ma'lumot. Ko'chirma gapli qo'shma gapning tuzilishi. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish. Mustahkamlash.

O'quv dasturi

Nutq uslublari (11 soat)

Nutq uslublari haqida ma'lumot. So'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy uslublar yuzasidan tushuncha hosil qilish. Insho nazariyasi haqida ma'lumot berish.

O'tilganlarni takrorlash. (2 soat)

**Adabiyot fanidan
Davlat ta'lim standarti**

Umumiy o'rta ta'limning 5-9-sinflarida o'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarning aks ettirish zaruriyati esa o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini ado etadi.

O'quvchilar turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emotsional (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtai nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Ta'limning turli bosqichlarida o'rganish uchun saralab olingan asarlarga qo'yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo'nalishi, o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, uning kamoloti uchun ko'rsata oladigan ijobiy ta'siri, milliy va umuminsoniy g'oyalarga uyg'unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rni singari belgilar olinishi mumkin.

O'quvchilar adabiyot ta'limiga oid quyidagilarni bilishlari kerak:

- matnни to'g'ri, tez va ifodali o'qish qoidalarini;
- Prezident asarlaridagi madaniy merosga, adabiyotga, san'atga oid asosiy g'oyalar mazmunini;
- mamlakatimiz mustaqilligi va bayramlari haqidagi, ona-Vatanga

muhabbat uyg'otuvchi adabiy asarlar mazmunini anglagan holda so'zlab berishni;

- mumtoz adabiyot janrlari bilan zamonaviy adabiyot janrlarini farqlay olishni;

- badiiy adabiyotning asosiy janrlarini;

- badiiy asarning asosiy tasvir vositalarini; ularning ifoda imkoniyatlarini; o'rganilayotgan asar mavzusi, asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini;

- berilgan har qanday mavzuda og'zaki va yozma ravishda mustaqil fikr yurita olishni;

- o'qilgan asardan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olishni;

- o'zga insonning tuyg'ulari va hissiy kechinmalari xususida fikr yurita olishni;

- turli mavzularda insho yoza olishni;

- o'rganilgan adiblar tabiatiga xos bo'lgan xislatlarni baholay olishni;

- adabiy qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildira olishni va uni asoslay bilishni;

- yuksak didli va aqlan barkamol adabiy qahramonlarning xislatlarini ochib bera olishni;

- musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qilish va uni so'z bilan ifodalab berishni;

- o'rganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos bo'lgan xislatlarni anglab, ularga munosabat bildira olishni;

- o'rganilgan asarlardagi adabiy qahramonlar xususiyatiga xos bo'lgan fazilatlarga mustaqil fikr bildira olishni;

- o'rganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatidagi milliy xususiyatlarni anglay bilishni;

- adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni kitobxonlik amaliyotida mustaqil qo'llay olishni;

- adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga to'g'ri baho bera olishni.

I. O'quvchilar adabiyot ta'limiga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- adabiy-badiiy matnlarni to'g'ri, tez va ifodali o'qish;

- har bir sinf darajasida 4-5 ta matnni yoddan ayta olish;

- Prezident asarlarini bilish, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yurita olish;
- adabiy asar mazmunini anglagan holda qayta so'zlab berish;
- berilgan adabiy va ijodiy mavzularda og'zaki hamda yozma tarzda mustaqil fikr yurita olish;
- o'qigan asarlari haqidagi tasavvur va taassurotlarini ifodalay olish;
- berilgan adabiy va ijodiy mavzularda mustaqil ravishda reja tuzish hamda shu reja asosida insho yozish;
- adabiy qahramonlarning yetakchi xislatlarini yoritish, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirish, asardagi fakt va materiallar asosida o'z nuqtai nazarini asoslay olish;
- adabiy-nazariy hodisalar mohiyatini to'g'ri ilg'ash va ularga bog'liq tushuncha va bilimlarini o'rganilayotgan asarga tatbiq etish;
- adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga to'g'ri baho berish;
- badiiy asar tilidagi o'ziga xosliklarni ilg'ash va ularni izohlay olish.

II. Adabiyot ta'limining maqsad va vazifalari:

Adabiyot ta'limi o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezigulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag'bat, mehr va muhabbat uyg'otish;
- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- ularning boy ma'naviy dunyosini shakllantirish;
- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida o'quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;
- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;
- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi zarur bo'ladi:

- o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish;
- o'quvchilarning badiiy adabiyotning janr va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uni tahlil qilishning munosib shakllarini topish va amalda qo'llashga o'rganishlariga erishish;
- o'quvchilarning og'zaki nutqlarini adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash;
- ularning yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish;
- adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma tarzda yetkazish yo'llarini egallash;
- badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go'zallik va nafosatni his etishga o'rgatish;
- ulardagi badiiy matnni emotsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlarini haqidagi tasavvurlarini, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, adabiyot o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

V-VII sinflarda yozuvchi tarjimai holi va adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko'proq ahamiyat beriladi. O'quvchilarning ijodiy o'y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san'atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o'rin tutadi. Garchi bu asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko'lamida o'rganish kerak.

VIII-IX sinflarda o'quvchilarga milliy adabiyotning rivojlanish tarixi, uning asosiy bosqichlari, undagi yetakchi tur va janrlar, eng muhim asarlar haqida dastlabki tushunchalar berish; ularga o'zbek adabiyoti

tarixi yaxlit bir estetik jarayon ekanligini singdirish; badiiy matnning asosiy unsurlari, uning ta'sirchanligini ta'minlagan omillar, adiblarning badiiy mahorati, uslubiy o'ziga xosliklarini aniqlash; mavzularga mos adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish; ularda adabiy asarni tahlil qilish malakasini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Bu davrda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga tayangan holda, o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, yangi o'zbek adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti, shuningdek, jahon adabiyotining vatanparvarlik, qahramonlik, go'zallik, adolatparvarlik, insonparvarlik, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi, diniy bag'rikenglik kabi yuksak insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi asarlarni o'rganish, shuningdek, adabiyotni nisbatan bo'lsa-da, izchil kurs sifatida o'qitishga e'tibor beriladi. Adiblar va asarlarni o'rganishdagi xronologik izchillik ham bunga xizmat qiladi. Mazkur asarlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, ayrim adabiy-nazariy tushuncha (janr, tur, tasvir vositasi, she'riy va nasriy nutq) lar haqidagi ma'lumotlar ham beriladi.

III. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar V sinf

Bilimlar. Adabiyotning so'z san'ati ekanligi, xalq og'zaki ijodi shu san'atning bir ko'rinishi ekanligi haqidagi dastlabki tushunchaga ega bo'lish; maqol, topishmoq, hadis, masal, rivoyat, xalq ertaklari, adabiy ertaklar kabi janrlar haqida ixcham ma'lumotlarga ega bo'lish, ular orasidagi farqlarni bilish;

Ko'nikmalar. Adabiyotning so'z san'ati, xalq og'zaki ijodi uning bir ko'rinishi ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lish; hadislarining mazmuni va ma'nosini tushunish; badiiy asardagi asosiy fikrni anglash va his etish; badiiy asar mazmunini ilg'ash; badiiy asar qahramoniga shaxsiy mulohazasini bildirish; asar mazmunini matnga yaqin tarzda hikoyalay olish.

Turli janrlardagi badiiy matnlarni ifodali o'qish; asarlarda aks etgan his-tuyg'ular tasvirini tuyish va uni ifodalay bilish; qahramonning asosiy ma'naviy fazilat va nuqsonlarini tavsiflash; asardagi asosiy va ikkinchi darajali voqealarni ajratish; o'rganilgan asarning sodda rejasini tuzish; shu rejaga munosib qisqa hajmli insho yozish; o'rganilgan asarlarga tayanib, ijodiy matn yaratish, xalq ertaklarini adabiy ertaklardan farqlash;

Asar obrazlari va ular orasidagi munosabatlar haqida tushunchaga ega bo'lish, lirik asarlarni tushunib o'qish, sharhlash, badiiy matndagi tasvir asosida adabiy qahramonga, o'zi va o'rtoqlariga baho berish, she'riy asarni tushunish, imlo va izohli lug'atlardan foydalanish, asar qahramonlariga nisbatan o'zida darddoshlikni his etish, topishmoq, ertak, ixcham badiiy to'qima - qatra tarzidagi ijodiy matn yaratish, so'zdan ta'sirlanishni his etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tasviridagi mazmun va mohiyatni tushunish, ulardagi milliy iftixor, g'urur tuyg'ularini his etish, turli vazndagi she'rlarni ifodali o'qish.

Malakalar. Og'zaki va yozma nutqda so'zning o'z va ko'chma ma'nolaridan to'g'ri va unumli foydalanish; maqol, topishmoq, hadis, ertak, masal, she'r, hikoya va boshqa janrlar vositasida ifodalangan ezgulik va yaxshilik sifatlarini o'z axloqiy me'yorlariga singdirish; ularda ifodalangan Vatan, ezgulik, go'zallik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ularini anglash; badiiy asar mazmunini o'zlashtirish va hikoyalash; matnni ifodali o'qish; badiiy matn yoki undan olingan parcha asosida og'zaki va yozma reja tuzish, reja asosida qahramonning yetakchi fazilatlarini tavsiflash; berilgan matn asosida yangidan ijodiy matn yaratish; adabiy asardagi tasvir mohiyatini ongli tarzda o'zlashtirish; asar qahramoni bilan o'zidagi (o'rtoqlaridagi) axloqiy-ma'naviy sifatlarni taqqoslash; sinfdan tashqari o'qilgan asarlarga mustaqil munosabat bildirish; darslikda berilgan lug'atlar bilan ishlash; badiiy matndagi epitet, o'xshatish, jonlantirish singari nisbatan sodda tasvir vositalarini topish va ularni asoslash; asardagi milliy qadriyatlar tasviriga e'tibor berish va ularni izohlash; ulardagi milliy iftixor tuyg'ulariga asos bo'ladigan holatlarni ilg'ash va uni so'z vositasida ifodalash, notanish badiiy matnni ovoz chiqarib 105-110 so'z tezligida o'qish; notanish matnni ovoz chiqarmay 150-170 so'z tezligida o'qish; dasturda tavsifiya etilgan 6-7 she'rlarni yod aytib berish.

VI sinf

Bilimlar. Adabiyot ma'naviyat xazinasi ekanligini bilish; hajviya, hikoya, sarguzasht asar, xalq qo'shiqlari, zarbulmasal, doston, hikmatli so'z haqidagi nazariy ma'lumotlarni bilish;

Ko'nikmalar. Adabiyotning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini anglash; asardagi hajviy qahramonlar tabiatiga xos xususiyatlarni belgilash; matn mazmunini o'z so'zlari bilan, shuningdek, uning shaxsini o'zgartirib izchil bayon etish; asar qahramonlari xatti-

harakatlariga munosabat bildirish va asoslay olish; asar qahramonlarining bir-birlariga munosabati sababini tushuntirish; badiiy asar tilidagi o'ziga xoslikni tushunish; tegishli janrlarga mansub asarga xos xususiyatlarni anglash;

Badiiy matnni ifodali o'qish; asar mazmunini og'zaki izchil bayon etish; asarlarda tasvirlangan voqea-hodisa, tuyg'ular mohiyatini, undagi o'ziga xosliklarni anglash; asar qahramonlariga xos takrorlanmas xususiyatlarni tushunish; o'rganilgan asarlar ahamiyatini tasavvur eta olish;

Izohli lug'atlar bilan ishlash; she'riy va nasriy matnlarni ifodali o'qish; asardagi majoziy talqinni tushunish; qo'shiq turlarini, she'riy vaznlarni ajratish;

She'riy matnlardagi lirik qahramon his-tuyg'ularini anglay olish; badiiy asarlarda ifodalangan inson ruhiy tuyg'ularini tushuna olish; insoniy xislatlarning milliy, irqiy va diniy tafovutlardan qat'iy nazar har kimning o'ziga bog'liqligini, o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va ma'naviy qadriyatlarni tushuna bilish;

Malakalar. Badiiy matnni tahlil qilish; asarda tasvirlangan voqea va hodisalarga baho berish; qahramon xatti-harakatlariga mustaqil munosabat bildirish; o'qilgan asardan shaxsiy xulosalar chiqarish; badiiy asardan olgan taassurotlarini og'zaki va yozma tarzda bayon eta olish;

Matnni obrazli va ifodali o'qish; asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga baho berish; asar qahramonlariga xos bo'lgan sifatlarni tahlil qilish; o'rganilgan asar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish; o'qilgan asar yuzasidan yozma va og'zaki taassurot bayon etish; asarlarda tasvirlangan davr bilan hozirgi kunni qiyoslab munosabat bildirish;

Badiiy matnlarda ifodalangan insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirish va ularga amal qilish; matnlarda ifodalangan hunarli, bilimli bo'lishdek sifatlarni egallash; badiiy matnni to'g'ri, tez va ifodali o'qish; asar qahramoni haqida og'zaki hikoya rejasini tuzish;

Asar qahramoniga xos mardlik, tantilik, halollik kabi xislatlarni egallash; asarlarda ifodalangan vatanparvarlik tuyg'usi, Vatanga bilimli ilg'or dunyoqarashli farzandlar kerakligini anglash va bunga intilish; buyuk allomalarning ilm-fan sohasidagi xizmatlarini anglash va ularga munosib bo'lishga intilish; notanish asarni ovoz chiqarib, 105-115 so'z tezligida o'qish; notanish matnni ovoz chiqarmay, 170-180 so'z tezligida o'qish; dasturda tavsiya etilgan 7-8 badiiy matnni yod olish.

VII sinf

Bilimlar. Qissa, doston, tashbih, hasbi hol, chiston, tabiat lirikasi haqidagi nazariy ma'lumotlarni bilish, badiiy asarning inson ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunish;

Ko'nikmalar. Boshqalar tomonidan o'qilgan badiiy asar mazmunini idrok eta olish; asardagi badiiy tasvirning ahamiyatini, badiiy asarda ona tili imkoniyatlarining o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadigan holatlarini, ularda aks etgan milliy urf-odat va qadriyatlar talqinini his qila olish; asarda ifodalangan rang-barang tuyg'ular tasviridagi o'ziga xosliklarni kuzatish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini anglab yetish; adabiy asar tahlilida nazariy ma'lumotlardan foydalana olish;

Badiiy asarlardagi asosiy fikrni anglash; badiiy asarda ifodalangan xilma-xil insoniy fazilat va nuqsonlarga (mardlik va nomardlik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, tantilik va pastkashlik) mustaqil munosabat bildirish; badiiy tasvir vositalari, she'r san'atlarini farqlash, og'zaki va yozma nutqda ulardan foydalana olish;

Asar qahramonlari holatini his etish; lirik asarlarni ta'sirchan va obrazli qilib ifodali o'qish; asarda ifodalangan tabiat va jonzotlarga, tabiat hodisalariga nisbatan mehr-muhabbat tuyish; asarlardagi go'zallik tuyg'usini his eta olish;

Malakalar. So'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, badiiy asar zamiridagi tub ma'noni anglash;

Asarlarda ifodalangan milliy qadriyatlarga munosabat bildirish va xulosa chiqarish; asar qahramonlariga mustaqil tavsif berish; o'qilgan asarlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini asoslagan holda, og'zaki va yozma taqriz tayyorlash; badiiy matndagi eng muhim tasvir vositalarini topish va ularni asoslash; matnga ataylab kiritilgan "begona" so'z yoki sinonimni aniqlash; mumtoz va zamonaviy asarlarni ifodali o'qish. Notanish asarni ovoz chiqarib, 110-120, ovoz chiqarmay, 190-200 so'z tezligida o'qish; tavsifa etilgan 8-9 badiiy asarni yod olish.

VIII sinf

Bilimlar. Didaktik adabiyot, tragediya (fojia), roman, doston, g'azal, tuyuq, musamman, irsoli masal, qofiya, radif va boshqalar haqidagi nazariy ma'lumotlarni bilish;

Ko'nikmalar. Badiiy asar mavzusi va g'oyasini aniqlay olish; bunda har bir ijodkorning o'ziga xosligini idrok etish va izohlay olish; badiiy

asardagi alohida hamda bir guruh qahramonlarning og'zaki va yozma tavsifini berish; badiiy asarda aks etgan voqea-hodisalarning xalq hayotiga yaqinligini tushuna olish; asar qahramonlaridagi fazilat va nuqsonlarning, uning badiiy takomilidagi o'rni va ahamiyatiga baho bera bilish; alohida olingan adabiy janrlar, tasvir vositalarining asardagi o'rni, badiiy-estetik ahamiyati va qimmatini anglay olish; mumtoz asarlarni lug'atlardan foydalangan holda izohlay olish;

Asar qahramoni ruhiy olamiga xos nozik tuyg'ularni, lirik qahramon tabiatidagi milliy o'ziga xoslikni; asardagi asosiy axloqiy-ma'naviy muammolar ifodasining sabablarini tushuna olish; asar qahramoni kechinmalaridagi ziddiyat sabablarini anglash va munosabat bildirish; badiiy asar tilini tushunish; ijodi o'rganilgan adiblarning adabiyot rivojiga qo'shgan hissasini anglay bilish;

Badiiy asarlarda aks etgan voqelikni san'atning boshqa turlaridagi ayni hodisalar tasviri bilan qiyoslay olish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsata bilish;

Dramatik asardagi personajlarning har bir replikasida qahramonning harakatini, uning ma'naviy qiyofasini ko'ra olish, uning o'ziga xos ovozi tinglay olish;

Sahna asaridagi qahramonlar kayfiyatining o'zgarishlarini kuzata olish. Badiiy asardagi muallif nuqtai nazarini tushuntira olish. Satirik va yumoristik asarlardagi ironiyani his eta olish. Badiiy asardan olgan tasavvur va taassurotlarini intellektual va emotsional tarzda, mantiqiy izchillikda ifodalay bilish;

Malakalar. Asardagi voqealar va timsollar munosabatini tahlil qilish, o'rganilgan adabiy asarning asosiy badiiy xususiyatlari bo'yicha mulohaza yuritish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish. Badiiy asarlarni mavzusi, janri, uslubini nazarga olgan holda to'g'ri, ifodali, ta'sirchan o'qish. Imlo lug'ati, izohli lug'atlardan foydalanish;

Badiiy adabiyotda aks etgan hayotiy hodisalar (go'zallik, xunuklik, ezgulik, yovuzlik) mohiyati, bundagi ijodkor niyati va asarda qo'yilgan bosh muammoni, uning yechimidagi badiiy o'ziga xosliklarni anglash va ularni real hayot hodisalari bilan qiyoslash, lirik qahramon ruhiyatiga tayangan holda qahramonlarga munosabat bildirish. Tasvir mazmuniga tayangan holda asarda aks etmagan portretning og'zaki bayonini berish;

Berilgan adabiy va erkin mavzularda insho yozish; o'rganilgan adabiy-nazariy tushunchalardan badiiy matnda foydalanish; notanish matnni

ovoz chiqarib 120-130 soʻz tezligida oʻqish; notanish matnni ovoz chiqarmay 195-205 soʻz tezligida oʻqish; dasturda tavsiya etilgan 9-10 badiiy matnni yod olish.

IX sinf

Bilimlar. Xalq dostonlari va ularning turlari, sheʼriy roman, memuar asar, badiiy asarda milliy ruh ifodasi, ruhiy tahlil, adabiyotdagi komil inson tasvirining oʻziga xosligi, tashxis, musamman, lirik qahramon obrazi, tragik obrazlar va hayot haqiqati, soʻz sanʼatining obrazlilikini, oʻrganilgan adabiy asarlar mazmunini, oʻrganilgan ijodkorlarning hayoti va ijodiga oid asosiy fakt va hodisalarni, tarixiy-adabiy jarayonga xos boʻlgan asosiy qonuniyatlarni, mustaqillik davri adabiyotining xususiyatlari kabi nazariy maʼlumotlarni bilish;

Koʻnikmalar. Badiiy asar mazmunini turli shakllarda (qisqartirib, shaxsini oʻzgartirib, asliga yaqin holda...) qayta hikoyalay olish; adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasi maʼlumotlariga (mavzusi, muammosi, maʼnaviy yoʻnalishi, obrazlar tizimi, kompozitsion xususiyatlari, tilning tasviriy vositalari, badiiy detal) tayangan holda badiiy asarni tahlil qilish va izohlay bilish; oʻrganilayotgan asar epizodini tahlil qilish, uning asarda qoʻyilgan ijtimoiy-estetik muammo bilan aloqadorligini tushuntira olish; badiiy adabiyotda tasvirlangan voqea va hodisalarni ijtimoiy hayot va madaniyat bilan aloqadorligini koʻrsatish, uning konkret tarixiy hamda umuminsoniy mazmunini ochib bera bilish; badiiy asar turi va janrini aniqlay olish; adabiy asarlar va qahramonlarni qiyoslay olish; oʻrganilgan asar yoki undan olingan parchani ifodali oʻqish; oʻqigan asariga baho berishda oʻz mulohazalarini asoslay bilish; oʻqilgan asar yuzasidan taqriz yoza olish; oʻrganilayotgan asarning gʻoyaviy-badiiy mazmunini tushunish; badiiy asardagi goʻzal gʻoyaning munosib shaklda ifodalanganini his etish va undan zavqlana olish; badiiy asar bilan yaqinlik tufayli hosil boʻladigan tuygʻularni his etish va uni soʻz bilan ifodalay olish; mumtoz adabiyot, yangi davr adabiyoti, mustaqillik davri adabiyotining asosiy tamoyillarini anglay bilish.

Malakalar. Ayrim asarlarning real hayotiy asoslarini, ayrim qahramonlarning prototi plarini oʻzaro qiyoslash, oʻz xulosalarini erkin tushuntirish; ijodkorning ikki yoki undan ortiq asarlarini qiyoslash; oʻzaro yaqin mavzularda ijod qilgan adiblarning ijodlarini qiyosiy tahlil qilish; har qanday janrdagi badiiy asarni yaxlit adabiy-estetik hodisa

sifatida tasavvur etish, uning qismlari orasidagi bog'lanishlarni idrok etish, adabiy janrlarning o'xshash va farqli jihatlarini izohlash; matndagi hodisalar, qahramonlar xarakteri va xatti-harakatlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni izohlash; adabiy-nazariy tushunchalar mohiyatini tushunish va o'zlashtirilayotgan badiiy asar tahlilida ulardan foydalanish; yozuvchining uslubiy o'ziga xosligini anglab yetish; adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzularda taqriz, annotatsiya, bayon va insholar yozish; turli lug'atlardan foydalanish;

Notanish badiiy matnni ovoz chiqarib, 125-135 so'z tezligida o'qish; notanish matnni ovoz chiqarmay, 200-210 so'z tezligida o'qish; dasturda tavsiya etilgan 10-11 badiiy matnni yod olish.

**Adabiyot fanidan umumiy o'rta ta'limning
o'quv dasturi**

**5 - 9 sinflar Adabiyot dasturini tuzishda quyidagi jihatlar inobatga
olindi:**

1. Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo'libgina qolmay, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan boshqa fanlar singari, o'quvchilarga birinchi navbatda bilim berishi, ya'ni ko'p asrli o'zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayonning asosiy yo'nalishi – yetakchi yozuvchilar va ular ijodi bilan, shu yozuvchilar ijodida o'z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtirishi, adabiyotning fan sifatidagi o'ziga xos tomonlari va nazariy masalalari haqida tasavvur berishi lozim. Aniqroq aytganda, umumta'lim maktabini bitirib chiqqan o'quvchi o'zbek adabiyotining eng qadimgi davridan hozirgi davriga qadar bosib o'tgan yo'li haqida, atoqli yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida muayyan bilimga ega bo'lishi lozim.

2. O'zbek adabiyoti qo'riq va bo'z yerda paydo bo'lgan emas. Yozma adabiyotdan bir necha asr avval xalq og'zaki ijodi yaratila boshlangan va bu og'zaki ijod hozirga qadar yashashda davom etib keladi. Yozma adabiyotning maydonga kelishida muhim manba bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodi dunyodagi eng boy og'zaki ijodlardan biri bo'lib, ko'plab doston, afsona, rivoyat, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq singari asarlarni oladiki, ularda, bir tomondan, xalq tarixi, maishiy madaniyati, urf-odatlar va h.k.lar o'z aksini topgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu asarlar xalqni, ayniqsa, yosh avlodni milliy an'analar ruhida, shuningdek, vatanparvarlik, erkparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalab kelgan. Shuning uchun ham yozma adabiyot bilan birga, umumiy ta'lim maktablari o'quvchilariga o'zbek xalq og'zaki ijodining eng yaxshi namunalari haqida ham bilim berish maqsadga muvofiq.

3. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismidir. O'zbek adabiyoti boshqa adabiyotlar singari, milliy zaminda tug'ilgan va shu zaminda rivojlanib keladi. O'zbekiston jahon hamdo'stligining to'laqonli a'zosi bo'lgan hozirgi kunda faqat o'zbek adabiyotini o'rganish o'quvchilar

uchun yetarli emas. Jahon adabiyotining turli adabiy- tarixiy davrlarda yaratilgan eng yaxshi asarlari va shu asarlarning mualliflari haqida bilimga ega bo'lish, bir tomondan, o'quvchilarga o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligini tushunish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ularning adabiyot haqidagi bilimlarini boyitadi. Shuning uchun 7-sinfning adabiyot dasturida boshqa xalqlar adabiyotidan ham ayrim xarakterli namunalar berish tajribasiga to'la amal qilindi.

4. Adabiyot ijtimoiy fan tarmog'i sifatida shu kecha-kunduzda tug'ilib va shakllanib kelayotgan avlodlarni milliy g'oya asosida tarbiyalash ishiga xizmat qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid (masalan, diniy va milliy totuvlikka raxna soluvchi), milliy g'oyaga zid (masalan, panturkizm, shovinizm, ksenofoniyani targ'ib qiluvchi), milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash tamoyiliga mos kelmaydigan (masalan, nigilizm, g'oyasizlik, tushkunlikka moyillik, kosmopolitizm ruhidagi) asarlar darslikdan joy olmasligi kerak. Ayni paytda dasturda, ayniqsa, dastur asosida yoziladigan darslik va uslubiy qo'llanmalarda shunday asarlarga nisbatan o'quvchilarda immunitent hosil qila biladigan tushuncha va tasavvurlar berish ayni muddaodir.

5. 5-7 sinflar uchun yaratilgan amaldagi dasturlarda xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot va jahon adabiyoti materiallari muayyan mavzu (rukn) lar bo'yicha berilgan bo'lsa, 8,9-sinflar uchun yaratilgan dasturlar adabiyotni tizimli o'rganish maqsadiga bo'yundirilgan edi. Dasturning qayta ishlangan hozirgi nusxasida ana shu ilmiy-pedagogik tamoyilni saqlab qolish maqsadga muvofiq deb topildi.

6. Odatda adabiyot fani bo'yicha tuzilgan dasturlarda, mumtoz va zamonaviy adabiyot tarixida katta mavqega ega bo'lgan, tarix g'alviridan o'tgan, milliy adabiyot taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan yozuvchilar va ularning sara asarlari o'quvchilarga o'rganish uchun tavsiya etib kelinadi. Aksar Sharq va g'arb mamlakatlarida qabul qilingan ushbu tamoyil, afsuski, dasturning oldingi nusxasida e'tiborga olinmadi. Mazkur dasturda hozirgi o'zbek adabiyotida katta mavqega ega bo'lmagan yozuvchilar va ularning asarlari ham o'quvchilarga tavsiya etildi.

7. Zamonaviy o'zbek adabiyotining bir qator namoyandalari o'zlari tug'ilib o'sgan viloyatlarda ijod qilib keladilar. Ular orasida badiiy yetuk, milliy g'oyaga xizmat qiluvchi asarlarni yaratayotgan yozuvchilar ham oz emas. Shunday yozuvchilarning sara asarlari dasturdan o'rin olishga haqli va munosibdir.

8. Dasturning yangi tahririda tushirib qoldirilgan, ammo mustaqillik yillarida samarali ijod qilayotgan, shaxsiy hayoti va insoniy fazilatlarini bilan o'quvchilarga o'rnatilgan bo'la oladigan ayrim yozuvchilar ijodi 9-sinfda «Mustaqillik davri adabiyoti» faslida o'tilishi yoki o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun tavsiya qilinishi mumkin.

5 sinf (102 soat)

Adabiyot - so'z san'ati (1 soat).

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi. Uning estetik, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyati. Badiiy so'z qudrati. So'zning ifoda imkoniyatlari. So'z orqali inson ruhiy olami, his-tuyg'ulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi. Adabiyot va ma'rifat, adabiyot va ma'naviyat, adabiyot va tarbiya. Badiiy adabiyotning turlari. Mumtoz hamda zamonaviy shoir va yozuvchilarning asarlari misolida adabiyotning so'z san'ati ekanligini namoyish etish.

HIKMAT DURDONALARI

Maqollar (1 soat).

Maqollar xalq og'zaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkuri qaymog'ining aks etishi. Maqollarning shakliy tuzilishi, ularga xos qisqalik, ta'sirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida ma'lumot. Maqollarning kishilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, do'stlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar.

Xalq og'zaki ijodi tushunchasi.

Topishmoqlar (1 soat).

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri sifatida. Topishmoqlarda inson va uni o'rab olgan olamning o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanganligi. Topishmoqlarining shakliy tuzilishi. Topishmoqlarning savol va javob qismlari bilan birgalikda bir butun asarni tashkil etganligi. Topishmoq va maqol.

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar (2 soat).

Imom Buxoriy va uning «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam») hamda «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») nomli hadis to'plamlari haqida ma'lumot. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom

Hadislarining inson ma'naviyati yuksalishida tutgan o'rni. Axloq-odobga oid hadislarining o'ziga xos xususiyatlari. Ularda ezgu insoniy fazilatlarining ixcham voqeyi hikoyalar asosida ifodalanishi. Hadislarining millatimiz axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni.

Komil insonning ma'naviyatini shakllantirishda hadislarining o'rni. Hadislarda bildirilgan fikrlar va o'quvchi tabiatidagi sifatlar orasidagi aloqadorlik. Mehribonlik, bag'rikenglik, ma'rifatga chanqoqlik, odillik singari fazilatlarining ahamiyati xususida. Hadislar bilan o'zbek xalq maqollari va buyuk allomalar hikmatli so'zlarining mushtarak jihatlari. Hadis haqida tushuncha.

Ezop. «Yovvoyi echkilar», «Kiyik bilan tokzor», «Bo'ri bilan laylak», «Eshak bilan baqalar», «Ustiga tuz yuklangan eshak», «Burgut, zag'cha va cho'pon» masallari (2 soat).

Qadimgi yunon masalchisi Ezop hayoti to'g'risidagi rivoyatlar. Ezop masallarining insoniyat ma'naviyati, ma'rifiy tafakkuridagi o'rni. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari g'oyalarning ilgari surilganligi.

«Yovvoyi echkilar» masalida do'stga sadoqat, «Kiyik bilan tokzor» masalida yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, «Bo'ri bilan laylak» masalida do'st-dushmanning kimligini farqlash lozimligi, boshqa masallarda ham shunga o'xshash hayotiy masalalar ramziy obrazlar orqali talqin etilganligi.

Masalchilikning shakllanishi va taraqqiyotida Ezop ijodining ahamiyati. Ezop masallarining tarbiyaviy roli. Masal haqida tushuncha.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1. O'zbek xalq maqollaridan 10 tadan yod olish.**
- 2. Topishmoqlardan 10 tadan yod olish.**
- 3. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislaridan 10 tadan yodlash.**
- 4. Ezop masallarini o'qish.**

ERTAKLAR OLAMIDA

«Uch og'a-ini botirlar» ertagi (3 soat).

Ertakning xalq og'zaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan janri ekanligi. O'zbek xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlari. «Uch og'a-

ini botirlar» ertagining betakror badiiy olami. Unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo'lganligi. Botirlarga xos ezgu ma'naviy sifatlarning namoyon bo'lishi.

«**Susambil**» ertagi (2 soat).

Ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyati. Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli sifatida. Ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlari.

Ertak haqida tushuncha.

Hamid Olimjon. «**Oygul bilan Baxtiyor**» dostoni (3 soat).

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Uning ertak-dostonlari. «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni syujeti va obrazlar tasviridagi o'ziga xoslik. Dostondagi asosiy qahramonlar. Dostonda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasviri. Asarning badiiy xususiyatlari. Asar tilining sodda va ravonligi.

Adabiy ertak haqida tushuncha

M.Shayxzoda. «**Iskandar Zulqarnayn**» dostoni (2 soat).

Shayxzodaning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

XX asr o'zbek shoirlari ijodida she'riy ertak-dostonlar yaratish tajribasi. «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostoni va uning muallifi haqida ma'lumot. Iskandarning ikki shoxi borligi haqidagi rivoyat va uning dostonidagi o'ziga xos talqini. Iskandar, Sartarosh va Cho'pon obrazlari. Pinhon tutilgan mudhish sir va uning Cho'pon yasagan nay orqali oshkor bo'lishi. Nayning ramziy mohiyati. Dostondagi rivoyatdan chiqadigan muhim saboq — tarixda pinhon tutilgan qabih ishlarning yopiqligicha qolib ketmasligi, baribir qachondir oshkor bo'lishi muqarrar ekanligi.

Asqad Muxtor. «**Adolat**» ertagi (3 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot. «Adolat» ertagida mehnatsevarlik va yalqovlik, yaxshilik va yomonlik g'oyalarning ifodalanishi. Asar tilining ravonligi yaxshi va yomon insoniy sifatlarning qiyoslanishi.

Jonatan Svift. "Gulliverning sayohatlari" (3 soat).

Adib haqida ma'lumot. Romanning majoziy asar ekanligi. Unda asar qahramonlari tabiatidagi ijtimoiy illatlarning kulgiga olinishi. Asarda tasvirlangan voqealarning xayoliyligi va xarakterlar tasviridagi realizm o'rtasidagi nomutasoslik.

Asar qahramonlari xarakteridagi illatlarga munosabati va ularning muallif zamondoshlariga daxldor jihatlari.

Hans Kristian Andersen. «Bulbul» ertagi (3 soat).

Ertakchi-yozuvchi haqida ma'lumot.

«Bulbul» ertagida ezgulik va yomonlik o'rtasidagi kurashning ifodalanishi. Ertakdagi qahramonlar obrazi va ular o'rtasidagi munosabatlar tasviri. Ertakda ezgulik va go'zallikning buyuk yaratuvchi kuch sifatida ulug'lanishi. Ertakning badiiy o'ziga xosligi, uning qiziqarliligini ta'minlagan omillar.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi.
2. «Susambil» ertagi.
3. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni.
4. Asqad Muxtor «Adolat» ertagi.
5. M.Shayxzodaning «Iskandar Zulqarnayn» dostoni.
6. Hans Kristian Andersen. «Bulbul» ertagi.
7. J.Svit. «Gulliverning sayohatlari».

BOLALIKNING BEG'UBOR OLAMI

Abdulla Qodiriy. «Uloqda» hikoyasi (2 soat).

«Uloqda» hikoyasining XX asr boshlaridagi o'zbek xalqi hayotidan olinganligi. Hikoyaning g'oyaviy mazmuni. Hikoyadagi obrazlar. Asar voqealari tasvirining hikoyachi bola tilidan, uning dunyoqarashi orqali berilishi. Tasvirda badiiy joziba va samimiylikka erishilganligi. Asarda adib yashagan tarixiy muhit tasviri. Hikoyada o'zbek bolalariga xos jihatlarning aks ettirilganligi.

Mirkarim Osim. «Zulmat ichra nur» qissasi («Yoshlik ayyomining ilk bahori»...) (3 soat).

M. Osim tarixiy qissalar muallifi sifatida. Yozuvchi ijodida Navoiy mavzusining yetakchilik qilishi.

«Zulmat ichra nur» qissasidagi «Yoshlik ayyomining ilk bahori» deb nomlangan lavhalarda Alisherning bolalik chog'lariga oid ibratli voqealarning tasvir etilgani. Undagi kitobga bo'lgan muhabbat, xayolot olamining kengligi, mulohazasining teranligi. Mazkur hikoyalarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati. Qissaning o'quvchilar tomonidan to'liq o'qilishiga erishish.

G'afur G'ulom. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi (3 soat).

G'afur G'ulomning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida Birinchi jahon urushi davridagi xalq hayotining aks ettirilishi. Hikoyada bola, kampir, o'g'ri obrazlarining haqqoniy tasvirlanganligi. Kampir bilan o'g'ri o'rtasidagi suhbat; suhbatdagi tabiiylik va samimiylikning namoyon bo'lishi. Hikoyadagi obrazlarda o'zbek milliy ruhining tiniq aks etganligi.

Usmon Nosir. «Yur, tog'larga chiqaylik», «Yo'lchi», «Bolaligimga», «Yoshlik», «Yurganmisiz birga oy bilan», «Gulzor – chaman...» she'rlari (3 soat).

Usmon Nosirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Shoir she'rlarida bolalarga xos beg'ubor his-tuyg'ularning ifodalanishi. Ushbu she'rlarda bolalar tabiatiga xos xususiyatlarning mahorat bilan tasvir etilganligi. U. Nosir she'rlarining badiiy o'ziga xosligi.

Shoir she'rlarida tabiat go'zalliklari bilan pokiza qalbli inson tuyg'ulari o'rtasidagi hamohanglik. Usmon Nosir she'rlarida odamning go'zallikka munosib bo'lishi ulkan bir istak sifatida ifodalangani.

O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari» qissasidan (4 soat).

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Dunyoning ishlari» qissasi muallifning o'z onasi haqidagi xotiralardan iborat ekanligi. Qissadan olingan boblarda Ona, o'g'il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilgani. Qissaning «Alla», «Iltijo» boblarida insonning Ona oldidagi farzandlik burchining, hech qachon to'lab bo'lmas qarzning ta'sirchan ifodalanganligi. Onani qo'msash, uni sog'inish, uning hech kim bilan almashtirib bo'lmaydigan mehri oldida qarzdorlik tuyg'usining ifodalanishi.

«Oq, oydin kechalar», «Tush», «Gilam paypoq» fasllarida Ona qalbidagi cheksiz mehr-muruvvat tuyg'usining samimiy ifodasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Mirtemir. «Bulut», «Shudring», «To'rg'ay», «Baliq ovi», «Qishlog'im» she'rlari (3 soat).

Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Mirtemir she'rlarida ona yurt tabiatidagi tengsiz go'zalliklarning tasvirlanishi. Shoir she'rlarida yurt tabiatiga mahliyolik, undan faxrlanish hissining bo'rtib turishi.

Mirtemir she'rlarida tabiatga mehr-muhabbatning ifoda etilishi. «To'rg'ay» she'rida ana shu cho'l qushiga xos xususiyatlarning yorqin tasvirlanganligi, «Qishlog'im» she'rida o'zbek xalqiga xos ezgu sifatlarning o'ziga xos yo'sinda aks ettirilishi. She'rlarning badiiy xususiyatlari va ifoda tarzi.

A.Sent-Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda» qissasi (4 soat).

Yozuvchi haqida ma'lumot.

Ertak-qissada bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi. Unda abadiyat va foniylik, hayot, muhabbat va o'lim muammosining o'ziga xos tarzda tasvir etilishi. Kichkina shahzoda obrazi. Ertakdagi boshqa obrazlar va ular o'rtasidagi munosabat. Ertakda bolalar ruhiy olamiga xos xususiyatlarning yorqin ifodalanganligi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. **Abdulla Qodiriy. «Uloqda» hikoyasi.**
2. **Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» qissasi.**
3. **G'afur G'ulom. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi.**
4. **Usmon Nosir. «Yur, tog'larga chiqaylik», «Gulzor – chaman...» she'rlari.**
5. **O'.Hoshimov. «Dunyoning ishlari» qissasi.**
6. **Mirtemir. «Baliq ovi», «Qishlog'im» she'rlari.**
7. **A.Sent-Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda» qissasi.**

MUMTOZ ADABIYOT BO'STONI

Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror» dostoni (4 soat).

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Hayrat ul-abror» asari buyuk shoirning «Xamsa» asarining birinchi dostoni ekanligi. Dostonda chin va yolg'on so'zning solishtirilishi. To'g'rilikning qanchalar azob bilan bo'lsa-da, g'olib kelishi, yolg'on va egrilikning oxir-oqibat yengilishi Sher bilan Durroj qismati misolida aks ettirilgani. «Sher bilan Durroj» asari matnining o'quvchilar tomonidan o'qilishini ta'minlash.

Dostonning o'ninchi maqolotidan olingan hikoyatlarning ramziy ma'nosi. Aslida inson ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlari.

Bobur. Ruboiylar (2 soat).

Boburning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Bobur – ruboiynavis. Shoirning «Har kimki vafo qilsa...», «Kim yor anga ilm tolibi...», «Ko'pdin berikim...», «Tole yo'qi jonimg'a...» ruboiylariga xos xususiyatlar. Ruboiylarda muallif hayoti, shaxsiyati, kechinmalari, orzulari, armonlari va ularning betakror tarzda tasvir etilgani. Ruboiylarda shoirga xos samimiyat va rostgo'ylikning aks etishi.

Shoirning «Ko'rdum», «Kishi» radifli ruboiylarida hayot haqiqatining aks etishi. «Ko'ngli tilagan murodig'a...», «Tole yo'qi...» va boshqa ruboiylarida Bobur tarjimai holiga doir unsurlarning yaqqol namoyon bo'lishi.

Muqimiy. «Sayohatnoma» asari (3 soat).

Muqimiyning hayot va ijod yo'li haqida ma'lumot. Muqimiy «Sayohatnoma» janrining asoschisi sifatida. «Sayohatnoma»ning o'z davridagi shuhrati va milliy adabiyot rivojida o'rni. «Sayohatnoma»da Farg'ona vodiysi aholisiga xos hayot va ruhiyat manzaralarining berilishi. Odamlarga xos illatlarning hajviy yo'sinda ifoda etilganligi. Asarning hajviy yo'nalishi. Obrazlar tasviridagi jonlilik. «Sayohatnoma» tilining jozibas.

«Sayohatnoma»ning «Qo'qondan Isfarga» qismida shoirning dunyo mohiyati haqidagi kuzatishlarining berilishi. Unda Rafqon, Yakkatut, Isfara singari manzillarda olingan taassurotlarning go'zal ifodalanganligi.

Sa'diy Sheroziy. «Guliston» asari (3 soat).

Sa'diy Sheroziy haqida ma'lumot.

«Guliston» asarining badiiy-ma'rifiy xususiyatlari. «Guliston» — o'zbek didaktik adabiyotining yetuk namunasi sifatida.

Sa'diy hikoyatlarida ta'lim-tarbiya masalasining hal qiluvchi masala sifatida qo'yilishi. Ularda to'g'ri so'z, qanoatli, mehnatkash, halol kishilar taqdirining aks ettirilishi. Dostondagi she'riy lavhalar va hikoyatlarning hayotiy-didaktik asosi. Dostonning o'zbek adabiyoti rivojidadagi ahamiyati.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. **Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror» dostonidan “Tuzlug‘ ta’rifida” hikoyati.**
2. **Boburning «Har kimki vafo qilsa...», «Kim yor anga ilm tolibi...» ruboiylari.**
3. **Muqimiyning «Sayohatnoma» asari (4 bandi)**
4. **Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asaridan parcha**

VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Abdulla Avloniy. «Vatanni suymak» («Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan) lavhasi, «**Vatan**» she'ri (2 soat).

A. Avloniy hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

«Turkiy Guliston»dagi she'riy va nasriy lavhalarda Avloniyning go'zal odob-axloqqa, yaxshilikka mayl, yomonlikdan xazar, el-yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ularining ifodalanganligi. «Vatanni suymak» asarida inson tug'ilib o'sgan zaminning qadr-qimmatini sodda bir uslubda tushuntirib berganligi. Bu g'oyaning Vatan haqidagi nasriy lavha pafosi bilan uyg'unligi. Asarning o'quvchilar yoshiga mos o'rinlarini to'liq o'qilishiga erishish.

Oybek. She'rlar (2 soat). Oybek haqida ma'lumot.

Shoir she'riyatida lirik qahramon ruhiy olamining tabiat manzaralari orqali tasvirlanishi. “Bir o'lkaki”, “Tog‘ sayri” Oybek lirikasining go'zal namunasi sifatida. Oybek she'riyatida fikr va tuyg'u birligi. Shoir lirikasining badiiy latofati. Shoirning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati.

Abdulla Oripov. «O'zbekiston» she'ri (2 soat).

A. Ori pov hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«O'zbekiston» qasidasida ona yurt o'tmishining g'oyat ta'sirli va millat tarixi bilan uyg'un holda tasvirlanganligi. Asarda buyuk ajdodlarni ulug'lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo'lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. Qasidaning badiiy xususiyatlari.

Erkin Vohidov. «Nido» dostoni (3 soat).

«Nido» dostonida insoniyat boshiga tushgan eng ulug' falokat — Ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg'ak o'smir taqdirida qoldirgan izining aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining g'oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Dostonda ifodalangan urush va u keltirib chiqargan fojialarga nisbatan nafratning uyg'otilishi. Asarda otasidan ajralgan bola ichki kechinmalari, hissiyotlarining samimiy va ta'sirchan ifodalanganligi.

Doston nomining ramziyligi.

Dostonning badiiy xususiyatlari. Unda qo'llangan nido (murojaat), o'xshatish, istiora, jonlantirish, so'zlar takrori singari tasvir vositalarining o'rni va ahamiyati.

Asarning til xususiyatlari.

She'riy ritm.

Nodar Dumbadze. «Hellados» hikoyasi (3 soat).

Gruzin adibi N.Dumbadzening hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Adibning qator roman, qissa va hikoyalarning o'zbek tiliga tarjima etilganligi. «Hellados» hikoyasida bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasviri. Asardagi vatanparvarlik tuyg'usining o'ziga xos tarzda ifoda etilishi. Yanguli va Jamol obrazlari. Ularning o'xshash va farqli jihatlari tasviri. Bu obrazlarning xarakter darajasiga ko'tarilganligi. Yanguli va Jamol obrazlarida ifodalangan bolalarga xos qiziqqonlik, ular ruhiyati va tabiatidagi jangarilik, olijanoblik hamda vatansevarlik tuyg'ularining mavjudligi.

Hikoyaning badiiy xususiyatlari.

Asar qahramonlarining o'ziga xosligini ko'rsatishda dialoglarning o'rni.

Hikoya haqida.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. **Abdulla Avloniyning «Vatan» she'ri.**
2. **Oybekning «Bir o'lkaki» she'ri.**
3. **Abdulla Oripov. «O'zbekiston» she'ri.**

4. Erkin Vohidov. «Nido» dostonidan parcha.
5. N.Dumbadze. «Hellados» hikoyasi

Asarlarni o'rganish uchun - 74 soat.

Yozma ishlar uchun - 24 soat.

Takrorlash uchun - 4 soat.

6- sinf (68 soat)

Ma'naviyat xazinasi (1 soat).

Badiiy adabiyot va yoshlar ma'naviyati. Adabiy asarlarning insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'rni. Komil inson tarbiyasida kitobning ahamiyati. Axloq-odob bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi mushtaraklik. Adabiyotning odob so'zidan olinganligi. Xalq va mamlakatning ma'naviy-madaniy ravnaqida badiiy adabiyotga muhabbatning muhim ahamiyatga ega ekanligi. Xalqning o'zini tanishida adabiyotning o'rni va roli.

BOLA – UCHQUR XAYOL EGASI

G'afur G'ulom. «Shum bola» qissasi (3 soat).

«Shum bola» qissasida topqir, hozirjavob bola obrazining hajviy talqin etilishi. Hayotiy hodisalarga kulgi nazari bilan qarash, qissada yozuvchining tarjimai holiga doir unsurlarning ifodalanishi va bu holning yozuvchi ijodiy uslubiga xos xususiyat ekanligi. Asar tilidagi xalqchillik, jamiyatning turli tabaqalariga xos jihatlarning mohirona tasvirlanganligi.

Nazariy ma'lumot: qissa haqida tushuncha.

Turob To'la. «Do'nan» hikoyasi («Yetti zog'ora» qissasidan) (2 soat).

Turob To'laning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Adibning «Yetti zog'ora» qissasida bolalik xotiralari bilan bog'liq voqealarning ifodalanganligi. «Do'nan» hikoyasida hikoyachi bola obrazi. Uning Do'nan laqabli otga bo'lgan muhabbati va bu muhabbat tasviri orqali bola ruhiy olamiga xos bokiralik, samimiylik, sadoqat tuyg'ularining tasvir etilganligi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati. Qissaning to'liq o'qilishiga erishish.

X.To'xtaboyev. «Sariq devni minib» qissasi (3 soat).

X.To'xtaboyevning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Roman qahramoni – 6-sinf o'quvchisi Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg'unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo'llarga solib yuborganligi va bu holning ta'sirchan ifodalanishi.

Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo'nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojidadagi o'rni. Qalpoqcha yordamida «ulg'aygan» va turli ixtisoslarni «egallagan» Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlar hamda ular o'rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o'ziga xosligi. Qissaning to'liq o'qilishiga erishish.

Janni Rodari. Hurishni eplolmagan kuchukcha (3 soat).

O'tgan asrning eng mashhur adabiy ertakchisi Janni Rodari hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Uning «Rim ertaklari» asari va «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumi to'g'risida. Bir ertakning uch turli tugallanishi jahan ertakchiligi tarixidagi yangilik ekanligi va buning ma'rifiy-didaktik ahamiyati. «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagining turli tugallanishlarida kuchukchanning turlicha holati tasviri va buning sabablari.

Ertakning uchinchi tugallanishidagi tabiiylik va kuchukning sevinib ketish sabablari. Ertakning badiiy jihatlar va undan kelib chiqadigan ijtimoiy ma'no. Ertakning to'rtinchi va hokazo tugallanishini o'quvchilarga vazifa qilib berish mumkinligi va uni muhokama qilish.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1. G'afur G'ulom. «Shum bola» qissasi.**
- 2. Turob To'la. «Do'nan» hikoyasi.**
- 3. X.To'xtaboyev. «Sariq devni minib» qissasi.**
- 4. Janni Rodari. «Hurishni eplolmagan kuchukcha».**

KECHAGI KUN SABOQLARI

Muqimiy. «Tanobchilar asari (2 soat).

Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Muqimiyning «Tanobchilar» hajviyasida foydaxo'r, imonsiz va yolg'onchi kimsalarning tasvir etilishi. Hajviya qahramonlari Sulton Ali va Hakimjonning da'volari bilan mohiyatlari o'rtasidagi keskin ziddiyat tufayli tug'iladigan hajviy kulgining kuchi. Muqimiy asarlarining xalqchilligi, soddaligi va ta'sirchanligi.

Hajviya haqida tushuncha.

Abdulla Qahhor. «**Bemor**» hikoyasi (2 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Hikoyachilikda A.Qahhor badiiy mahoratining namoyon bo'lishi. «Bemor» asarining adib hikoyachiligida tutgan o'rni. Uning badiiy xususiyatlari. Hikoya ohangi. Asardagi Sotiboldi, bemor va qizcha obrazlari.

«Bemor» ilosizlik, qashshoqlik insonni qanchalar xo'rlashi mumkinligini badiiy ifodalagan asar sifatida. Bemor obrazida mehribon onaga xos xususiyatlarning ta'sirli aks ettirilganligi.

Odil Yoqubov. «**Muzqaymoq**» hikoyasi (3 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Muzqaymoq» hikoyasida yolg'on e'tiqod tufayli bola ruhiyatida ro'y bergan ma'naviy evrilishlarning haqqoniy aks ettirilganligi. Noto'g'ri e'tiqod, ko'r-ko'rona siyosiy aqidaparastlik do'stdan dushman, halol odamdan tuhmatchi yasashi mumkinligining hikoyada ishonarli tasvir etilganligi. Hikoyachi xotirasida chuqur iz qoldirgan bolalik davri fojialarining ko'rsatilishi. Bolaning nog'oralar marshini eshitgandagi holatining mahorat bilan ko'rsatilganligi. Hikoyada odam tuyg'ularini biryoqlama tushunish va tushuntirish mumkin emasligining aks etganligi.

Erkin Vohidov. «**O'zbekim**» (2 soat).

E.Vohidov hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

«Yozbegim» qasidasi ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixining o'ziga xos poetik ifodasi va badiiy talqini sifatida. She'rda o'zbek millatiga mansublikdan iftixor tuyg'ularining samimiy tasvirlanganligi. Qasidaning milliy o'zlikni anglashdagi, xalq milliy tafakkurining shakllanishidagi ahamiyati.

O'tkir Hoshimov. «**Urushning so'nggi qurboni**» hikoyasi (2 soat).

Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo'qchilik bolani onadan, og'ani inidan sovutganligining asarda ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Xadicha hamda Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi.

Hikoya haqida tushuncha.

Said Ahmad. «**Qoplon**», «**Sobiq**» hikoyalari (2 soat).

Adibning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Qoplon» hikoyasida laganbardor va manfaatparast kimsa tabiatiga xos illatlarning tasvirlanishi. Qurbonboy va qoplon obrazlarini taqqoslab baholash zarurligi. «Sobiq» hikoyasida ishlab chiqarishni mafkuraga moslashtirgan sho'ro tuzumi tartibotining muayyan shaxs taqdirida namoyon bo'lishi. Hikoyalarning til xususiyatlari, muallif nuqtai nazarining yashirin ifodalanishi.

Nazariy ma'lumot. Hajviya.

Musa Jalil. «Ishonma» she'ri (1 soat).

Musa Jalil hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Shoirning Ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushishi va Maobit qamoqxonasida qatl etilishi. «Maobit daftari» she'rlar turkumining yaratilish tarixi. «Ishonma» she'rining g'oyaviy mazmuni. Asir shoir qalbidagi shubha va gumonlarning she'rda o'z ifodasini topishi. O'z Vatanini sevgan inson iroda kuchining she'rda badiiy mujassamlanganligi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Muqimiy. «Tanobchilar» asari.
2. Abdulla Qahhor. «Bemor» hikoyasi.
3. Odil Yoqubov. «Muzqaymoq» hikoyasi.
4. Erkin Vohidov. «O'zbekim» qasidasi.
5. O'tkir Hoshimov. «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasi.
6. Said Ahmad. «Qoplon», «Sobiq» hikoyalari.
7. Musa Jalil. «Ishonma» she'ri.

SO'ZDA HIKMAT BOR

Xalq qo'shiqlari (2 soat).

Qo'shiq xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida. Ularning turlari. Lirik qo'shiqlarda inson his-tuyg'ularining ifodalanishi. Mavsum qo'shiqlarida xalqimiz e'tiqodiy qarashlarining, shuningdek, bolalarning yil fasllariga bo'lgan munosabatlarining kuylanishi («Boychechak» va boshqalar).

Nazariy ma'lumot. Xalq qo'shiqlari.

Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar (4 soat).

Navoiy hikmatli so'zlarining mazmun-mohiyati, umrboqiyliigi.

«Mahbub ul-qulub» — hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida. «Saxovat va himmat bobida», «Hilm zikrida», «Safar manofii zikrida» qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning o'ziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati. Hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalangani. Hikmatlarning qurilishi. Ulardagi badiiy tasvir vositalari.

Nazariy ma'lumot. Hikmatli so'z.

Gulxaniy. “Zarbulmasal” asari (3 soat).

“Zarbulmasal” asarining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.

«Maymun bilan najjor» hikoyati, undagi majoziy obrazlar talqini. Maymun va najjor timsollarining o'ziga xos tarzda tasvirlanganligi.

Nazariy ma'lumot. Zarbulmasal.

Avaz O'tar. «Til», «Fidoi xalqim», «Sipohi pora istar», «Biling, ushbu zamon g'amnokidurman» she'rlari (2 soat).

Avaz O'tar hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Avaz O'tar adabiyotdagi yangi mavzu va g'oyalar kuychisi sifatida.

«Til», «Fidoi xalqim», «Sipohi pora istar», «Biling, ushbu zamon g'amnokidurman» she'rlarining mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Abay. Nasihatlar (2 soat).

Abay hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Abayning odob-axloqqa doir qarashlari. Ijodkorning ta'lim-tarbiyaga, ilm olishga, to'g'rilikka oid nasihatlarining umuminsoniy mazmun-mohiyati. Abay nasihatlarida sharqona odob va axloq masalalarining ifodalanishi. Mazkur nasihatlarning tarbiyaviy ahamiyati.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Xalq qo'shiqlari.
2. Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar.
3. Gulxaniy. “Zarbulmasal” asari.
4. Avaz O'tar she'rlari.
5. Abay. Nasihatlar.

RANGIN TUYG'ULAR

Zulfiya. «**Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..**», «**Bog'lar qiYG'os gulda**», «**Nevara**», «**Bahor keldi, seni so'roqlab**» she'rlari (2 soat).

Shoira hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Zulfiya she'rlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuyg'usiga to'lgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoira she'rlarida hayotga, yashashga bo'lgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. She'rlar badiiy jozibada.

Pirimqul Qodirov. «**Nizomning tantiligi**» («Avlodlar dovoni» romanidan) (3 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Avlodlar dovoni» romanidan olingan «Nizomning tantiligi» hikoyasida chin insoniy fazilatlarining favqulodda holatlarda namoyon bo'lishi va bu holning mahorat bilan ifodalanishi. Humoyun, Sherxon, uning o'g'illari obrazlari tabiatidagi o'ziga xosliklarning nozik tasvirlanganligi.

Asarda murakkab davr shiddati va talotumlarining aks etishi. Ezgu insoniy xislatlarning milliy, irqiy va diniy tafovutlardan qat'iy nazar har kimning o'ziga bog'liqligi masalasi va bu masalaning asarda ifodalanishi. Hikoyaning badiiy xususiyatlari. Asarni to'liq o'qishga erishish.

Tog'ay Murod. «**Yulduzlar mangu yonadi**» qissasi (3 soat).

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasida o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va ma'naviy qadriyatlarining o'ta ta'sirchan, o'ziga xos yo'sinda aks ettirilganligi. Qissa qahramoni Bo'ri polvonga xos mardlik, tantilik, halollik xislatlarining turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi.

Asarda o'zbek qishloqlari hayotiga doir holatlarning g'oyat jonli aks etganligi. Ajdodlarga mansub ezgu odatlarning Shukur, Tilovberdi, Temir singari obrazlar tasvirida talqin etilganligi. Qissaning ta'sirchanligi va o'ziga xosligini ta'minlagan omillar. Asarning til xususiyatlari. Qissaning to'liq o'qilishiga erishish.

Ibroyim Yusupov. «**Qadrdon so'qmoqlar**» she'ri (1 soat).

Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. Shoirning hozirgi qoraqalpoq she'riyatida tutgan o'rni.

«Qadrdon so'qmoqlar» she'rida kindik qoni to'kilgan qishloqqa bo'lgan mehr-muhabbatning ifodalanishi. Vatanga bo'lgan muhabbatning qadrdon xonadan, qadrdon so'qmoqlarga bo'lgan muhabbatdan boshlanishi. She'rda lirik tuyg'uning mohirona ifodalanganligi.

Hamid Olimjon. “O‘zbekiston” she’ri (2 soat)

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. H.Olimjon o‘zbek adabiyotining iste’dodli namoyandalaridan biri ekanligi. Shoirning “O‘zbekiston” she’rida el-yurt go‘zalligining betakror ta’rifda badiiy tasvirlanganligi. She’rning badiiy xususiyatlari, tasvir vositalari.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. Zulfiya she’rlari.
2. Pirimqul Qodirov. «Nizomning tantiligi» («Avlodlar dovoni» romanidan).
3. Tog‘ay Murod. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi.
4. Ibroyim Yusupov. «Qadrton so‘qmoqlar» she’ri.
5. H.Olimjon. “O‘zbekiston” she’ri.

Asarlarni o‘rganish uchun — 50 soat.

Yozma ishlar uchun — 14 soat.

Takrorlash uchun — 4 soat.

7 - sinf (68 soat)

Badiiy so‘z qudrati (1 soat).

Badiiy adabiyotning so‘z san’ati ekanligi. Hayot hodisalarini badiiy obrazlar vositasida tasvirlashning o‘ziga xosligi. Badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan va san’atning boshqa turlaridan farqi. Adabiy tur va janrlar.

Ko‘zim qarog‘idasan, Vatan!

Hamza. «Jonlarni jononi vatan», «Dardiga darmon istamas» she’rlari (2 soat).

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodida Vatan mavzuining asosiy o‘rinni egallashi sabablari.

«Vatan», «Dardiga darmon istamas» she’rlarida chorizm zulmi ostida ezilgan, jaholat botqog‘iga botgan Turkiston xalqlari qismatiga qaytarish. Shoirning xalq og‘zaki ijodiga xos timsollar va xalq iboralaridan foydalanishi.

Shuhrat. «Mardlik afsonasi» (2 soat).

Shuhrat hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumot. «Mardlik afsonasi»

balladasida o'zbek xalqining eng qadimgi zamonlarda mustaqillik uchun olib borgan kurashining tasvir etilishi. To'maris obrazi. To'maris boshchiligidagi xalq jasoratining ballada janriga xos poetik vositalar orqali tasvirlanishi. «To'maris» hikoyasi bilan «Mardlik afsonasi» balladasi o'rtasidagi yaqinlik va farqli tomonlar. Balladaning tarbiyaviy ahamiyati.

Mirmuhsin. “Me'mor” romanidan parcha. (3 soat)

Mirmuhsin hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Asarda XV asr voqealarining tasvirlanganligi. Asar qahramonining sidqidildan xizmat qilganligi, muhtasham binolar qurib, hukmdorlar shuhratiga shuhrat qo'shganligi, har qancha qiyinchilikka uchrasa-da, o'z qarashlariga, e'tiqodiga sodiq qolganligi. Me'mor taqdiri orqali iste'dodli kishilar timsolining berilishi.

Asardagi Najmiddin Buxoriy timsoli.

Nazariy ma'lumot. Roman.

Rasul Hamzatov. «Ona tilim», “Kenja nevaram Shahrizodga” she'rlari (1 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Ona tilim» she'rida ona tilining millatni, shu millatga mansub har bir shaxsning o'zligini saqlab qoluvchi vosita ekanligining ko'rsatilishi. Tilga muhabbat orqali elga muhabbat paydo bo'lishining ifodalanishi. «Kenja nevaram Shahrizodga» she'rida avlodlar o'rtasidagi vorisilik, davomiylik va ma'naviy javobgarlik tuyg'ularining aks etishi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Hamza she'rlari.
2. Shuhrat. «Mardlik afsonasi».
4. Mirmuhsin. “Me'mor” romanidan parcha.
5. Rasul Hamzatov. «Ona tilim» she'ri.

O'YLARIMNING CHEKSIZ OSMONI

Asqad Muxtor. «Yulduzim», «Tug'ilish», «Yo'l», «O'zinniki emas bu umr...», “Bir tup o'rik” she'rlari (2 soat).

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

A.Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. «Yulduzim», «Tug'ilish», «Yo'l», «O'zimniki bu umr..» she'rlarida shoir ruhiy olamining ifodalanishi. Bu she'rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi masuliyatni his etib yashash va o'zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g'oyaning badiiy mujassamlanishi. A.Muxtor she'rlaridagi fikr va tuyg'u uyg'unligidagi o'ziga xoslik. Bu she'rlarning badiiy xususiyatlari.

O'lmas Umarbekov. «Qiyomat qarz» hikoyasi. (2 soat)

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma'lumot. «Qiyomat qarz» hikoyasida aks ettirilgan inson kechinmalari, iztiroblari tasviri, hikoyadagi insoniy qadriyatlar talqini. Asarda millatga xos samimiylik, soddalik, bag'ri kenglik va irodalilikning ifodalanishi. Hikoya qahramonining qarzdorlikni tuyishi, kechinmalari va iztiroblarining haqqoniy tasvirlanganligi. Sarsonboy ota timsoli. Hikoyaning ahamiyati va ifoda tarzi. Hikoya orqali millatga xos halollik, o'zganing haqidan qo'rqish kabi insoniy sifatning ulug'lanishi.

Hikoya haqida.

Saida Zunnunova. «Mening Vatanim!», «Yer uzra qo'ndi oqshom», «Qizimga», «Buvilar duoga qo'llarin ochib» she'rlari (2 soat).

Shoira hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

S.Zunnunova she'rlaridagi tuyg'ular teranligi va samimiyligi. «Mening Vatanim!» she'rida yurtga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligi. «Yer uzra qo'ndi oqshom», «Qizimga» she'rlarida ona mehrining badiiy yo'sinda ifodalanganligi.

S.Zunnunova she'rlarining badiiy xususiyatlari.

Ch. Aytmatov. «Oq kema» qissasi (4 soat).

Adib haqida qisqacha ma'lumot. «Oq kema» qissasida ta'sirchan, beg'ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg'ularning bobosi Mo'min chol tabiatida ham namoyon bo'lishi. Go'zal insoniy tuyg'ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog'lik og'ir ekanligi bola, chol va O'rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta'siri.

Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o'rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko'rsatilishi. Qabohatlar manbayi qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan o'jiz gunohsiz bolaning bu bulg'anch dunyoni

tashlab ketishi insonning ma'naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi.
Ona bug'u obrazi va uning ramziy xususiyati.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. **Asqad Muxtor she'rlari.**
2. **O'Imas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi.**
3. **Saida Zunnunova she'rlari.**
4. **Ch. Aytmatov. «Oq kema» qissasi.**

O'TMISHDAN SADOLAR

«Ravshan» dostoni (4 soat).

Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi. Bu xil dostonlarda ishqiy mojarolarning asosiy mavzu ekanligi. «Go'ro'g'li» turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda «Ravshan» asarining tutgan o'rni. Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha yetib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go'ro'g'li, Yunus pari, Avaxxon, Ravshan, Zulxumor, aka-ukalar obrazlarining tahlili.

Alisher Navoiy. «Mehr va Suhayl» (4 soat).

«Hayrat ul-abror» shoirning olam va odam haqidagi fikrlarini badiiy aks ettirgan asar sifatida.

«Sab'ai sayyor» dostonida beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning Mehr va Suhayl haqidagi hikoyasi. Hikoyada sadoqat, mardlik-tantilik kabi insoniy tuyg'ular ifodasi. Obrazlar tahlili.

Turdi. She'rlar (2 soat).

Shoir haqida ma'lumot. «Tor ko'ngullik beklar», «Turdiman» g'azallari tahlili. «Muxammas».

«Yod mandin kim berur yaxshi zamonlar ko'rdiman» muxammasi hasbi hol namunasi sifatida.

Uvaysiy. «Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyman», «Sog'indim» g'azallari, «Anor», «Yong'oq», «Kun va tun» chistonlari (2 soat).

Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. «Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyman» g'azalida ijtimoiy hayot hodisalaridan

norozilik, ularga nisbatan ko'ngildagi itztirob va kechinmalarning ta'sirli aks ettirilishi. "Sog'indim" g'azalida farzandi yo'liga ko'z tikkan ona tuyg'ularining aks etishi.

Shoiraning «Anor», «Yong'oq», «Kun va tun» chistonlari hamda ularning o'ziga xos badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: radif, chiston haqida tushuncha.

Zavqiy. "Ajab ermas" g'azali, "Ahli rasta" hajviyasi. (1 soat)

Shoir haqida ma'lumot.

"Ajab ermas" g'azalida kelajakka ishonch, yaxshi kunlarga umid tuyg'usining aks etishi. "Ahli rasta" hajviyasida davr odamlaridagi illatli sifatlarning aks etishi. Asarlarning jozibasi va ta'sirchanligi.

Maxtumquli. She'rlar (1 soat).

Maxtumquli hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Maxtumqulining faqat turkmanlar uchun emas, balki barcha turkiy xalqlar uchun ham aziz va mo'tabar ekanligi. Shoir she'rlarida ma'naviy-axloqiy mavzularning ustuvorligi.

«Adolat yaxshi» va shu turkumdagi she'rlarning tahlili. She'rlarda umuminsoniy g'oyaning ilgari surilgani. Maxtumquli she'rlariga xos badiiy xususiyatlar. Ularning ma'rifiy - tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyati.

"Namasan?" she'rida so'fiyona qarashlarning ifodalanishi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. «Ravshan» dostoni.
2. Alisher Navoiyning «Mehr va Suhayl» asari.
3. Turdi she'rlari.
4. Uvaysiyning g'azal va chistonlari.
5. Zavqiyning g'azallari.
6. Maxtumquli she'rlari.

YANGI DAVR NAFASI

Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romani (4 soat).

Adib haqida ma'lumot. Romanning «Qo'rqinch bir jasorat» bobida mardlik va nomardlik, tantilik va pastkashlik o'rtasidagi to'qnashuvning keskin dramatik vaziyatlarda ko'rsatilishi. Anvar tabiatiga xos mardlik, halollik, tantilikning Xudoyorxon va Abdurahmon xarakteridagi fosiqlik, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi xislatlarga qarshi qo'yilishi.

Yozuvchining obrazlar tilini individuallashtirish mahorati. Asar yechimining mantiqiy asoslanganligi. Ra'no, Qobilboy, Safar bo'zchi singari obrazlarning o'ziga xos jihatlari tasviri. Asarning to'liq o'qilishiga erishish.

Cho'lpon. «Binafsha», «Go'zal», «Ko'ngil», «Xalq», «Buzilgan o'lkaga» she'rlari (2 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Go'zal» she'rida go'zallik qoshida lol qolgan inson ruhiyati po'rtanalarining, oy, quyosh, yulduz, shamol obrazlarida oshiq taqdirining ta'sirchan ko'rsatilishi. «Binafsha» she'rida binafsha obrazida inson qismatining aks ettirilishi. Mazkur she'rlarda ifodalash mushkul bo'lgan nozik hissiyotlarning aniq tasvir etilganligi. Shoir she'rlarida lirik qahramon holatiga mos tasvir usuli va vositalarining qo'llanishi. Cho'lponning so'z va poetik obrazni yaratish mahorati.

«Xalq» va «Ko'ngil» she'rlarida Cho'lpon shaxsiyati va dunyoqarashiga xos belgilarning namoyon bo'lishi.

Abdulla Qahhor. «O'g'ri», «Dahshat» hikoyalari (3 soat).

Adib haqida ma'lumot. «O'g'ri» hikoyasida jabrdiyda chol Qobil bobo va o'zgalar baxtsizligini tirikchiligi manbayiga aylantirgan amaldorlar obrazi. Adibning tasvirlash mahorati, so'z qo'llash san'ati, inson ruhiyatining yashirin jihatlarini ocha bilish iste'dodi.

«Dahshat» hikoyasida insonni yengish mumkin emasligining kurashchan ayol — Unsin obrazi misolida g'oyat ta'sirchan ko'rsatilganligi. Hikoyada har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi. Tasvirning hayotiy va ta'sirchanligi.

Mirtemir. «Men tug'ilgan tuproq», «Onaginam», «Toshbu», «Betobligimda», «Shudring», «Qishlog'im» she'rlari (2 soat).

Mirtemirning qalamkash do'stlaridan milliy shoir sifatida farqlanishi. Shoir ijodidagi xalqona ohanglar.

«Onaginam» she'rida uzilmagan farzandlik qarzi tufayli lirik qahramon iztiroblari, qalb tug'yonlarining aks ettirilishi. Tug'yonlar ko'lami va shoirning tasvirlash mahorati. «Toshbu» she'rida o'zbek ayollariga xos yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarining yorqin va ta'sirchan aks ettirilishi. «Men tug'ilgan tuproq» she'rida ona yurt obrazining yaratilishi. She'ning samimiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydigan badiiy omillar. Mirtemirning tasvirlash san'ati. Uning she'riyatiga xos soddalik, samimiylilik va rostgo'ylik.

Nazariy ma'lumot. Tabiat lirikasi haqida.

Xayriddin Saloh. "Yulduzlar afsonasi" asari (2 soat).

Xayriddin Salohning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. "Yulduzlar afsonasi" asarining o'zbek xalq afsonalari ruhida yaratilganligi. Asarda tilga olingan samoviy jismlarning inson hayoti va xayolot olami bilan bog'liqligi. Hulkar va yetti qaroqchi obrazlari. Yerdagi odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning, kurashlarning va kelishmovchiliklarning asardagi ramziy tasviri.

Asarda tasvirlangan voqealarning aniq va ta'sirchan ifodalanganligi.

Asarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot.

E. S. Tompson. «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi (3 soat).

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Uning qalamiga mansub «Yovvoyi yo'rg'a» asarining ko'plab tillarga tarjima etilgan va katta shuhrat qozonganligi.

Asarda erkinlik, hurlik tuyg'usining ulug'lanishi. Ozodlikning o'limdan kuchli ekanligi tasviri.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romani.
2. Cho'lpon she'rlari.
3. Abdulla Qahhor. «O'g'ri» hikoyasi.
4. Mirtemir she'rlari.
5. Xayriddin Saloh. "Yulduzlar afsonasi" asari.
6. E. S. Tompson. «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi.

Asarlarni o'rganish uchun – 50 soat.

Yozma ishlar uchun – 14 soat.

Takrorlash uchun – 4 soat.

8 - sinf (68 soat)

Kirish (1 soat).

Davr, ijodkor va adabiyot. Adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarni aks ettirish sabablari. Hozirgi davrga xos xususiyatlarning badiiy asarlarda tasvirlanishi. Badiiy adabiyotda zamondosh obrazining

ifodalanishi. Adabiyotning ijtimoiy muammolarga hamohangligi va umrboqiyliigi o'rtasidagi aloqa. Badiiy adabiyot adabiy til shakllanishidagi asosiy vosita sifatida. Davrga daxldor dolzarb ijtimoiy muammolarning badiiy asarlarda aks ettirilishi va buning o'ziga xos jihatlari.

XALQ OG'ZAKI IJODI

«Kuntug'mish» dostoni (4 soat).

Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o'rni. Xalq epik dostonlarining turlari. Turkiy dostonlarning dunyo dostonchiligi rivojida tutgan yuksak mavqei.

«Kuntug'mish» ishqi-y-sarguzasht dostonlarning go'zal namunasi sifatida. Dostonda Ergash Jumanbulbul mahoratining namoyon bo'lishi. Asar syujetining sarguzashtlarga boyligi. Qahramonlar taqdirini belgilovchi hodisalarning maishiy turmushga yaqinligi. Kuntug'mish obrazi. Unga xos jo'mardlik, tantilik, jasurlik va ayni vaqtda, soddalik sifatleri. Kuntug'mishning jangchi, oshiq, er, ota sifatidagi xususiyatlari. Kuntug'mish tabiatidagi samimiyat va ishonuvchanlik xislatlari. Xolbeking favqulodda go'zal va mehribonligi. Xolbeka – o'zbek qizlariga xos o'ktamlik, erkalik, shaddodlik va mayinlik sifatlariga ega shaxs. Xolbeka – farzandlari va erining hayoti uchun o'zini baxshida qiluvchi ayol. Dostonda ayollarga xos sershubhalilik, injiqlik, sinchkovlik sifatlarining ishonarli tasvirlanganligi. Xolbeking onalik xususiyatlari tasviri. Dostonda Gurkiboy va Mohiboy obrazlarining mahorat bilan tasvirlanganligi. Gurkiboyga xos bosiqlik, mehribonlik, mulohazakorlik hamda ukasi Mohiboyning quv, tajang, qaytmas yigitcha ekanligi. Bolalar tabiatiga xos xislatlarning ular taqdiriga ta'siri. Dostondagi Buvraxon, Azbarxo'ja, Qosim, Xolmo'min, cho'pon obrazlarining o'ziga xos shaxslar sifatida aks ettirilganligi.

Dostonning badiiy xususiyatlari. Asar syujet chiziqklarida mantiqiy izchillikning kuchliligi.

Nazariy ma'lumot. Doston.

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari
lozim bo'lgan asar:**

«Kuntug'mish» dostoni.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN

Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig» asari (3 soat).

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. «Qutadg'u

bilig» — turkiy yozma adabiyotning ilk namunasi. Asar didaktik doston namunasi sifatida. Dostonning asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Bek qanday bo'lmog'i kerakligi haqidagi bob tahlili. Bekka qo'yiladigan axloqiy-ma'naviy talablarning badiiy ifodasi. «Qutadg'u bilig»ning til xususiyatlari. Bunda Yusuf Xos Hojibning mahorati.

Nazariy ma'lumot. Didaktik adabiyot.

Lutfiy. «Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma», «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul», «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu» g'azallari va tuyuqlari (3 soat).

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Lutfiy merosi va xalq og'zaki ijodi. «Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma», «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul», «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu» g'azallarining tahlili. Ularning vazni, tasvir vositalari va boshqa badiiy xususiyatlari.

Lutfiy — tuyuq ustasi. «Ko'ngluma har yonki boqsam dog'i bor», «Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen», «Charxi kajraftor elidin yozamen» tuyuqlarida so'z o'yinlari. So'z o'yinlarining yuzaga kelishida tajnisning o'rni. Tuyuqlarning vazn, qofiya va boshqa badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. Tuyuq, irsoli masal, qofiya, radif.

Alisher Navoiy. G'azal va qit'alar. «Qaro ko'zum kelu mardumlig' emdi fan qilg'il», «Qoshi yosinmu deyin...», «Kecha kelgumdur debon...», «Yordin ayu ko'ngul...» g'azallari, «Kamol et kasbkim, olam uyidin», qit'alari (6 soat).

Navoiy g'azal mulkinging sultoni ekanligi. «Xazoyin ul — ma'oniylig' haqida qisqacha ma'lumot». Navoiy she'riyatining mavzu qamrovi va badiiyati. «Kecha kelgumdur...», «Qaro ko'zum...», «Ko'rgali husnungnu...» g'azallarida majoziy va ilohiy ishq talqini. «Jonga chun dermen...» singari g'azallari tahlili.

Navoiy g'azallaridagi tasvirlarning favquloddaligi. Buning shoir mahorati bilan aloqadorligi. Navoiy va o'zbek g'azalchiligining keyingi taraqqiyoti.

«Kamol et kasbkim, olam uyidin», «Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho» qit'alari. Ularning g'oyaviy-badiiy mazmuni va mohiyati, qit'alarning tuzilishi, tarkibi, tasvir xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. G'azal haqida.

Nodira. G'azallar (2 soat).

Nodiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Qo'qon adabiy muhitida Nodiraning o'rni va ahamiyati.

Nodira g'azallarida hijron va ayriqliq ohanglari. Ularning badiiy yetukligi, g'azallarda ayol tuyg'ularining ifodalanishi. "Doda keldim...", "Vasl uyin obod qildim...", "Kel dahrni imtihon etib ket..." g'azallarining tahlili.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. **Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig» asari.**
2. **Lutfiy g'azallari va tuyuqlari.**
3. **Alisher Navoiy. G'azal va qit'alar.**
4. **Nodira g'azallari.**

XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI

Abdurauf Fitrat. «Mirrix yulduziga», «O'gut», «Go'zalim, bevafo gulistonim» she'rlari (2 soat).

Fitrat hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

Fitratning iste'dodli olim, taniqli dramaturg bo'lish bilan birga, xassos shoir ham ekanligi.

«Mirrix yulduziga» istiqloq orzusi bilan yaratilgan asar sifatida. She'rning Oktyabr to'ntarishidan keyingi yangi hokimiyat, uning boshida turgan «bir o'lkani yondirib, o'z qozonin qaynatg'uvchi hoqonlar», «el-yurtini sotgan» xiyonatkorlar ustidan o'qilgan badiiy hukm ekanligi. Asardagi shoir dardi va ijodiy jasorati. Mirrix yulduziga murojaat etish – o'ziga xos poetik usul sifatida. «O'gut» - bugungi kun yoshlari uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan she'r ekanligi. «Go'zalim, bevafo gulistonim» — shoir ishqiy lirikasining mumtoz namunasi sifatida. She'rda sevgida vafodorlik va fidoyilikning madh etilishi, rad etilgan muhabbat iztiroblarining obrazli tasviri.

Hamza Hakimzoda Niyoziy. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» (3 soat).

Hamzaning milliy o'zbek dramaturgiyasi shakllanishiga va taraqqiy etishiga qo'shgan hissasi. XX asr boshida yaratilgan sahna asarlarida ma'rifatparvarlik, milliy ma'naviyat va axloq, dunyoviy tafakkur targ'ibining markaziy o'ringa chiqishi. "Zaharli hayot yoxud ishq

qurbonlari” dramasi o‘z davri dramatik asarlari bilan g‘oyaviy va badiiy aloqadorligi. Dramaning yaratilishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy-ma’naviy muhit. Asarning markaziy qahramonlari — Mahmudxon va Maryamxonlarning mazkur muhitga munosabati. Asarda otalar va bolalar muammosi tahlili. Dramaning badiiy xususiyatlari.

Asarning bugungi kundagi ahamiyati.

G‘afur G‘ulom. «Sog‘inish», «Vaqt» she‘rlari (2 soat).

G‘afur G‘ulomning XX asr o‘zbek she‘riyatida tutgan o‘rni.

«Sog‘inish» she‘rida otaga xos sog‘inch tuyg‘usining tiniq va jozibali ifodalanishi. Lirik qahramon tabiatida milliy o‘ziga xoslikning bo‘rtib ko‘rinishi. She‘rda yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuyg‘ulari tasvirining xalq ruhi o‘lmasligi haqidagi falsafiy xulosaga o‘tib chiqishi. «Vaqt» she‘rida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga da‘vatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. Shoir she‘rlarida so‘z qo‘llash san‘ati.

M. Shayxzoda. «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasi (4 soat).

Shayxzodaning o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti tarixidagi o‘rni.

«Mirzo Ulug‘bek» asari o‘zbek adabiyotidagi tragediya janrining yetuk namunasi sifatida. Asarda temuriy zoda hukmdor Ulug‘bek hamda olim va ma‘rifatparvar Ulug‘bek o‘rtasidagi ziddiyatning aks ettirilishi. Ulug‘bekning allomalik fazilatlarini va insoniy xislatlarini yoritish dramaturgning bosh maqsadi ekanligi. Asarda shoh va olim Ulug‘bekning fojiasi haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati. Tragediyadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi.

Nazariy ma‘lumot. Fojia (tragediya).

Usmon Nosir. «Yurak», «Nil va Rim», «Monolog» she‘rlari (2 soat).

Usmon Nosirning fojiali taqdiri haqida ma‘lumot.

Shoirning adabiy merosi. «Yurak» she‘rining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. She‘rdagi tuyg‘u va fikr parvozi. She‘rning ohangdorligi. «Nil va Rim» she‘ri — erk madhiyasi ekanligi. She‘rda tarixga — ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan asriy kurash sahifalariga murojaat qilib, insoniy erk uchun kurashning abadiyligi va davomiyligi masalasining yuksak poetik ifoda etilgani. «Monolog» she‘rida sevgi mavzuining o‘ziga

xos talqini. Shoir uslubidagi ichki shiddatli ritm va keskinlik, o'xshatish va jonlantirishlarning originalligi. Shoirning betakror so'z qo'llash mahorati. Usmon Nosir lirikasining faqat o'zigagina xos bo'lgan qirralari.

Asqad Muxtor. «Chinor» romani (4 soat).

A.Muxtorning nasriy ijodi haqida ma'lumot.

«Chinor» romani adib ijodidagi yangi bosqich sifatida. Romanning yetakchi qahramonlari va kompozitsion o'ziga xosligi. Akbarali qismati haqidagi fasl «Chinor» romanining eng dramatik sahnalaridan biri ekanligi. Asarda insoniy o'jizlik, loqaydlik, qo'rqqoqlik, irodasizlik fojiga olib kelishi mumkinligining ishonarli tasvirlab berilgani. Lahzalik qo'rqqoqlik sababli, Bektemirning o'limiga sabab bo'lgan Akbaralini vijdon azobi tinimsiz ta'qib etishi va oxir-oqibat halokatga olib kelishi. Bu voqea tasviridagi samimiylik va ta'sirchanlik. Akbarali ruhiy olamining teran tasviri. Qissaning yuksak tarbiyaviy ahamiyati.

Nazariy ma'lumot. Roman haqida.

Said Ahmad. «Ufq» romanidan parcha (2 soat).

Yozuvchining «Ufq» trilogiyasi haqida ma'lumot.

Romanda Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqi hayotining haqqoniy tasvir etilishi. «Hijron kunlarida» kitobining bosh qahramoni Ikromjon - murakkab taqdirli shaxs. Beshafqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlari. Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o'ziga xosligi. Asardagi tabiiylik va ruhiy tahlil. Roman tilining jozibadorligi. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Ozod Sharafiddinov. «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasi (2 soat).

Adabiyotshunosning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida ma'lumot.

Adibning o'zbek madaniyati, fani va publitsistikasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risida. O.Sharafiddinovning ijodda va hayotda halollik, prinsipiallik, adolatlilik singari qadriyatlarini yuksak tutgani.

Adibning «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasida ilgari surilgan g'oyalar. Vatan tuyg'usi, Vatan oldidagi farzandlik burchini anglash masalalari O.Sharafiddinov talqinida. Bu borada muallifning o'zi va zamondoshlari oldiga qo'ygan talablari. Maqolaning bugungi yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

To'ra Sulaymon. «Iltijo», «Armon», «Tavallo», «Gul bir yon, chaman bir yon» she'rlari (2 soat).

Shoirning hayot va ijod yo'li haqida muxtasar ma'lumot. To'ra Sulaymon she'rlarining xalqchilligi. «Iltijo» she'rida hayotga, tiriklikka bo'lgan muhabbat tasviri. Bahor obrazi tasviridagi tuyg'ular rang-barangligi. «Armon» she'ri shoirning hayotiy pozitsiyasi, e'tiqodlari mujassam bo'lgan asar sifatida. «Tavallo» she'rida onalarga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarining tarannum etilishi. «Gul bir yon, chaman bir yon» she'rining ohangdorligi, unda lirik qahramon tuyg'ularining samimiy ifodalanishi.

Muhammad Yusuf. «Vatanim», «Mehr qolur», «Yurtim, ado bo'lmis armonlaring bor..», «Biz baxtli bo'lamiz» she'rlari (2 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

M.Yusuf she'rlarida insondagi yashirin tuyg'ularning samimiy tasvirlanishi. His-tuyg'ularning samimiyligi va haqqoniyligi M.Yusuf she'rlarining yetakchi fazilati sifatida. Shoir she'rlarida inson ko'nglidan kechgan, ifodalash mushkul bo'lgan sezgilarning o'ta tabiiy aks ettirilishi.

M.Yusuf she'rlarining jozibadorligi va ta'sirchanligini ta'minlab turgan samimiylik, musiqiylik va tasvir o'ynoqiligi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Abdurauf Fitrat she'rlari.
2. G'afur G'ulom. «Sog'inish», «Vaqt» she'rlari.
3. M. Shayxzoda. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi.
4. Usmon Nosir. «Yurak», «Nil va Rim», «Monolog» she'rlari.
5. Asqad Muxtor. «Chinor» romani.
6. Said Ahmad. «Ufq» romani.
7. Ozod Sharafiddinov. «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasi.
8. To'ra Sulaymon she'rlari.
9. Muhammad Yusuf she'rlari.

JAHON ADABIYOTI

Fuzuliy. G'azallar (2 soat).

Shoir haqida ma'lumot. G'azallarida ifodalangan yuksak badiiy

mahorat, ishq va oshiqlik tasviri. Ulardagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohada va lirik qahramon shaxsiyati talqini.

Robindranat Tagor. «Nur va soyalar» hikoyasi (2 soat).

Tagor hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

«Nur va soyalar» hikoyasida insoniy g'ururdan mahrum etilgan, nafsiga qul kishilar bilan sitamdiyda, biroq ezgu tuyg'ular sohibi bo'lgan odam o'rtasidagi ziddiyatning ifodalanishi. Asarda ezgulik va manfaatparastlik, insoniylik va e'tiqodsizlik to'qnashuvining turli xarakterlar misolida ko'rsatilishi. Adibning tasvirlash mahorati.

Sergey Yesenin. «Xurosonda bir darvoza bor...», «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...», «Singlim Shuraga», «Ona ibodati» she'rlari (2 soat).

Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Yesenin va O'zbekiston. «Fors taronalari» turkum she'rlarining yozilish tarixi.

S.Yesenin she'rlarida Sharq ruhiyatining nozik ilg'ab olinishi va mahorat bilan aks ettirilishi. She'rlardagi lirizm va ritm. Tilning jozibadorligi va poetik obrazlarning milliy o'ziga xosligi. She'rlardagi lirizm va musiqiylikni saqlab qolishda Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Fuzuliy g'azallari.
2. Robindranat Tagor. «Nur va soyalar» hikoyasi.
3. Sergey Yesenin she'rlari.

Asarlarni o'rganish uchun – 50 soat.

Yozma ishlar uchun – 14 soat.

Takrorlash uchun – 4 soat.

9- sinf (102 soat)

Ruhiy kamolot vositasi (1 soat).

Badiiy adabiyot obrazli tafakkur mahsuli sifatida. Shaxs kamolotida obrazli tafakkurning o'rni. Adabiyot inson ruhini shakllantirish vositasi sifatida. Mantiqiy va badiiy tafakkurning o'zaro aloqador hamda farqli jihatleri.

Komil shaxsni shakllantirishda hissiyot tarbiyasining o'рни. Kishi hissiyotini shakllantirishda badiiy so'zning o'рни. Komil shaxs ma'naviyatining ruhiy qirralarini ezgu qarashlarga muvofiq shakllantirish — badiiy adabiyotning bosh maqsadi sifatida.

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy, estetik, ma'rifiy, kommunikativ vazifalari mavjud ekanligi. Insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan axloqiy xislatlarni o'quvchilarda tarkib toptirishga intilish badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi sirasiga kirishi. Insonning tuyg'ulari, hissiyotinigina rivojlantirib qolmay, balki tafakkurini ham taraqqiy ettirishga xizmat qilish — badiiy adabiyotning ma'rifiy vazifasi ekanligi.

XALQ OG'ZAKI IJODI

«Alpomish» dostoni (5 soat).

Turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyati shakllanishida «Alpomish» dostonining o'рни. Doston epik ko'lamining turkiy estetik tafakkur va turkiy saltanatchilik bilan bevosita bog'liqligi. «Alpomish»da badiiy yo'sinda tasvirlangan turkona hayot tarzining Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub «Qutadg'u bilig» asarida didaktik yo'nalishda aks ettirilishi.

Dostonda o'zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasviri. Mardlik, sadoqat, ezgulik, iymonga egalik fazilatlarining Alpomish, Qorajon, Oybarchin, Qaldirg'och obrazlari orqali ifodalanishi. Asarning til xususiyatlari. Dostonda qo'llanilgan tasvir unsurlari. Asardagi favqulodda mubolag'alar katta maqsadlar yo'lida kurash olib borgan turkiy xalq tabiatidan kelib chiqadigan xususiyatlar ekanligi. Dostonning bizgacha badiiy yuksak holda yetib kelishida Fozil Yo'ldosh o'g'lining xizmatlari.

Nazariy ma'lumot. Xalq dostonlari va ularning turlari.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asar:

Alpomish» dostoni.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

Nosiriddin Rabg'uziy. «Qisasi Rabg'uziy» asari (3 soat).

Rabg'uziyning hayot yo'li haqida qisqacha ma'lumot. «Qisasi Rabg'uziy» — islomiy e'tiqodning badiiy ifodasi. Unda qadimda o'tgan payg'ambar va avliyolarning Allohni tanish va tanitish yo'lidagi kurash

yo'llarining va chekkan iztiroblarining aks etishi. Qissada tasvir ta'sirchanligini ta'minlash uchun yozuvchi qo'llagan badiiy usullar. Tilining sodda va o'ynoqiligi, ifodaning yengil va anglashimli ekani.

Alisher Navoiy. «Xamsa» asari(10 soat).

Navoiy ijodi – o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi. Shoirning hayot va ijod yo'li haqida.

«Xamsa» — o'zbek epik she'riyatining betimsol namunasi. «Xamsa»ning yozilishii. Sharq adabiyotida xamsachilik. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy «Xamsa»lari haqida ma'lumot. Xamsachilik mahorat maydoni sifatida. Turkiy tilda «Xamsa» yozish badiiy va milliy jasorat namunasi bo'lganligi. «Xamsa»ning qurilishi.

«Xamsa» poetikasi, qurilishi. Uning tarkibidagi dostonlarning badiiy-estetik vazifasi.

«Farhod va Shirin» dostonining «Xamsa»da tutgan o'rni. Dostonning badiiy xususiyatlari. Farhod shoirideali tajassumi sifatida. Komillik yo'lga kirgan inson manzillari tasviri. Shirin obrazi. Unda turk ayollariga xos eng baland ma'naviy fazilatlar talqini. Dostondagi boshqa obrazlar. Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik o'rtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida ko'rsatilishi.

Nazariy ma'lumot. Adabiyotda komil inson tasviri.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Lirika. “Boburnoma” (7 soat).

Hayoti va faoliyati haqida ma'lumot. Ijodiy merosiga umumiy bir qarash. Shoh-shoirning she'riy ijodi. Shoir lirikasining hasbi hollik xususiyati. «Mening ko'nglumki, gul g'unchasidek tahbatah qondur», «Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur» g'azallarida, «Tole yo'qi jonimg'a baloliq bo'ldi», «Ko'pdin berikim yoru diyorum yo'qdur» ruboiylarida, «Bir kecha xotirim mushavvash edi» masnaviysida Boburning ziddiyatlarga to'la hayoti poetik aks etganligi.

G'azaliyoti. Shoir g'azallaridagi soddalik va samimiylik yuksak san'atkorlik namunasi sifatida.

«Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatini», «Sendek menga bir yori jafokor topilmas» g'azallarida hayot zavqi. Umr g'animatligining betakror badiiy ifoda etilganligi. «Yoz fasli...» g'azalida qo'llangan she'riy san'atlar. «Sendek menga bir yori jafokor topilmas» she'rida vazn, qofiya, radif hamda poetik san'atlarning qo'llanishi.

Bobur ruboiylari va uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. Shoir ruboiylari tilining soddaligi, ifodasining samimiyligi. Ta'rif-tavsif va sharhi holda an'anaviy usullardan mohirona foydalanish.

«Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa» ruboysida shoirning tashbih, vazn, qofiya, radifdan foydalanish san'ati.

Shoironing tuyuq va qit'alari haqida ma'lumot. «Vaslidin so'z derga yo'q yoro, manga», «Yoqtirur nozingdan ozore manga» tuyuqlari tahlili.

Boburning o'zbek lirikasi taraqqiyoti tarixida tutgan o'rni.

Nazariy ma'lumot. Memuar asar.

Boborahim Mashrab. G'azallar (3 soat).

Hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Mashrabning o'zbek tasavvuf adabiyotining mashhur vakili ekanligi. «Ruhi jonim arshg'a yetti man o'zim osmoniman», «Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum», «Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur», «Qildi manga bir jilva, nogoh boqa qoldim», «O'rtar» g'azallari o'zbek tasavvufiy she'riyatining yorqin namunasi sifatida. Shoir she'rlarida tasavvufiy timsollar (gul - bulbul, faqr, fano).

Mashrab ijodining keyingi ijodkorlarga ta'siri.

Muhammad Rizo Ogahiy. Lirika (4 soat) .

Hayoti va faoliyati haqida ma'lumot. Ijodiy merosi. Shoironing mumtoz adabiyot tarixida tutgan o'rni.

«Ta'viz ul-oshiqin» XIX asr o'zbek she'riyatining benazir namunasi ekanligi. Shoir g'azallarida tabiat manzaralari. Navro'z, bahor, qish haqidagi she'rlari. «Baland aylab quyoshg'a roya Navro'z», «Soqiyo, mayxoralar jismidin oldi xob qish», «Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a Ushbu qishdin qish» g'azallarida shoir hayotining aks etishi. «Iloho, har kuning Navro'z bo'lsin» g'azalida an'anaviy yangi yil tilaklari va ularning poetik ifodasi. «O'yla yetkurdi jahong'a ziynatu oro bahor» g'azalida bahor vasfi. Jonli tabiatning fusunkor tasvirida shoironing tashxis san'atidan samarali foydalanishi. Go'zallik tasvirining bahor (umr) g'animatligi haqidagi ko'hna falsafaga bog'lab berilishi.

Ogahiyning ishqiy g'azallari. «Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lib boshingdan aylansin», «Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina» g'azallari ishqiy she'rning yuksak namunasi sifatida. Mazkur

g'azallardagi yor timsolida (xususan, unga murojaatda) shohga xos xususiyatlarning aks etishi.

Shoirning boshqa poetik janrdagi asarlari haqida. Ogahiyning kichik she'riy janrlardagi asarlari: tuyuq, ta'rix, tarafayn. «Dahr uyi bunyodkim, su(v) uzradur mahkam emas» tarji'bandi va Muhammad Rahimxon Soniyga bag'ishlangan «Qasidai nasihat»ida Ogahiyning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarining aks etishi.

Nazariy ma'lumot. Lirik qahramon obrazi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat. She'riyat (3 soat).

Hayoti va ijodiy faoliyati. Adabiy merosi haqida umumiy ma'lumot. Furqat — mashhur lirik shoir.

«Fasli navbahor o'ldi» g'azalida bahorning rangin, fusunkor manzarasi tasviri. Bahor va umrning go'zalligi, g'animatligi. She'rning badiiyati. «Bormasmiz» she'rida ham insoniy qadrni baland tutishning madh etilishi, ayni paytda, havoyilik va xudbinlikning tanqid qilinishi.

«Surmadin ko'zlar qaro» g'azalida go'zal yor portretining inja tasviri. G'azallardagi poetik san'atlar. «Bir qamar siymoni ko'rdim, baldai Kashmirda» g'azalida ishqi mavzuning g'urbatdagi shoir taqdiri bilan bog'lab berilishi. Furqat lirikasidagi g'urbat ohanglarining shoir hayot yo'li bilan bevosita bog'liqligi.

«Manam sho'rida bulbul...» muxammaslarida, «Sabog'a xitob» she'riy maktubida vatan ishtiyoqi va g'urbat iztirobining turli munosabatlar bilan dardli va ta'sirchan ifoda qilinishi.

«Sayding qo'yaber, sayyod» musaddasida tutqunlik fojiasidan kuyunish, erksizlikdan qayg'urish, hurlikka tashnalik tuyg'ularining ifodalanishi. Sayd, sayyod, lirik qahramon obrazlari.

Furqat ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.

Nazariy ma'lumot: tashxis, musamman.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Nosiruddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asari.
2. Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridan «Farhod va Shirin» dostoni.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi.
4. «Boburnoma» asari.

5. Boborahim Mashrab g'azallari.
6. Muhammad Rizo Ogahiy lirikasi.
7. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat she'riyati.

YANGI O'ZBEK ADABIYOTI

Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar» romani (5 soat).

Abdulla Qodiriy - o'zbek romanchiligining asoschisi. O'zbek nasrida realistik metodining to'liq qaror topishida Abdulla Qodiriyning xizmati.

«O'tkan kunlar» romanining XX asr millat ma'naviy hayoti va ravnaqidagi o'rni. Romanning ijodiy tarixi va taqdiri. Asarda tariximizning «eng kirlik qora kunlari» o'lkaning Rossiya tomonidan istilo etilishi arafasidagi murakkab davri badiiy ifoda etilishi. Romanda ona yurt birligi, mustaqilligi, ravnaqi masalalarining keskin tarzda qo'yilishi. Asardagi el-yurt g'amida yashagan shaxslar: Otabek, Yusufbek hoji obrazlari. Romanda shaxs erki, ishq-muhabbat talqini. Otabek va Kumush sevgi fojiasining ifodasi.

Romanning «Ota-ona orzusi», «Unutmaysizmi?», «Qipchoqqa qirg'in» boblaridagi murakkab, chigal vaziyatlarda Otabek, Kumush, Yusufbek hoji bisotidagi asl insoniy fazilatlarining yorqin namoyon bo'lishi. Shaxs ruhiyatini ifoda etish bobida adibning realistik mahorati. O'zbekoyim xarakteri.

Nazariy ma'lumot: Badiiy asarda milliy ruh ifodasi.

Cho'lpon. She'rlar. "Kecha va kunduz" romani (5 soat).

Cho'lpon hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Cho'lpon she'riyatining yetakchi mavzulari. «Qalandar ishq» she'rida muhabbat tuyg'usi tasviri. «Qalandar ishq» Cho'lpon poetik mahoratining ko'zgusi sifatida. Mazkur g'azalda muhabbat dengizida suzmoqchi bo'lgan oshiq holatining yuksak badiiy ifoda etilganligi. Shoir ijodida erksevarlik g'oyalarning tarannum etilishi. «Kishan», «Vijdon erki» singari she'rlarida hurriyat mavzuining aks etishi. «Yong'in» she'rida mustamlakachilik davridagi Turkiston obrazining yaratilishi. Cho'lpon she'riyatidagi erksevarlik g'oyalarning ifoda etilishi. Cho'lpon she'rlarining badiiy latofati.

Oybek. «Qutlug' qon» romani (5 soat).

Oybek haqida ma'lumot.

«Qutlug' qon» romanining yaratilish tarixi. Romandagi obrazlar tizimi. Yo'lchi va Gulnor obrazlarida o'zbek yoshlariga xos xususiyatlarning badiiy mujassamlanishi. Yo'lchi va Mirzakarimboy obrazlarida turli ma'naviy qutbdagi shaxslarga xos xususiyatlarning aks etishi.

Romanning badiiy qiymati. Yozuvchining obraz yaratish va asar kompozitsiyasini qurishdagi mahorati. Asar tilidagi badiiy-uslubiy bo'yoqlar.

Odil Yoqubov. «Ulug'bek yulduzi» asari (4 soat).

Odil Yoqubov romanlari xususida. Romandagi zamon tasviri, undagi qahramonlarning o'ziga xos tavsifi. Tasvirlangan voqealar va ularda ilgari surilgan ma'naviy jihatlar.

Abdulla Oripov. «Sarob» («O'ylarim»), «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she'rlari. «Sohibqiron» (5 soat).

Abdulla Oripovning hayot va ijod yo'li to'g'risida ma'lumot. A. Oripov — hozirgi o'zbek she'riyatining zabardast vakili. Shoir lirikasining o'ziga xos xususiyatlari. She'rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy talqinning pishiqligi. She'riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiy ruhning uyg'unligi. Shakliy-uslubiy rang-baranglik.

«Sarob» she'rida shoir hayot yo'li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirik talqini. «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she'rlarida tabiatga munosabat orqali lirik qahramon kayfiyatlari, o'ylarining, «Holat» she'rida esa tabiiylikning o'ziga xos yo'sinda ifodalanishi. «Ketganlar yodi bu» she'rida shoir qalbi jilolarining namoyon bo'lishi. «Genetika» she'rida avlod-ajdod munosabatlaring serbo'yoq va ta'sirchan ifodalanishi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1. Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar» romani.**
- 2. Cho'lpon. She'rlar.**
- 3. «Kecha va kunduz» romani.**
- 4. Oybek. «Qutlug' qon» romani.**
- 5. Odil Yoqubov. «Ulug'bek yulduzi» asari.**

6. Abdulla Oripov she'rlari.

7. "Sohibqiron" dramasi.

JAHON ADABIYOTI

Vilyam Shekspir. "Otello" tragediyasi. (4 soat).

Shekspir hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. Uning jahon dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. «Otello» asarida insoniy tuyg'ular, oila sha'ni bilan bog'liq abadiy muammolarning tig'iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi. Otello obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlarini. Otelloning o'z-o'zi bilan ruhiy olishuvi. Otello va Dezdemon, Otello va Yago munosabatlari. Asarda rashk, burch va muhabbat mavzularining tutash tasviri. Makr va samimiyat, ishonch va shubha, baxt va hasad, omad va omadsizlik o'rtasidagi ziddiyatlarning badiiy talqini.

Asarning o'zbek tiliga G.G'ulom tomonidan mohirona tarjima etilishi. "Otello" spektaklining o'zbek adabiyoti va teatr san'ati taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri.

Nazariy ma'lumot. Tragik obrazlar va hayot haqiqati. Ruhiiy tahlil.

Haynrix Hayne. She'rlar (2 soat)

Haynrix Hayne hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Shoir qalb kechinmalarining she'rlarida samimiy va haqqoniy ifoda etilganligi.

A.S.Pushkin. "Yevgeniy Onegin" she'riy romani (4 soat)

Shoirning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot. Pushkinning rus adabiyoti va adabiy tilining asoschisi ekanligi. "Yevgeniy Onegin" she'riy romani. Asarda XVI asrdagi rus xalqi hayotining yorqin ifodalanishi. Yevgeniy, Lenskiy va Tatyana obrazlari. Asarning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy xususiyatlari. Pushkin ijodining o'zbek she'riyati taraqqiyotiga, shu jumladan, o'zbek adabiyotida she'riy roman janrining paydo bo'lishiga ta'siri.

Nazariy ma'lumot. She'riy roman.

Chingiz Aytmatov. «Asrga tatigulik kun» romani (5 soat).

Ch. Aytmatovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni. Adib romanlari, jumladan, «Asrga tatigulik kun» asari haqida ma'lumot. «Asrga tatigulik kun»

romanining badiiy xususiyatlari. Asar markazidagi Edigey obrazi, uning mashaqqatli hayot yo'li, ruhiy olami orqali asr dramalarining ifodalanishi. Asarda hodisalarning falsafiy-badiiy talqini.

Romanda Edigeyning yaqin do'sti Kazangap vasiyatini ro'yobga chiqarish yo'lidagi zahmatlari ifodasining ta'sirli berilishi. Unda jamiyatdagi ma'naviy inqirozlar mohiyatining ochilishi.

Mustaqillik davri adabiyoti (3 soat).

XX asrning 90-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. O'zbekistonning Mustaqil davlat deb e'lon qilinishi. O'zbek adabiyoti tarixida mustaqillik davri adabiyoti degan yangi bosqichning boshlanishi. Shu davr adabiyotining asosiy tamoyillari, mavzulari, obrazlari. She'riyat, nasr va dramaturgiyada yangi tarixiy davr hayotining haqqoniy tasvir etila boshlashi. Tarixiy mavzu va tarixiy shaxslar obraziga murojaat. Tarixiy o'tmishning milliy istiqloq mafkurasi asosida o'rganilishi. Sotsrealizm metodining o'z kuchini yo'qotishi. Adabiyotda haqqoniylik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarning ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi. Shu davr adabiyotida yangi badiiy izlanishlar.

Nazariy ma'lumot. Mustaqillik davri adabiyotining xususiyatlari.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

- 1. Vilyam Shekspir. "Otello" tragediyasi.**
- 2. Haynrix Hayne. She'rlar.**
- 3. A.S.Pushkin. "Yevgeniy Onegin" she'riy romani.**
- 4. Chingiz Aytmatov. «Asrga tatigulik kun» romani**

Asarlar tahlili uchun - 78 soat.

Yozma ishlar uchun – 20 soat.

Takrorlash uchun – 4 soat.

**O'zbek tili fanidan umumiy o'rta ta'limning
Davlat ta'lim standarti**

O'quvchilar o'zbek tili fanidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- morfologiya va sintaksisga doir asosiy tushunchalarni hamda shu tushunchalar bilan bog'liq ravishda grammatik atamalarni bilish;
- so'zlarning yozilishi, grammatik vositalarning so'zlarga qo'shilishi bilan bog'liq imlo qoidalarini bilish va bu qoidalarga amal qilish;
- mustaqil gaplarni, murakkab sintaktik butunliklarni o'zaro to'g'ri bog'lay olish;
- o'zbek mumtoz adabiyoti hamda XX asr zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandalarini bilish, ularning asarlaridan namunalar ayta olish;
- badiiy asar timsollariga og'zaki va yozma tavsif berish;
- o'rganilgan mavzu doirasida va rasmlarga qarab mustaqil 15-20 gap bilan izchil va bog'lanishli monologik nutq shaklida bayon qilish;
- ayrim matnlar mazmunini o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish;
- matnni (badiiy asar, hikoya, ilmiy maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib bir daqiqada 90-100 so'z tezligida o'qish;
- badiiy asarni, she'rni ifodali o'qish;
- o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalariidan ayta olish;
- ish qog'ozlarini yoza olish.

I. O'zbek tili ta'limining maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida», «Davlat tili haqida»gi Qonunlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida respublikadagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini ikkinchi til (davlat tili) sifatida o'qitishni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Mazkur davlat ta'lim standarti ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat tilini o'rgatish uchun me'yoriy hujjat sanaladi. U boshlang'ich va o'rta umumiy ta'lim bosqichining har bir sinfida ta'lim oluvchilar, shu jumladan, 4- va 9-sinfni bitiruvchilar o'zbek tilidan egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va

ma'naviy, madaniy dunyoqarashning zaruriy me'yorini asoslovchi ta'limiy-tarbiyaviy hujjatdir.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyotini o'qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o'rin tutadi. Boshqa millat vakillarining davlat tili hisoblangan o'zbek tilini puxta egallashlari, milliy, madaniy qadriyatlarni o'rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari taqozo etiladi. O'zbekistonda yashab, o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lib, barcha sohalarda erkin fikr almashish uchun o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari 2-9-sinflarning har birida o'zbek tili o'quv fani bo'yicha shu sinf uchun belgilangan nutqiy ko'nikmaga, leksik-grammatik bilimlarga ega bo'lishlari, mustaqil ravishda o'zbek tilida fikr yurita olish uchun til materiali va vositalaridan shu sinf hajmida va ungacha bo'lgan davrda o'rganilgan materiallar hajmida to'g'ri va mustaqil foydalana bilishlariga erishishlari lozim.

Shu maqsadda ushbu o'quv fanining asosiy mazmunida quyidagi talablar ko'zda tutiladi:

1. O'rganilayotgan tilda muloqot malakasini egallash (nutqiy kommunikativ malaka).

2. Til materiali va vositalarini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirish (grammatik bilim va malaka).

3. Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali hosil qilinadigan tarbiya (milliy madaniyatni egallash malakasi).

Ushbu mazmun asosan nutqiy kommunikativ malakani egallash orqali o'zbek tilini o'rgatishning umumta'limiy maqsadini, milliy madaniyatini egallash malakasi esa tarbiyaviy maqsadni ko'zda tutadi.

1. Nutqiy kommunikativ malaka

O'zbek tili fanidan Davlat ta'lim standarti shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: gapirish, nutqni tinglab tushunish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini belgilab beradi. Bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z

munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

2. Grammatik bilim va malaka

Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi.

3. Adabiy o'qish va milliy ma'naviyat

Milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi.

O'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili ta'limi mazmuni yuqoridagi uch tarkibiy qismni o'z ichiga oladi va 2-9-sinflarning har birida o'zining ifodasini topadi. O'zbek tili uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim maktabgacha ta'lim-tarbiyadan keyingi bosqich sanaladi.

Uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari va muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

Boshlang'ich bosqich

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 2-4-sinflarida o'zbek tilini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni shu sinflarda

o'rganiladigan leksik va grammatik materiallar hajmida o'zbek tilida fikr bayon etish va fikr almashishga, matnlardan (bolalar uchun mo'ljallangan davriy matbuot materiallaridan) axborot olishga o'rgatish, o'zbek adabiyoti durdonalaridan bahramand etish, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy ma'naviyatidan, urf-odatlarini, udumlaridan xabardor qilish, sharqona odob-axloq bilan tanishtirish, o'zbek xalqiga va uning milliy ma'naviyatiga hurmat hissini uyg'otishdan iborat.

Boshlang'ich bosqich O'zbek tili Davlat ta'lim standarti 2-4-sinflarda o'zbek tili ta'limi mazmunini ifoda etib, haftalik 2 o'quv soati miqdoridagi o'quv yuklamasiga muvofiq tuzilgan va faqat shu sinflarda o'zbek tilini o'rganishni me'yorlaydigan hujjat sanaladi.

«O'zbek tili» davlat ta'lim standarti 2-4-sinflarning har biri uchun alohida-alohida belgilab chiqilgan ikki xil me'yorlarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbek tili ta'limi mazmuni.
2. Har bir sinfnng bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar.

I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili ta'limining asosiy vazifalari

1. So'z boyligini oshirish. Dars jarayonidagi muloqot va muomala odobiga oid oddiy, faol so'z hamda jummalarni o'zlashtirish.

O'quvchining muloqot ehtiyoji va dunyoqarashiga oid nutqiy mavzular doirasidagi tayanch va faol so'zlarni (250-300 so'z) o'zlashtirish, tarjimasini eslab qolish, soddadialoglarda qo'llash.

2. Grafika va fonetika. O'zbek alifbosidagi harflar va tutuq belgisini tanish. Ularning bosma va yozma ko'rinishlarini farqlay bilish hamda yozma harflarning shakllarini to'g'ri, chiroyli yozish.

So'z tarkibida o'zbek va rus tillarida deyarli bir xil aytiladigan tovushlarni, shu jumladan, quyidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish: bo'g'in boshidagi "i" unlisi; chuqur til orqa undoshlaridan keyin kelgan "a" unlisi; "e" unlisi; *b, p, v* (lab-tish holatida) undosh tovushlari. O'zbek va rus tillari talaffuzida qisman farqi bo'lgan quyidagi tovushlar: *k, g* undosh tovushlari, *u, o* unli tovushlari.

O'zbek tiliga xos quyidagi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish: undoshdan keyin bilinar-bilinmas talaffuz qilinadigan "i" unlisi; "v" undosh tovushi (lab-lab holatida); *o, q, g, j, h* tovushlari; *iy, ov* kabi tovush birikmalari.

Bir va ikki soʻzli (avval bir soʻzdan, keyinroq ikki soʻzdan iborat) gaplarni oʻrtacha tezlikda, ohangi va toʻxtamlariga rioya qilib ayta olish.

3. Grammatika va imlo. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosidagi katta(bosh) va kichik bosma hamda yozma harflarni tanish. Rus alifbosidagi **ts** harfining yangi oʻzbek alifbosida **s** harfi va **ts** harf birikmasi bilan belgilanishi. Yangi oʻzbek alifbosida yumshatish va ayirish belgilarining yoʻqligi. Tutuq (´), koʻchish belgilarining ishlatilishi. Rus alifbosidagi **u** harfining (asosan familiyalarda, yashik kabi ayrim soʻzlarda) yangi oʻzbek imlo qoidalariga koʻra **sh** harf birikmasi bilan yozilishi. Rus alfavitidagi **u** harfining (ayrim olinma soʻz va asosan familiyalarda) oʻzbek tilida **i** harfi bilan ifodalanishi. Rus alfavitidagi **e, ě, ю, я** harflarining yangi oʻzbek alifbosi va imlo qoidalariga koʻra **ye, yo, yu, ya** harflari bilan yozilishi.

Quyidagi grammatik vositalarning maʼnosi, talaffuzi va imlosi, soʻzga qoʻshilish tartibini bilish:

- feʼlning boʻlishsizlik shakli(**-ma**); koʻplik qoʻshimchasi(**-lar**); dona son hosil qiluvchi **-ta** qoʻshimchasi; tartib son hosil qiluvchi **-nchi, -inchi** qoʻshimchalari; **-mi** soʻroq yuklamasi; uning soʻzga qoʻshib yozilishi; **-niki** qoʻshimchasi (*Bu kitob meniki*); tushum kelishigi qoʻshimchasi(**-ni**), nimani? soʻrogʻi; joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi(**-ga**), qayerga? soʻrogʻi; oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasi(**-da**), qayerda? soʻrogʻi; chiqish kelishigi qoʻshimchasi (**-dan**), qayerdan? soʻrogʻi; hozirgi zamon davom feʼli (**-yap** qoʻshimchasi), tuslanishi; hozirgi-kelasi zamon feʼli (**-a, -y**), tuslanishi; oʻtgan zamon feʼli (**-di** qoʻshimchasi), tuslanishi; buyruq-istak maylining II shaxs koʻplik shakli (**-ng, -ing** qoʻshimchalari); Ushbu shakldagi feʼllarda boʻlishsizlik qoʻshimchasining ishlatilishi; zamon shaklidagi feʼllarning boʻlishsizlik qoʻshimchasi bilan qoʻllanishi; qaratqich kelishigi qoʻshimchasi(**-ning**), kimning? soʻrogʻi III shaxs egalik qoʻshimchalari(**-i, -si**); **-mi** soʻroq yuklamasining ot-kesimga, feʼlga, songa qoʻshilishi; tushum kelishigidagi soʻzlarning koʻplik qoʻshimchasi bilan ishlatilishi(*daftar+lar+ni* kabi).

4. Fonetika va orfoepiya. Faol va passiv darajada oʻrganilgan yangi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish, hozirgi-kelasi zamon, buyruq-istak maylining II shaxs birlik va koʻplik shakllaridagi feʼllar, qaratqich kelishigi qoʻshimchasini olgan soʻzlarni, **-mi** soʻroq yuklamasi bilan qoʻllangan

ot-kesim, fe'l va sonlarni, ko'plik qo'shimchasini olgan otlarni to'g'ri talaffuz qilish. So'z urg'usini to'g'ri qo'ya olish. Gaplarni o'rtacha tezlikda, ohangiga rioya qilib ayta olish.

III. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar

2-sinf

O'quv yili yakunida 2-sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Bilim:

- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi harflari;
- Harflarning yozma va bosma shakllari. — *ng* harf birikmasi;
- *ye, yo, yu, ya* unililari;
- Tutuq belgisi;
- Harflar ifodalaydigan tovushlar;
- Unli va undosh tovushlar;
- Yozma va bosma harflar bilan yozilgan so'z va gaplar.

Ko'nikma:

- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi harflarining bosma va yozma shakllarini farqlay olish;
- — *ng* harf birikmasini to'g'ri qo'llay olish;
- *ye, yo, yu, ya* unililarini ajrata bilish;
- harflarni so'z va gaplarda to'g'ri qo'llay bilish;
- ular ifodalaydigan tovushlarni ajrata olish;
- tutuq belgisini ko'chish belgisidan farqlay olish;
- yozma va bosma harflarni so'z va gaplarda qo'llay olish.

Malaka:

Nutqni tinglab tushunish bo'yicha:

- Rasmlar yoki buyumlar asosida berilgan savollar va javoblarni tushunish;
- 3-4 gapdan iborat matnni eshitib tushunish;
- Tasvir yoki buyumlar asosida berilgan savollar va javoblarni tushunish.

Og'zaki nutq bo'yicha:

- Rasmlar yoki buyumlarga qarab 1-3 savol bilan o'zaro suhbatlashish;
- berilgan rasmga qarab 1-3 ixcham gap bilan so'zlash;

- o'zaro suhbatda o'rganilgan qolipli gaplardan foydalanish;
- o'rganilgan mavzuda o'z fikrini 2-3 gap orqali bog'lanishli (monologik nutq shaklida) bayon qilish;
- o'rganilgan mavzu doirasida 2-3 luqma bilan, kerakli o'rinlarda qolip-gaplardan foydalanib (dialogik nutq shaklida) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi harflarini, ular ifodalaydigan tovushlarni bilish;
- yozma va bosma harflar bilan yozilgan so'z va gaplarni o'qish;
- matnni bir daqiqada 20-30 so'z tezligida o'qish;
- darslikda berilgan she'rlarni to'g'ri o'qish.

Yozish bo'yicha:

- o'zbek alifbosi harflarini, so'zlarni eshitib turib yozish;
- darslik yoki doskadan o'rganilgan so'z va 2-3 ta ixcham gapni to'g'ri ko'chirib yozish;
- eshitish orqali 2-3 gapni, darslik yoki doskadan 3-4 gapni ko'chirib yozish;
- 10-12 ta tanish so'zdan iborat matn asosida diktant yozish.

3- sinf

O'quv yili yakunida 3-sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Bilim:

- o'zbek alifbosidagi harflar, harfiy birikmalarni to'g'ri yozish;
- tutuq belgisini to'g'ri qo'llash;
- *o* va *o'* harflarini to'g'ri ishlatish;
- tinish belgilarini to'g'ri qo'llash;
- *ng* va *n, g* harflari bo'lgan so'zlardan bo'g'in ko'chira olish;
- o'rganilgan qolipli gaplar asosida yig'iq gaplar;
- ikkinchi shaxs buyruq-istak mayli;
- birlik sondagi shaxs-son qo'shimchalarini fe'llarda qo'llash;
- ot yasovchi –zor, sifat yasovchi –li, -siz qo'shimchalari;
- kelishik va egalik qo'shimchalari;
- fe'lning o'rganilgan shakllari, zamon, shaxs-son, mayl qo'shimchalari;
- *nimaga? nimada? nimadan?* so'roq olmoshlari;

- bilan ko'makchisi;
- kim bilan? nima bilan? so'roq so'zlari;
- oldida, yonida, tagida, orqasida, ichida, ustida, atrofida, tepasida ot ko'makchilari;
- qaratqich kelishigi —ning qo'shimchasi, nimaning? so'roq so'zi;
- -niki qo'shimchasi (*bolaniki, o'rtoqlarimniki*);
- olmoshlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi;
- ko'plik qo'shimchasini olgan otlarning turlanishi;
- o'zbek tiliga xos tovushlar talaffuzini bilish;
- ko'makchili birikmalarda, **-mi, -ma, -sin, -chi** qo'shimchalari bilan qo'llangan so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yish.

Ko'nikma:

- o'zbek alifbosidagi harfiy birikmalarni qo'llay olish;
- o va o' harflarini farqlay olish;
- tinish belgilarini farqlay olish, nutqda to'g'ri qo'llay bilish;
- ikkinchi shaxs buyruq-istak mayli, birlik sondagi shaxs-son qo'shimchalarini ajrata bilish;
- ot yasovchi, sifat yasovchi qo'shimchalarni farqlay olish;
- kelishik va egalik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olish;
- fe'lining o'rganilgan shakllari, zamon, shaxs-son, mayl qo'shimchalari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- so'roq olmoshlarini nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- ot ko'makchilarni gaplarda to'g'ri qo'llay olish;
- qaratqich kelishigi, birgalik nisbat qo'shimchalarini ajrata bilish;
- -niki qo'shimchasini nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- egalik qo'shimchasini olgan otlarni tushum, jo'nalish, o'rinpayt va chiqish kelishiklarida qo'llay olish;
- buyruq-istak maylining II-shaxs birlik va III-shaxs qo'shimchalarini ajrata bilish;
- olmoshlarni kelishik qo'shimchalari bilan qo'llay bilish;
- ko'plik qo'shimchasini olgan otlarning turlanishi bo'yicha tasavvurga ega bo'lish;
- so'roq yuklamasini ko'plik vazifasidagi so'zga qo'sha olish;
- ot-kesimning ega bilan shaxs va sonda moslashuvini farqlay bilish;
- so'roq yuklamasini ot-kesimda ishlata olish, og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish.

Malaka:

Nutqni tinglab tushunish bo'yicha:

- *Tasvir yoki buyumlar asosida berilgan savollar va javoblarni tushunish;*

- *4-5 gapdan iborat matnni eshitib tushunish.*

Og'zaki nutq bo'yicha:

- 2-3-sinflarda o'rganilgan leksik va grammatik materiallardan foydalanib 3-4 gap bilan o'z fikrlarini bog'lanishli (monologik nutq shaklida) bayon qilish;

- O'rganilgan mavzu doirasida 2-3 luqma bilan, kerakli o'rinlarda qolip gaplardan foydalanib (dialogik nutq) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- matnni (ertak, kichik hikoya, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 30-40 so'z tezligida o'qish;

- hikoyani (hikoyadan olingan parchani), she'rni ifodali o'qish;

- shu sinfdagi o'rganilgan 2-3 she'rni yoddan ifodali aytish;

- o'rganilgan matn mazmunini 3-4 ixcham gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

Yozish bo'yicha:

- eshitish orqali 4-5 gapni, darslik yoki yozuv taxtasidan 5-6 gapni ko'chirib yozish;

- 12-16 so'zdan iborat matn asosida diktant yozish.

4-sinf

O'quv yili yakunida 4-sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Bilim:

- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi harflarini husnixat qoidalariga amal qilib yozish;

- ko'chirma gaplarda tinish belgilarini to'g'ri ishlatish;

- o'rganilgan qolipli gaplar asosida yig'iq va yoyiq sodda gaplar tuzish;

- fe'l yasovchi *-la*, sifat yasovchi *-iy, -viy*, ot yasovchi *-kor* qo'shimchalari;

- qo'shma fe'l hosil qiluvchi *qilmoq* fe'li;

- *-dagi* qo'shimchasi;

- ko'makchi vazifasidagi *bo'lib* so'zi, *kim bo'lib?* so'rog'i;

- buyruq-istak maylining 1-shaxs ko'plik shakli: - (*a*)ylik;
- -ni qo'shimchasi qo'llanadigan va tushirib qoldiriladigan holatlar;
- uzoq o'tgan zamon fe'li;
- uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli (-gan emas), uning tuslanishi;
- *Navoiy ko'chasi, maktab hovlisi, Orol dengizi* kabi birikmalarda egalik qo'shimchalarining (-i, -si) qo'llanilishi;
- ot-kesimning bo'lishsiz shakli (*oshpaz emas*);
- gapda gap bo'laklarining odatdagi tartibi;
- “k”, “q” undosh tovushlari bilan tugagan otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi (*etagi, qoshig'i*);
- qaratqich kelishikdagi so'zning mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishi (*ukamning*);
- ot va olmoshlarda qaratqich va tushum kelishigi, egalik qo'shimchalarini o'rinli ishlatish.

Ko'nikma:

- so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ixcham gaplarda qo'llay olish;
- ko'chirma gaplarda tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilish;
- qo'shma fe'l hosil qiluvchi *qilmoq* fe'lini to'g'ri qo'llay olish;
- harakat nomi hosil qiluvchi qo'shimchalarni ajrata bilish; shart maylidagi fe'lni o'rinli qo'llay bilish;
- buyruq-istak maylining 1-shaxs ko'plik shaklini farqlay olish;
- -ni qo'shimchasi qo'llanadigan va tushirib qoldiriladigan holatlarni ajrata olish;
- uzoq o'tgan zamon fe'li, uning bo'lishsiz shakli haqida tasavvurga ega bo'lish;
- kerakli o'rinlarda egalik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olish;
- ot-kesimning bo'lishsiz shaklini farqlay olish;
- gapda gap bo'laklarining odatdagi tartibini ajrata bilish;
- “k”, “q” undosh tovushlari bilan tugagan otlarni egalik qo'shimchalari bilan qo'llay olish;
- ot va olmoshlarda qaratqich va tushum kelishigi, egalik qo'shimchalarini o'rinli ishlata bilish.

Malaka:

Tinglab tushunish bo'yicha:

- o'rganilayotgan mavzuga oid va darslikdagi matnlarni tinglab, mazmunini to'liq tushunish;

- mavzuga aloqador 25-30 soʻzli qoʻshimcha adabiy-badiiy matnlarni audio, video vositalari yordamida tinglash, koʻrish orqali mazmunini toʻgʻri tushunish va eslab qolish.

Ogʻzaki nutq boʻyicha:

- oʻrganilgan mavzu doirasida yangi leksik va grammatik materiallarni ishlatgan holda 4-5 gap bilan oʻz fikrlarini bogʻlanishli (monologik nutq) bayon qilish;

- oʻrganilgan mavzu doirasida 4-5 luqma bilan kerakli oʻrinlarda qolip-gaplardan foydalanib (dialogik nutq) oʻzaro fikr almashish.

Oʻqish boʻyicha:

- yangi matnni (ertak, xabar, eʼlon) toʻgʻri, ravon, tushunib, bir daqiqada 40-50 soʻz tezligida oʻqish;

- hikoya, sheʼr va maqollarni ifodali oʻqish;

- matndan asosiy fikrni ajratib olib, umumiy xulosani ifodalay bilish, raqamli dalilni aytish, ertak yoki multfilm qahramonlariga baho berish;

- oʻrganilgan matnlar mazmunini 5-6 gap hajmida oʻz soʻzi bilan qayta hikoya qilish.

Yozish boʻyicha:

- eshitish orqali 5-6 gapni, darslik yoki yozuv taxtasidan 6-7 ta ixcham gapni koʻchirib yozish;

- 16-20 soʻzdan iborat matn asosida diktant yozish;

- 20-25 soʻzli matn asosida bayon yozish;

- daftar muqovasiga maktabi, sinfi haqidagi maʼlumotni, ismi va familiyasini, xat yoki konvertga manzilni yozish.

5-sinf

Oʻquv yili yakunida 5-sinf oʻquvchisining tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan talablar:

Bilim:

- yangi soʻzlar, **-li, -chi, -lik, -la** qoʻshimchasi yordamida yasalgan soʻzlashuvga xos yasama soʻzlar;

- ot yasovchi **-ik**, sifat yasovchi **-i(-ki, -qi)**, feʼl yasovchi **-y, -ay** qoʻshimchalari bilan yasalgan yasama soʻzlar;

- oʻxshatish shakli (**-dek, -day**);

- sifat va ravishlarda qiyosiy daraja (**-roq** qoʻshimchasi);

- so'roq olmoshlarining tub so'z tarzida ishlatilishi (*qayerlarga? kimlarni?*);
- harakat nomining *uchun* ko'makchisi bilan qo'llanishi (*olish uchun*);
- qaratqichli birikmada qaralmish vazifasidagi so'zning turlanishi, ko'makchilar bilan qo'llanishi (*mening ukamga, sening ukang uchun*);
- dona son (*beshta, o'n beshta*), jamlovchi sonlar;
- so'roq, belgilash olmoshlari;
- hozirgi-kelasi zamon fe'li, uning bo'lishsiz shakli;
- so'roq so'zlarning ko'plik qo'shimchasi bilan ishlatilishi (*qayerlarga, kimlarni*);
- harakat nomining tushum kelishigida ishlatilishi (*rasm chizishni yaxshi ko'radi*);
- uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli (*-ganim yo'q, -ganing yo'q*);
- -dagi qo'shimchasini olgan so'zlarning mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishi (*qo'limdagi*);
- ot ko'makchilarning -dagi qo'shimchasi bilan ishlatilishi (*yonimdagi*);
- ot ko'makchilarning mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishi (*ichimda, ustimda*);
- taqsim son (*beshtadan, besh so'mdan*);
- fe'lining *-gisi keldi* shakli;
- *qolmoq* ko'makchi fe'li.

Ko'nikma:

- sifat va ravishlarda qiyosiy darajani farqlay olish;
- so'roq olmoshlarini tub so'z tarzida ishlata bilish;
- harakat nomini *uchun* ko'makchisi bilan qo'llay olish;
- dona son, jamlovchi sonlarni ajrata olish;
- so'roq, belgilash olmoshlarini farqlay olish;
- hozirgi-kelasi zamon fe'lini o'rinli qo'llay bilish;
- so'roq so'zlarni ko'plik qo'shimchasi bilan ishlata olish;
- harakat nomini tushum kelishikda ishlata olish;
- o'rin-payt kelishigidagi sifatdoshni mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llay olish;
- uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shaklini farqlay bilish;
- taqsim sonni kerakli o'rinlarda to'g'ri qo'llay olish;
- harakat nomining bo'lishsiz shaklini farqlay bilish.

Malaka:

Tinglab tushunish bo'yicha:

- o'rganilayotgan mavzuga oid va darslikdagi matnlarni tinglab mazmunini to'liq tushunish;
- mavzuga aloqador 30-40 so'zli qo'shimcha adabiy-badiiy matnlarni audio, video vositalari yordamida tinglash, ko'rish orqali mazmunini to'g'ri tushunish va eslab qolish.

Og'zaki nutq bo'yicha:

- o'rganilgan mavzu doirasida yangi leksik va grammatik materiallarni ishlatgan holda 6-8 gap bilan o'z fikrini bog'lanishli (monologik nutq) bayon qilish;
- o'rganilgan mavzu doirasida 5-6 luqma bilan kerakli o'rinlarda qoli p-gaplardan foydalanib (dialogik nutq) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 50-60 so'z tezligida o'qish;
- ertak, hikoya, masal va she'rlarni ifodali o'qish;
- matndan asosiy fikrni ajratish, yangi axborotni o'zlashtirish, faktlarga, voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish;
- o'rganilgan matnlar mazmunini 5-7 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

Yozish bo'yicha:

- eshitish orqali 6-7 gapni, darslik yoki doskadan 7-8 ta sodda gapni ko'chirib yozish;
- 20-25 so'zdan iborat matn asosida diktant yozish;
- 25-30 so'zli matn asosida bayon yozish;
- 2-3 replikali dialogik matnlarni mustaqil yozish;
- 5-6 gap bilan ta'limiy insho yozish.

6- sinf

O'quv yili yakunida 6-sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Bilim:

- *Bermoq, olmoq (-b, -ib)* ko'makchi fe'llari;
- harakat nomining jo'nalish kelishigida qo'llanishi (*davolashga*);

- gumon olmoshining hosil bo'lishi (**alla-**, **-dir**);
- chiqish kelishigidagi sifatdoshning mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishi (*topganimdan keyin*);
- ko'makchi fe'lning harakat nomi shaklida qo'llanishi (*topa olish*);
- qiyosiy darajadagi sifatning mos egalik va kelishik qo'shimchasi bilan ishlatilishi (*kattarog'idan*);
- kasb-hunar otlarining yasalishi;
- sifatdoshning turlanishi (*ko'rgani, ko'rganga*);
- qo'shma va juft otlarning yasalishi;
- fe'lning shart mayli;
- gaplarning ketma-ket bog'lanishi;
- gapda so'zlarning o'zgargan tartibi;
- qiyosiy darajadagi sifatning mos egalik va kelishik qo'shimchasi bilan ishlatilishi (*kattarog'idan*);
- ravishdosh hosil qiluvchi **-gani(-kani, -qani)** qo'shimchasi;
- sifatdoshning ham egalik, ham kelishik qo'shimchasini qabul qilishi (*ko'rganimni*);
- hozirgi zamon sifatdoshini hosil qiluvchi **-ayotgan, -yotgan** qo'shimchalari (*ishlayotgan odam, chiqayotgan kun*);
- ta'kid yuklamalari (**-oq, -yoq**);
- mos egalik qo'shimchali ot-ko'makchining **-dagi** qo'shimchasi bilan qo'llanishi (*oldimdagi*).

Ko'nikma:

- harakat nomini jo'nalish kelishigida qo'llay olish;
- gumon olmoshini nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- chiqish kelishigidagi sifatdoshni mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llay olish;
- ko'makchi fe'lni harakat nomi shaklida qo'llay bilish; uning kelishik qo'shimchasini qabul qilishi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- qiyosiy darajadagi sifatni mos egalik va kelishik qo'shimchasi bilan ishlata olish;
- kasb-hunar otlarining yasalishini farqlay olish;
- sifatdoshning turlanishi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- qo'shma va juft sifatlarni farqlay bilish;
- fe'lning shart mayli; gaplarning ketma-ket bog'lanishi haqida tushunchaga ega bo'lish;

- o'tgan zamon davom fe'li, gapda so'zlarning o'zgargan tartibini qo'llay olish;
- qiyosiy darajadagi sifatni mos egalik va kelishik qo'shimchasi bilan ishlata olish;
- ravishdosh hosil qiluvchi qo'shimchalarni ajrata olish;
- sifatdoshning ham egalik, ham kelishik qo'shimchasi bilan qo'llay bilish;
- hozirgi zamon sifatdoshini hosil qiluvchi qo'shimchalarni; ta'kid yuklamalarini farqlay olish, og'zaki hamda yozma nutqda qo'llay bilish.

Malaka:

Tinglab tushunish bo'yicha:

- o'rganilayotgan mavzuga oid va darslikdagi matnlarni tinglab mazmunini to'liq tushunish;
- mavzuga aloqador 40-50 so'zli qo'shimcha adabiy-badiiy matnlarni audio, video vositalari yordamida tinglash, ko'rish orqali mazmunini to'g'ri tushunish va eslab qolish.

Og'zaki nutq bo'yicha:

- o'rganilgan mavzu doirasida yangi leksik va grammatik materiallarni ishlatgan holda 7-8 gap bilan o'z fikrini bog'lanishli(monologik nutq) bayon qilish;
- o'rganilgan mavzu doirasida 6-7 luqma bilan kerakli o'rinlarda qoli p-gaplardan foydalanib (dialogik nutq) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 55-65 so'z tezligida o'qish;
- ertak, hikoya, masal va she'rlarni ifodali o'qish;
- shu sinfda o'rganilgan 4-6 she'rni yoddan ifodali aytish;
- matndan asosiy fikrni ajratish;
- yangi axborotni o'zlashtirish, faktlarga, voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish;
- o'rganilgan matnlar mazmunini 6-7 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

Yozish bo'yicha:

- eshitishtirish orqali 7-8 gapni, darslik yoki yozuv taxtasidan 8-9 ta sodda gapni ko'chirib yozish;

- 25-30 soʻzdan iborat matn asosida diktant yozish;
- 35-40 soʻzli matn asosida bayon yozish;
- 3-4 replikali dialogik matnlarni mustaqil yozish;
- 6-8 gap bilan taʼlimiy insho yozish.

7- sinf

Oʻquv yili yakunida 7-sinf oʻquvchisining tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan talablar:

Bilim:

- oʻtgan zamon davom feʼlini hosil qiluvchi qoʻshimchalar;
- *ortiq, oid, doir, boshlab, qadar, ichida* koʻmakchilari;
- taʼkid yuklamasi (**-gina**);
- «*-sa kerak*» shakli; «*-(i)b boʻladi (boʻlmaydi)*» shakli;
- *bermoq* koʻmakchi feʼlining yetakchi feʼlga qoʻshib yozilishi va aytilishi (*ketaveradi*); *yurmoq, urmoq, chiqmoq* koʻmakchi feʼllari;
- kasr son (*oʻndan bir*);
- *qayerda—oʻsha yerda, qanday—oʻshanday, qancha—oʻshancha* nisbiy va soʻroq soʻzlarning ishlatilishi;
- *olmoq* koʻmakchi feʼlining yetakchi feʼl bilan qoʻshib aytilishi va yozilishi (*chiqolmadi*);
- qaratqich va tushum kelishigining belgisi va belgisiz qoʻllanishi;
- **-niki** qoʻshimchasini olgan soʻzning tushum, joʻnalish, oʻrinpayt va chiqish kelishiklarida ishlatilishi (*unikidan, biznikiga*);
- ot-kesimning tushum kelishik qoʻshimchasi bilan qoʻllanishi (*ichini, ustini*);
- soʻroq yuklamasining oʻtgan zamon feʼlida qoʻllanishi (*kelarmiding, koʻrganmisiz*);
- koʻplik qoʻshimchasining taxmin maʼnosi (*oʻnlarda*);
- maʼnodosh soʻzlar;
- zid maʼnoli soʻzlar;
- egalik qoʻshimchalarini olgan harakat nomining *bilan, uchun, tufayli, sababli* koʻmakchilari bilan birikishi.

Koʻnikma:

- oʻtgan zamon davom feʼlini hosil qiluvchi qoʻshimchalarni farqlay olish;
- taʼkid yuklamasini toʻgʻri ishlata olish;

- *bermoq* ko'makchi fe'lining yetakchi fe'lga qo'shib yozilishi va aytilishidagi farqni ajrata olish;
- kasr sonni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish;
- egalik qo'shimchali so'zni qaratqich kelishik qo'shimchasi bilan qo'llay bilish;
- nisbiy va so'roq so'zlarni farqlay olish;
- *olmoq* ko'makchi fe'lining yetakchi fe'l bilan qo'shib aytilishi va yozilishidagi farqni ajrata olish;
- **-niki** qo'shimchasini olgan so'zni tushum, jo'nalish, o'rinpayt va chiqish kelishiklarida ishlata bilish;
- bo'lishsiz shakldagi ot-kesimni *edi* to'liqsiz fe'li bilan qo'llay bilish;
- ot-kesimni tushum kelishik qo'shimchasi bilan qo'llay olish;
- so'roq yuklamasini o'tgan zamon fe'lida qo'llay bilish;
- ko'plik qo'shimchasini taxmin ma'nosida qo'llay olish;
- ma'nodosh so'zlarni farqlay olish;
- zid ma'noli so'zlarni farqlay bilish;
- egalik qo'shimchalari olgan harakat nomini tegishli ko'makchilar bilan ishlata bilish;
- shaxsi umumlashgan gaplar haqida tasavvur hosil qilish.

Malaka:

Tinglab tushunish bo'yicha:

- o'rganilayotgan mavzuga oid va darslikdagi matnlarni tinglab mazmunini to'liq tushunish;
- mavzuga aloqador 50-60 so'zli qo'shimcha adabiy-badiiy matnlarni audio, video vositalari yordamida tinglash, ko'rish orqali mazmunini to'g'ri tushunish va eslab qolish.

Og'zaki nutq bo'yicha:

- o'rganilgan mavzu doirasida yangi leksik va grammatik materiallarni ishlatgan holda 8-9 gap bilan o'z fikrini bog'lanishli (monologik nutq) bayon qilish;
- o'rganilgan mavzu doirasida 6-7 luqma bilan kerakli o'rinlarda qoli p-gaplardan foydalanib (dialogik nutq) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 65-70 so'z tezligida o'qish;

- o'rganilgan matnlar mazmunini 7-8 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish;
- ertak, hikoya, masal va she'rlarni ifodali o'qish;
- shu sinfda o'rganilgan 5-7 she'rni yoddan ifodali aytish;
- matndan asosiy fikrni ajratish, yangi axborotni o'zlashtirish, faktlarga, voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish.

Yozish bo'yicha:

- eshitish orqali 8-9 gapni, darslik yoki doskadan 9-10 ta sodda gapni ko'chirib yozish;
- 35-40 so'zdan iborat matn asosida diktant yozish;
- 45-50 so'zli matn asosida bayon yozish;
- 4-5 replikali dialogik matnlarni mustaqil yozish;
- 8-10 gap bilan ta'limiy insho yozish.

8-sinf

O'quv yili yakunida 8-sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Bilim:

- kelasi zamon sifatdoshi (*-adigan, -ydigan* qo'shimchalari);
- ta'kid yuklamalari; harakat nomining qaratqich va o'rin-payt kelishigida qo'llanilishi (*rivojlantirishning, rivojlantirishda*);
- sifatdoshning *uchun, haqida* ko'makchilari bilan ishlatilishi (*kech qolganim uchun, tashlagani haqida*);
- fe'ning aniq nisbati;
- fe'ning majhul nisbati
- fe'ning o'zlik nisbati;
- fe'ning orttirma nisbati;
- fe'ning birgalik nisbati;
- hajm-o'lchovni bildiruvchi hisob so'zlar;
- so'roq olmoshlarining mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llanilishi (*kimim, nimang, qayering*);
- *beri, buyon, muvofiq, ko'ra, bo'yicha* ko'makchilari;
- taxmin sonlar;
- shartlilik ma'nosini bildiruvchi modal so'zlar;
- undov so'zlar;

- ekan, emish to'liqsiz fe'llari;
- his-hayajon gaplar.

Ko'nikma:

- kelasi zamon sifatdosh qo'shimchalarini nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- ta'kid yuklamalarini farqlay olish;
- harakat nomini qaratqich va o'rin-payt kelishigida qo'llay bilish;
- sifatdoshni *uchun, haqida* ko'makchilari bilan ishlata bilish;
- *tashlamoq, bormoq, ko'rmoq* ko'makchi fe'llarini o'rinli qo'llay olish;
- orttirma daraja qo'shimchalarini nutqda to'g'ri qo'llash;
- qiyosiy darajadagi sifatni qo'llay olish;
- hajm-o'lchovni bildiruvchi hisob so'zlarini farqlay bilish;
- so'roq olmoshlarini mos egalik qo'shimchasi bilan qo'llay olish;
- fe'lning aniq nisbatini farqlay olish;
- fe'lning birgalik nisbatini qo'llay olish;
- fe'lning o'zlik nisbatini farqlay bilish;
- fe'lning orttirma nisbatini qo'llay olish;
- bo'lishsiz shakldagi harakat nomini turliq olish;
- taxmin sonlarni ajrata olish;
- shartlilik ma'nosini bildiruvchi modal so'zlarni qo'llay olish;
- undov so'zlarni qo'llay olish;
- *ekan, emish* to'liqsiz fe'llarini farqlay olish;
- his-hayajon gaplarni qo'llay olish;

Malaka:

Tinglab tushunish bo'yicha:

- o'rganilayotgan mavzuga oid va darslikdagi matnlarni tinglab mazmunini to'liq tushunish;
- mavzuga aloqador 60-70 so'zli qo'shimcha adabiy-badiiy matnlarni audio video vositalari yordamida tinglash, ko'rish orqali mazmunini to'g'ri tushunish va eslab qolish.

Og'zaki nutq bo'yicha:

- o'rganilgan mavzu doirasida yangi leksik va grammatik materiallarni ishlatgan holda 9-10 gap bilan o'z fikrini bog'lanishli (monologik nutq) bayon qilish;
- o'rganilgan mavzu doirasida 7-8 luqma bilan kerakli o'rinlarda qoli p-gaplardan foydalanib (dialogik nutq) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 70-75 so'z tezligida o'qish;
- o'rganilgan matnlar mazmunini 8-9 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish;
- shu sinfda o'rganilgan 6-8 she'rni yoddan ifodali aytish;
- asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish.

Yozish bo'yicha:

- eshitish orqali 9-10 gapni, darslik yoki doskadan 10-11 ta sodda gapni ko'chirib yozish;
- 50-60 so'zdan iborat matn asosida diktant yozish;
- 55-60 so'zli matn asosida bayon yozish;
- 5-6 replikali dialogik, 3-5 sodda gapli monologik matnlarni mustaqil yozish;
- 11-15 gap bilan mustaqil matn yaratish.

9-sinf

O'quv yili yakunida 9-sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Bilim:

- *oid, doir* ko'makchilarining jo'nalish kelishikdagi harakat nomi bilan qo'llanishi (*tuzishga oid, doir*);
- “-*sin deb*” vositasi; “-*ganicha yo'q*” shakli;
- egalik qo'shimchali harakat nomining *bilan* ko'makchisiga bog'lanib kelishi (*kirishim bilan*);
- *oldin, avval* ko'makchi vazifasidagi so'zlarning mos egalik qo'shimchali harakat nomi bilan qo'llanishi (*chiqishimdan oldin*);
- *toimonidan, ko'ra, muvofiq, yuzasidan, qilib, orqali* ko'makchilari va ko'makchi vazifasidagi so'zlar;
- kuchaytiruv yuklamalari;
- ravishdosh hosil qiluvchi *-gach (-kach, -qach), -guncha, -kuncha, -quncha* qo'shimchalari;
- *bilan* qo'shimchasining mos egalik qo'shimchali harakat nomi bilan qo'llanishi (*ko'rganim bilan, chiqqaning bilan*);
- fikrning tartibini bildiruvchi modal so'zlar;

- orttirma nisbatdagi fe'ldan majhul nisbatning hosil bo'lishi (*kuchaytirilmoq*);
- taqlid so'zlar;
- matnda tinglovchining diqqatini bayonga qaratish uchun xizmat qiladigan kirish so'zlar, kiritmalar;
- shaxsi umumlashgan gaplar;
- *ekan* so'zi o'zidan oldin kelgan so'z bilan qo'shib talaffuz qilinganda va yozilganda **-mi** so'roq yuklamasining ishlatilishi (*bormikan*).

Ko'nikma:

- *oid, doir* ko'makchilarini jo'nalish kelishigidagi harakat nomi bilan qo'llay olish;
- egalik qo'shimchali harakat nomini *bilan* ko'makchisi bilan ishlata olish;
- *oldin, avval* ko'makchi vazifasidagi so'zlarni mos egalik qo'shimchali harakat nomi bilan qo'llay bilish;
- *toimonidan, ko'ra, muvofiq, yuzasidan, qilib, orqali* ko'makchilari va ko'makchi vazifasidagi so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- kuchaytiruv yuklamalarini farqlay bilish;
- qaralmishni majhul nisbatdagi harakat nomi bilan ifodalay olish;
- *beri, buyon* ko'makchilarini mos egalik qo'shimchali sifatdosh bilan qo'llay olish;
- ravishdosh hosil qiluvchi qo'shimchalarni farqlay bilish;
- *bilan* qo'shimchasini mos egalik qo'shimchali harakat nomi bilan qo'llay olish;
- fikrning tartibini bildiruvchi modal so'zlar haqida tasavvurga ega bo'lish;
- orttirma nisbatdagi fe'ldan majhul nisbatning hosil bo'lishini ajrata bilish;
- taqlid so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- kirish so'zlar, kiritmalarni ajrata olish;
- *ekan* so'zi o'zidan oldin kelgan so'z bilan qo'shib talaffuz qilinganda va yozilganda **-mi** so'roq yuklamasini ishlata bilish.

Malaka:

Tinglab tushunish bo'yicha:

- o'rganilayotgan mavzuga oid va darslikdagi matnlarni tinglab mazmunini to'liq tushunish;
- mavzuga aloqador 70-80 so'zli qo'shimcha adabiy-badiiy

matnlarni audio video vositalari yordamida tinglash, ko'rish orqali mazmunini to'g'ri tushunish va eslab qolish.

Og'zaki nutq bo'yicha:

- o'rganilgan mavzu doirasida yangi leksik va grammatik materiallarni ishlatgan holda 10-12 gap bilan o'z fikrini bog'lanishli (monologik nutq) bayon qilish;

- o'rganilgan mavzu doirasida 8-10 luqma bilan kerakli o'rinlarda qolip-gaplardan foydalanib (dialogik nutq) o'zaro fikr almashish.

O'qish bo'yicha:

- matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 75-85 so'z tezligida o'qish;

- o'rganilgan matnlar mazmunini 8-10 gap hajmida o'z so'zi bilan (asosiy mazmunini qamrab olgan holda) qayta hikoya qilish;

- shu sinfda o'rganilgan 8-10 ta she'rni yoddan ifodali aytish;

- asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish;

- ijodi haqida qisqa tushuncha berilgan o'zbek yozuvchi va shoirlari haqida fikr aytish.

Yozish bo'yicha:

- eshitish orqali 9-10 gapni, darslik yoki doskadan 11-12 ta sodda gapni ko'chirib yozish;

- 80-90 so'zdan iborat matn asosida diktant yozish;

- 90-100 so'zli matn asosida bayon yozish;

- 6-7 replikali dialogik, 5-6 sodda gapli monologik matnlarni mustaqil yozish;

- 16-20 gap bilan ta'limiy insho yozish.

**O'zbek tili fanidan umumiy o'rta ta'limning
o'quv dasturi**

Uqtirish xati

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "O'zbek tili" o'quv dasturida quyidagi maqsadlarga erishish ko'zda tutilgan:

- o'quvchilarda o'zbek tilida o'zaro erkin muloqot qila olish, o'z fikrini o'zbek tili qonun-qoidalariga muvofiq savodli, mantiqan izchil ifodalash uchun zarur bo'lgan so'z boyligi va nutqiy malaka va ko'nikmalar hosil qilish;

- boshqa millat vakillari bo'lgan o'quvchilarni o'zbek tili orqali xalqimizning boy ma'naviy va ilmiy xazinasi, uning an'analari, urf-odatlari, qadriyatlari, madaniyati bilan tanishtirish;

- ularga o'zbek diyori, uning tabiati va iqlimi, sanoati va qishloq xo'jaligi, undagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar haqida bilim berish;

- o'zbek tili orqali o'quvchilarda o'zbekona muomala odobi, otanonaga va kattalarga nisbatan hurmat-izzat, mehmondo'stlik, yuksak axloqiy fazilatlar, o'zbek xalqiga, uning urf-odatlari, an'alariga, qadriyatlariga nisbatan hurmat va ehtirom, do'stlik va birodarlik kabi tuyg'ularni tarbiyalash.

Ushbu dasturda o'zbek tilini puxta egallashda zarur bo'lgan asosiy amallar, ya'ni tinglab tushunish, o'qish yozish va so'zlash ko'nikma va malakalarini soddadan murakkabga qarab uzluksiz o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan. Shunga ko'ra, har bir sinfdagi o'quvchi egallashi lozim bo'lgan minimal nutqiy va grammatik talablar parametrlari ishlab chiqilib, tavsiya etildi.

O'quv dasturidagi mavzular kundalik hayot, davlatimiz siyosatining ijtimoiy-siyosiy yo'nalishi, milliy mafkura g'oyasi vazifalaridan kelib chiqqan holda nutqiy mavzularga ajratib nomlandi. Har bir mavzu to'liq o'tilishi uchun 2 soatlik dars mashg'uloti ajratilgan. Darslarni rejalashtirishda har bir nutqiy mavzuga doir ko'nikma va malakalar, mavzuga oid matnlarda faol qo'llanuvchi grammatik materiallar mazmuni aniq ajratib berildi. Shu asosda dasturda ko'rsatilgan nutqiy mavzularning

soddadan murakkabga qarab mantiqan ketma-ketligi, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar ijtimoiy hayot, milliy qadriyatlarga oid bayramlar va boshqa ma'rifiy tadbirlardan oldin o'tilishi inobatga olindi.

2-sinf dasturi

1. O'zbekiston

Nutqiy mavzu: "O'zbekiston" mavzusidagi tayanch so'zlar

(O'zbekiston, Respublika, poytaxt, Samarqand, Buxoro, Xiva, Mustaqillik bayrami, vatan, tarixiy, muzey, ozod, obod, sevaman, bu, shu, kim? nima?).

Tinglab tushunish: "O'zbekiston" matni, salomlashish va tanishuvga oid jumlarlar va savol-javoblar.

Nutq namunalari: Bu nima? – Bu kitob. Bu nima? – Bu laylak. Bu kim? – Bu Abror. Isming nima? – Ismim Temur. Familiyang nima? - familiyam Olimov. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. O'zbekiston – mening vatanim. Men vatanimni sevaman.

So'zlash: Salomlashish hamda tanishuvga oid muomala so'zlari va jumalari.

Bu kim? Bu nima? so'roqlari asosida suhbatlashish.

2. Maktabim

Nutqiy mavzu: "Maktabim" mavzusidagi tayanch so'zlar (maktab, dars, o'quvchi, o'qituvchi, men, parta, daftar, qalam, o'rganaman, o'qiyman, ana, bu, mana shu.).

Tinglab tushunish: "Maktabim" mavzusidagi matn, istak bildirishga oid jumlarlar va savol-javoblar.

Nutq namunalari: Bu mening maktabim. Maktabim katta va chiroyli. O'qituvchimning ismi Aziza Komilova. Ana shu maktabda o'qiyman. Yozishni o'rganaman.

So'zlash: Istak bildirishga oid muomala so'zlari va jumalari. "Maktab" mavzusida suhbatlashish.

3. Sinf

Nutqiy mavzu: "Sinf" mavzusidagi tayanch so'zlar (doska, stol, stul, bo'r, latta, deraza, sen, bor, yo'q, ha, ayt, takrorla, so'ra, sinfda, bu-chi? eshikmi?)

Tinglab tushunish: “Sinf” mavzusidagi matn, tasdiqlash va rad etishga oid jumlarlar hamda savol-javoblar.

Nutq namunalari: Bu yozuv taxtasi. Bu-chi? Bu bo‘r va latta. Bu eshikmi? – Yo‘q, bu deraza. Mana mening sinfim. Sinfirmiz keng va yorug‘. Sinfirmizda parta va stullar bor.

So‘zlash: Tasdiqlash va rad etishga oid muomala so‘zlari va jumlarlari. –mi, -chi so‘roq yuklamalarini qo‘llagan holda suhbatlashish. Mavjudlik va mavjud emaslikni bildiruvchi so‘z va jumlarlar asosida suhbat.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: A - a, O - o, N - n tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol so‘zlar.

4. O‘yinchoqlar

Nutqiy mavzu: “O‘yinchoqlar” mavzusidagi tayanch so‘zlar (Ayiqcha, qo‘g‘irchoq, quyoncha, mashina, koptok, o‘yinchoq, u, katta, kichik, chiroyli, o‘ynayapti).

Tinglab tushunish: “O‘yinchoqlar” mavzusidagi matn va narsa-buyumlarning katta-kichikligini bildiruvchi so‘zlar.

Nutq namunalari: Bu qanaqa? (qanday?) o‘yinchoq? - Bu katta o‘yinchoq. O‘yinchoqlarim chiroyli. Kichik quyoncham bor. Temur mashina o‘ynayapti.

So‘zlash: “O‘yinchoqlar” mavzusidagi savollarga javob berish. Narsa-buyumlarning katta-kichikligini, ko‘rinishini ifodalash.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: M – m, T - t tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol so‘zlar.

5. Sanaymiz

Nutqiy mavzu: “Sanaymiz” mavzusidagi tayanch so‘zlar (Bir–bitta, ikki–ikkita, uch–uchta, to‘rt–to‘rtta, besh–beshta, olti–oltita, yetti–yettita, sakkiz–sakkizta, to‘qqiz–to‘qqizta, o‘n–o‘nta..., o‘n bitta, o‘n ikkita, ... nechta?)

Tinglab tushunish: “Sanaymiz” mavzusidagi matn va son-sanoq haqidagi savol-javoblar. Narsalarning miqdori, donasini ifodalovchi so‘z va jumlarlar.

Nutq namunalari: Bular nechta? O‘yinchoqlar ikkita. Nechta koptok bor? Oltita koptok bor. Sinfda nechta parta bor? Sinfda sakkizta parta bor. Senda nechta kitob bor? Menda o‘n ikkita kitob bor.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: K – k, I – i tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol so‘zlar.

6. Ranglar

Nutqiy mavzu: “Ranglar ” mavzusidagi tayanch soʻzlar (oq, qora, qizil, sariq, yashil, koʻk, rang, siz, qaysi? qanday?).

Tinglab tushunish: “Ranglar ” mavzusidagi matn, narsalarning rang-tusini bildiruvchi soʻz va jumlar.

Nutq namunalari: Bu qaysi rang? –Bu yashil rang. U qanday lola? – Bu qizil lola. Olma va gilos qizil. Koʻk koptok bitta. Kitobim katta va sariq. Ana u esa sariq gul.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: B – b, L – l tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

7. Mevalar

Nutqiy mavzu: “Mevalar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (anor, oʻrik, nok, uzum, olcha, gilos, shirin, nordon, mevalar, daraxt, biz, siz).

Tinglab tushunish: “Mevalar” mavzusidagi matn, kishilik va koʻrsatish olmoshlarining maʼnosi, mevalarning xususiyatini bildiruvchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Bu qanday anor? - Bu shirin anor. Ana u nokmi? -Yoʻq, bu olma. Bu-chi? Bu gilos bilan olcha. Savatda qanday uzum bor? - Savatda qirmizi uzum bor. Biz bogʻga kirdik. Daraxtda oʻrik koʻp. Ikkita bola meva terdi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: R – r, U - u l tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

8. Sabzavotlar

Nutqiy mavzu: “Sabzavotlar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (sabzi, piyoz, kartoshka, lavlagi, pomidor, bodring, karam, qovoq, qalampir, qovun, tarvuz, ular, bilan, achchiq, yangi, sabzavotlar).

Tinglab tushunish: “Sabzavotlar” mavzusidagi matn, “bilan” koʻmakchisining vazifasi, murojaatga oid soʻz va jumlar.

Nutq namunalari: Bu nima? Bu kartoshka bilan piyoz. Mana bu qovun bilan tarvuz. Ular shirinmi? Ha, juda shirin. Bu sabzimi? Yoʻq, bu bodring. Oq qalaming bormi? Oq qalamim bor.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Q – q tovushi, bosh va kichik harfi, bu harf ishtirokidagi faol soʻzlar.

9. Idishlar

Nutqiy mavzu: “Idishlar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (idish, choynak, piyola, qoshiq, likopcha, sanchqi, kosa, lagan, pichoq, olib kel, qoʻy, qayerda?).

Tinglab tushunish: “Idishlar” mavzusidagi matn, “menga”, “sizga”, “unga” soʻzlarining maʼnosi, murojaatga oid soʻz va jummlar.

Nutq namunalari: Idishlar qayerda? – Idishlar javonda. Menga qoshiq bering. Sizga nechta piyola kerak? Unga katta lagan olib kel. Dasturxonga oltita sanchqi qoʻy. Stolda kosa bilan likopcha bor.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: **D – d, X – x** tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

10. Oziq-ovqatlar

Nutqiy mavzu: “Oziq-ovqatlar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (non, choy, sut, sharbat, shakar, qand, pishloq, sariyogʻ, asal, bering, ichyapti, yeyapti, issiq, sovuq).

Tinglab tushunish: “Oziq-ovqatlar” mavzusidagi matn, taklif-istakni ifodalovchi soʻz va jummlar, oziq-ovqatlarning turi, xususiyatiga oid savol-javoblar.

Nutq namunalari: Sut bormi? – Marhamat, oling. Iltimos, bir piyola sharbat bering. Rahmat, men sharbat ichmayman. Stolda nimalar bor? Stolda choy, sut, qand, asal, sariyogʻ bor. Gulnora nima ichyapti? – Choy ichyapti. Choy issiqmi? – Ha, choy issiq. Laziza nima yeyapti? U, non bilan sariyogʻ yeyapti.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: **E – e, G – g** tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

11. Tana aʼzolari

Nutqiy mavzu: “Tana aʼzolari” mavzusidagi tayanch soʻzlar (bosh, yuz, koʻz, tish, quloq, burun, qoʻl, barmoq, tirnoq, oyoq, soch, yuvinyapti, artyapti).

Tinglab tushunish: “Tana aʼzolari” mavzusidagi matn, tana aʼzolari nomlari, belgilar va faoliyatini ifodalovchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Uning qoʻli toza. Svetaning sochlari sariq. Saida, sochingni art. Aziz tishini tozalayapti. Akmal yuzini yuvyapti. U qoʻlini sochiq bilan artyapti.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: **Y – y, S – s** tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

12. Kiyimlar

Nutqiy mavzu: “Kiyimlar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (koʻylak, shim, doʻppi, roʻmol, paypoq, etik, qalpoq, nimcha, kiy, yech, kiygan, yangi, eski, tozala, kir qilma.)

Tinglab tushunish: “Kiyimlar ” mavzusidagi matn, kiyim-bosh nomlarini bildiruvchi soʻzlar. –*ma* shaklining harakat bajarilmasligini ifodalashi. Rad etishga oid soʻz va jumalalar.

Nutq namunalari: Bu paypoq kichikmi? – Yoʻq, bu katta paypoq. Qizil nimchani kiyasanmi? – Kiyamayman. Oʻktam nima kiygan? U koʻk koʻylak kiygan. Bu etik yangimi? Yoʻq, bu etik eski. Qani, shimingni tozala. Roʻmolni kir qilma.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Oʻ – oʻ tovushi, bosh va kichik harflari, bu harf ishtirokidagi faol soʻzlar.

13. Yangi yil

Nutqiy mavzu: “Yangi yil ” mavzusidagi tayanch soʻzlar (*yangi yil, archa, bayram, sovgʻa, qoʻshiq, raqs, berdi, pufak, chiroqlar, Qorbobo, Qorqiz, tabriklayman, hamma, birga*).

Tinglab tushunish: “Yangi yil ” mavzusidagi matn, shu mavzuda savol- javoblar, *hamma* jamlash olmoshi, tabriklashga oid soʻz va jumalalar.

Nutq namunalari: Sizni tabriklayman. Yangi yilingiz muborak boʻlsin! Bugun yangi yil. Mana archa. Archada chiroq va oʻyinchoqlar bor. Hamma raqsga tushdi. Bayramga Qorqiz va Qorbobo keldi. Qorbobo hammaga sovgʻa berdi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: R – r, Z –z tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

14. Yil fasllari

Nutqiy mavzu: “Yil fasllari ” mavzusidagi tayanch soʻzlar (*yil, fasllar, qish, bahor, yoz, kuz, hozir, qor, yomgʻir, yogʻadi, shamol, bulut, havo, quyosh, oy*).

Tinglab tushunish: “Yil fasllari ” mavzusidagi matn, fasllar va ob-havoga oid savol-javoblar, *yana, ham* soʻzlarining maʼnosi.

Nutq namunalari: Bir yilda necha fasl bor? - Bir yilda toʻrt fasl bor. Hozir qaysi fasl? Hozir qish. Qishda nima yogʻadi? - Qishda qor va yomgʻir yogʻadi. Bahorda ham yomgʻir yogʻadi. Yana qanday fasllar bor? – Bahor, yoz, kuz.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: F – f, V – v tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlar.

15. Hafta kunlari

Nutqiy mavzu: “Hafta kunlari” mavzusidagi tayanch soʻzlar (hafta, kun, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba, payt, bugun, erta, ertaga, indin, boraman, dam olaman).

Tinglab tushunish: “Hafta kunlari” mavzusidagi matn, shu mavzuga oid savol-javoblar, payt ma’nosini bildiruvchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Bugun qaysi kun? – Bugun seshanba. Ertaga-chi? Ertaga chorshanba boʻladi. Shanba kuni hashar boʻladi. Yakshanba kuni dam olaman.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: H –h, Sh – sh tovushlari.

16. Kitob

Nutqiy mavzu: “Kitob” mavzusidagi tayanch soʻzlar (kitob, darslik, ertak, kutubxona, nomi, juda, jildi, beti, qiziqarli, oʻsha, chizma, ravon, tez, oʻqiydi).

Tinglab tushunish: “Kitob” mavzusidagi matn, qanday kitob oʻqiganligiga oid savol-javoblar, “Nima qildi? soʻrogʻiga javob.

Nutq namunalari: Bu qanday kitob? Bu juda qiziqarli kitob. Katta kitob qani? Mana oʻsha kitob. Jamila nima qildi? – Jamila ertak oʻqidi. Kitob betiga chizma. Jasur kitobni tez oʻqidi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: J – j, Ch - ch tovushlari.

17. Uy hayvonlari

Nutqiy mavzu: “Uy hayvonlari ” mavzusidagi tayanch soʻzlar (uy, hayvon, foydali, mushuk, kuchuk, qoʻy, echki, sigir, ot, tuya, chaqqon, yuvosh, qoʻriqlaydi, sut beradi, yuk tashiydi).

Tinglab tushunish: “Uy hayvonlari ” mavzusidagi matn, mavzuga oid savol-javoblar, “Nima qiladi? soʻrogʻiga javob.

Nutq namunalari: Uy hayvonlari juda foydali. Uyingizda qanday uy hayvonlari bor? - Uyimizda mushuk, kuchuk va qoʻy bor. Sigir, ot, echki ham uy hayvonlari. Kuchuk nima qiladi? Kuchuk uyni qoʻriqlaydi. Sigir va echki sut beradi. Ot yuk tashiydi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Gʻ - gʻ tovushi.

18. Onajonlar bayrami

Nutqiy mavzu: “Onajonlar bayrami” mavzusidagi tayanch soʻzlar (ona, opa, amma, togʻa, amaki, buvi, sevimli, ustoz, tabriklaymiz, sovgʻa, kimga, onamga, sogʻlik, orzu, tilayman).

Tinglab tushunish: “Onajonlar bayrami ” mavzusidagi matn, mavzuga oid savol-javoblar, qarindoshlikni ifodalovchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Ustoz, sizni tabriklaymiz! Sogʻ boʻling! Onajon, sizga sogʻlik tilayman! Opangga nima sovgʻa qilding? – Opamga gul sovgʻa qildim. Ustozimni bayram bilan tabrikladim. Hamma xursand boʻldi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Ng – ng tovushi.

19. Assalom, Navroʻz!

Nutqiy mavzu: “Assalom, Navroʻz!” mavzusidagi tayanch soʻzlar: (Navroʻz, milliy, anʼana, qozon, taomlar, sumalak, halim, koʻk somsa, sayil, raqsga tushdi, kulgi, qoʻshiq, taʼtil, sheʼr).

Tinglab tushunish: “Assalom, Navroʻz!” mavzusidagi matn, mavzuga oid savol-javoblar, milliy taomlarni ifodalovchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Navroʻz – bahor bayrami. Navroʻz 21-martda boshlanadi. Bayramga mehmonlar keladi. Sumalak va koʻk somsa pishdi. Oʻyin-kulgi boʻldi. Hamma raqsga tushdi. Raʼno sheʼr aytdi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Tutuq belgisi, uning yozilishi, qoʻyilishi va tutuq belgisi qoʻyilgan soʻzlar talaffuzi.

20. Qiziqarli harakatli oʻyinlar

Nutqiy mavzu: “Qiziqarli harakatli oʻyinlar” mavzusidagi tayanch soʻzlar: (harakat, oʻyinlar, kuchli, oʻng, chap, tomon, jamoa, guruh, oʻgʻil bolalar, qizlar, gʻolib boʻldik, yuguring, chopasiz, toʻxtading, yutdik).

Tinglab tushunish: “Qiziqarli harakatli oʻyinlar” mavzusidagi matn, mavzuga oid savol-javoblar, harakatli oʻyinlar va ularni bajarishni ifodalovchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Bu qanday oʻyin? – Bu “Oq terakmi, koʻk terak?” oʻyini. Kim bilan oʻynading? -Ahror bilan oʻynadim. Qiz bolalar chap tomonda. Sizlar oʻng tomonga yuguring. “Chaqqonlar” guruhi gʻolib boʻldi.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Unli va undosh tovushlarni qoʻshib talaffuz qilish hamda yozish.

21. Koʻchamiz va uyimiz

Nutqiy mavzu: “Koʻchamiz va uyimiz” mavzusidagi tayanch soʻzlar. (koʻcha, uy, mahalla, hovli, xona, qavat, yaqin, avtobus, tramvay, trolleybus, metro, bekat, svetofor, yoʻl, yoʻlak, qatnaydi, toʻxtaydi)

Tinglab tushunish: “Ko‘chamiz va uyimiz” mavzusidagi matn, mavzuga oid savol-javoblar, “qayerda?” va “nima qiladi? so‘rog‘iga javob.

Nutq namunalari: Bizning ko‘chamiz keng. Ko‘chada avtobus, tramvay va trolleybuslar qatnaydi. Sen qayerda yashaysan? - Men Navoiy ko‘chasida yashayman. Uyimiz ikki qavatli. Hovlimiz katta va chiroyli. Hovlimizda va ko‘chamizda daraxtlar ko‘p.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: Unli va undosh tovushlarni qo‘shib talaffuz qilish hamda yozish.

22. Toshkent shahri

Nutqiy mavzu: “Toshkent shahri” mavzusidagi tayanch so‘zlar (shahar, qishloq, bino, ko‘p, haykal, yashaymiz. Toshkent, baland, sayohat, obidalar, maydon, favvora, bordik).

Tinglab tushunish: “Toshkent shahri” mavzusidagi matn, mavzuda oid savol-javoblar, “qayerga?” va “nima qilasiz? so‘rog‘iga javob.

Nutq namunalari: Men Toshkent shahrida yashayman. Shahar ko‘chalari keng, chiroyli. U yerda chiroyli mehmonxonalar, xiyobonlar bor. Xiyobonlarda favvoralar bor. Biz Toshkentga sayohatga bordik. Nima qilasiz? – Haykallarni ko‘ramiz.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: Unli va undosh tovushlarni qo‘shib talaffuz qilish, yozish va o‘qish.

3-sinf

1. Respublikamiz

Nutqiy mavzu: “Respublikamiz” mavzusidagi tayanch so‘zlar (vatanimiz, viloyat, jonajon, ulkan, qurilish, barcha, qurilmoqda, qadriyatlar, san‘at korxonalari, bog‘lar, barkamol, farovon)

Tinglab tushunish: “Respublikamiz” mavzusidagi matn, mavzuda oid savol- javoblar, “Nima qilmoqda? so‘rog‘iga javob.

Nutq namunalari: Abror nima qilmoqda? - Abror kitob o‘qimoqda. O‘zbekistonda 12 ta viloyat bor. Barcha viloyatlarda ulkan qurilishlar ketmoqda. Yangi sanoat korxonalari qurilmoqda. Bog‘lar, keng va go‘zal ko‘chalar ko‘paymoqda. Xalqimiz farovon yashamoqda.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: **A, o** tovushlarning talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslab, farqlagan holda o‘qish.

- **moqda** qo'shimchali kelasi zamon fe'llarining talaffuzi va yozilishi.

2. Maktabimiz

Nutqiy mavzu: “Maktabimiz” mavzusidagi tayanch soʻzlar (sinf xonalari, sport zali, oʻqituvchilar xonasi, kompyuter xonasi, sport maydonchasi, kutubxona, maktab oshxonasi, oshxona binosi, yorugʻ, shinam).

Tinglab tushunish: “Maktabimiz” mavzusidagi matn, shu mavzuda tinglangan suhbat, topishmoq va oʻqituvchi nutqi.

Nutq namunalari: Bu qanday xona? - Bu oʻqituvchilar xonasi. Maktabimiz binosi yangi va chiroyli. Unda yorugʻ sinf xonalari, sport zali va oʻqituvchilar xonasi bor. Maktab hovlisida – sport maydonchasi, maktab oshxonasi, gulzor bor.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: K-q tovushlari talaffuzini farqlagan holda oʻqish. Eralik qoʻshimchali soʻzlarning talaffuzi va yozilishi.

3. Sinf xonasi

Nutqiy mavzu: “Sinf xonasi” mavzusidagi tayanch soʻzlar (sinfda, qator, deraza oldida, yozuv taxtasi, devorda, kitob javonida, yonida, ichida, ustida, oʻqing, yozing, bering, oʻtiring, koʻchiring)

Tinglab tushunish: “Sinf xonasi” mavzusidagi matn, shu mavzuda tinglangan suhbat, topishmoq va narsalarning makondagi oʻrnini ifodalovchi soʻzlar. **–da** qoʻshimchasi yordamida oʻrin-joyini koʻrsatish.

Nutq namunalari: Sinf burchagi qayerda? - Sinf burchagi eshik yonida. Karim qayerda oʻtiradi.? –Karim ana u qatorda oʻtiradi. Sinfda uch qator parta bor. Kitobni parta ustiga qoʻying. Shu gapni daftaringizga koʻchiring.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: –ng , –ing qoʻshimchali buyruq-istak fe'llarining talaffuzi va yozilishi.

4. Kuz keldi

Nutqiy mavzu: “Kuz keldi” mavzusidagi tayanch soʻzlar (salqin, dehqonlar, hosil, terish, barglar sargʻayadi, toʻkladi, shamol esadi, bulut, baʼzan, yomgʻir, soviydi)

Tinglab tushunish: “Kuz keldi” mavzusidagi matn, shu mavzuda tinglangan suhbat, topishmoq va sheʼr, ish-harakatning **-(a,y)di** qoʻshimchasi orqali hozirgi-kelasi zamonda ifodalanishi.

Nutq namunalari: Nima qiladi? – Mevalar pishadi. Havo salqin bo‘ladi va soviydi. Daraxt barglar sarg‘ayadi, keyin to‘kiladi. Bulutlar paydo bo‘ladi va ba‘zan yomg‘ir yog‘adi. Dehqonlar hosilni terishga kirishadilar.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: U - o‘ tovushlarning talaffuzini farqlagan holda o‘qish. **-(a,y)di** qo‘shimchali fe‘lning hozirgi-kelasi zamonda ifodalanishi.

5. Polizda

Nutqiy mavzu: “Polizda” mavzusidagi tayanch so‘zlar (poliz, yig‘im-terim, kuzgi, qovun, tarvuz, qovoq, uzum, bog‘, bog‘bon, ombor, yig‘adilar, saqlaydilar, shaharlik, yetkazadilar, ko‘p, oz.

Tinglab tushunish: “Polizda” mavzusidagi matn, shu mavzuda tinglangan suhbat, topishmoq va she‘r, **-ni** tushum kelishigining ob‘ektni ifodalashi.

Nutq namunalari: Nimani teradilar? – Mevalarni teradilar. Kuzgi ishlar boshlandi. Bog‘bonlar kuzgi mevalarni teradilar. Dehqonlar qovun va tarvuzlarni uzadilar. Hosilni omborda saqlaydilar. Qishda shaharliklarga yetkazadilar.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: G – g‘ tovushining talaffuzini farqlagan holda o‘qish. O‘rganilgan mavzudagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab o‘qish. So‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajratgan holda ko‘chirib yozish.

6. Oilamiz

Nutqiy mavzu: “Oilamiz” mavzusidagi tayanch so‘zlar (uy bekasi, nafaqada, ahil, mehribon, dam oladi, mehmonlar, xursand, shifoxonada, ishlaydi, o‘qiydi).

Tinglab tushunish: “Oilamiz” mavzusidagi matn, shu mavzuda o‘qilgan yoki tinglangan suhbat, topishmoq va o‘qituvchi nutqi. Hol-ahvol so‘rashga oid so‘z va jumlar.

Nutq namunalari: Oilangiz kattami? – Ha, katta. Oilamizda 4 kishi bor. Otam shifokor, shifoxonada ishlaydilar. Onam o‘qituvchi, litseyda dars beradilar. Bobom nafaqada, uyda dam oladilar. Lola xola, yaxshimisiz? Ahror tog‘am eson-omonmilar?

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: V - f tovushlari talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslab, farqlagan holda o‘qish. Qarindoshlikka oid so‘zlarning talaffuzi va yozilishi.

7. Kun tartibi

Nutqiy mavzu: “Kun tartibi” mavzusidagi tayanch soʻzlar (kun tartibi, ertalab, kunduzi, kechqurun, badantarbiya, kiyinaman, nonushta, tushlik, kechki ovqat, turaman, yotaman, ketaman, kelaman).

Tinglab tushunish: “Kun tartibi” mavzusidagi matn, shu mavzuda oʻqilgan yoki tinglangan suhbat, sheʼr. —**siz** shaxs-son qoʻshimchasining qoʻllanishi. Harakat-holat vaqtini ifodalovchi soʻzlar.

Nutq namunalari: Qachon kelasan? – Tushdan keyin kelaman. Ertalab turaman va yuz-qoʻlimni yuvaman. Keyin badantarbiya qilaman. Nonushtadan keyin maktabga ketaman. Kechqurun dam olaman.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: —**siz** shaxs-son qoʻshimchalarini talaffuz qilish, yozish va oʻqish.

Soʻzlash: Kun tartibiga oid savollarga javob berish. Qachon nima qilasan? soʻrogʻiga javob berish.

8. Sanoq

Nutqiy mavzu: “Sanoq” mavzusidagi tayanch soʻzlar (bitta, ikkita, uchta... oʻnta, oʻn bitta, oʻn ikkita, ... yigirma, oʻttiz, qirq, ellik, sana, qancha? nechta?)

Tinglab tushunish: “Sanoq” mavzusidagi matn, shu mavzuda oʻqilgan yoki tinglangan suhbat, topshiriq. Narsalarning donalab sanalishi.

Nutq namunalari: Senda nechta daftar bor? —Menda beshta daftar bor. Stol ustida uchta kitob va oltita daftar bor. Bu qatorda oltita parta bor. Unda oʻn ikki oʻquvchi oʻtiradi, 7 ta qiz bola, 5 ta oʻgʻil bola. Sinfimizda oʻttizta oʻquvchi bor.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: **T - d** tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslab, oʻqish. **-ta** qoʻshimchali sanoq sonlarni talaffuz qilish, yozish va oʻqish.

Soʻzlash: Mavzuga oid soddav savollarga javob berish.

9. Oziq-ovqatlar

Nutqiy mavzu: “Oziq-ovqatlar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (oziq-ovqat, somsa, tuxum, mastava, qovurdoq, ichmoq, yemoq, pishirmoq, kagpir, choʻmich, piyola, sharbat).

Tinglab tushunish: “Oziq-ovqatlar” mavzusidagi matn, shu mavzuda o‘qilgan yoki tinglangan suhbat, topshiriq. **–miz** shaxs-son qo‘shimchasining ishlatilishi.

Nutq namunalari: Bu maktab oshxonasi. Biz bu yerda ovqatlanamiz. Tushlikka mastava, palov, qovurdoq kabi ovqatlar tayyorlanadi. Ovqatlar juda mazali. Buvim quymoq pishirdilar.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: **Ch–j** tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslab o‘qish.

–miz shaxs-son qo‘shimchali so‘zlarni talaffuz qilish, yozish va o‘qish.

So‘zlash: Nima uchun kerak? savoliga javob berish, shu mavzuda savol berish. Mavzuga oid sodda savollarga javob berish.

10. Kiyim-kechaklar

Nutqiy mavzu: “Kiyim-kechaklar” mavzusidagi tayanch so‘zlar (telpak, ichki kiyim, bo‘yinbog‘, tasma, bog‘ich, kiyinyapman, kiyiyapti, yechyapman, yechyapti, oyog‘iga, boshiga, ustiga, qalin, yupqa).

Tinglab tushunish: “Kiyim-kechaklar” mavzusidagi matn, shu mavzuda o‘qilgan yoki tinglangan suhbat, topshiriq. **–ga** qo‘shimchasining egalik shakllari bilan qo‘llanishi.

Nutq namunalari: Sen nima qilyapsan? – Men kiyinayapman. Sobir ustiga kurtka kiyiyapti. Boshiga telpak kiyiyapti. Bu qalin kiyimmi? – Yo‘q, yupqa kiyim.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: **N – ng** tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslagan holda o‘qish. Bu harflarda bo‘g‘in ko‘chirilishi. **–ingga** qo‘shimchali so‘zlarni talaffuz qilish, yozish va o‘qish.

So‘zlash: Nima kiyding? savoliga javob berish, shu mavzuda savol berish. Mavzuga oid sodda gaplar tuzish.

11. Qish keldi

Nutqiy mavzu: “Qish keldi” mavzusidagi tayanch so‘zlar (qish, qor, sovuq, yog‘moq, muzlamoq, yaxmalak, qo‘lqop, etik, yasamoq, kiymoq, uchmoq) .

Tinglab tushunish: “Qish keldi” mavzusidagi matn, shu mavzuda o‘qilgan yoki tinglangan suhbat, topshiriq, she‘r. **–yapti** qo‘shimchasining ishlatilishi.

Nutq namunalari: Qo'lgop kiydingmi? - Ha, qo'lgop kiydim. Kecha qor yog'di. Suvlar muzladi, yaxmalak bo'ldi. Hammaning ustida palto yoki kurtka, boshida qalpoq, oyog'ida etik. Qizlar Qorbobo yasadilar.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: I - y tovushlari talaffuzini ona tilidagi shu tovushni ifodalovchi harf bilan qiyoslagan holda o'qish. Bu harflar o'rtasida tutuq belgisining kelishi va imlosi.

—**yapti** qo'shimchali so'zlarni talaffuz qilish, yozish va o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid sodda savollarga javob berish.

12. Yangi yil bayrami

Nutqiy mavzu: “Yangi yil bayrami” mavzusidagi tayanch so'zlar (yangi yil, yasatdi, archa atrofida, bezadik, turli, yalmog'iz, niqob kiygan, quvnoq, supurgiga mingan, aytdilar, muborak bo'lsin, tabriklayman).

Tinglab tushunish: “Yangi yil bayrami” mavzudagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, she'r. —**sin** qo'shimchali buyruq-istak fe'lining qo'llanishi.

Nutq namunalari: Yangi yil bayrami boshlandi. Archamizni turli o'yinchoqlar bilan bezadik. Archa atrofida niqob kiygan bolalar o'ynadi. Anvar tulki bo'ldi, Saida quyon bo'ldi. Hamma raqsga tushdi. Qorqiz qo'shiq aytdi. Supurgiga mingan Yalmog'iz ham keldi. Yangi yil bilan tabriklayman.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: E – u tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslagan holda o'qish. —**sin** qo'shimchali buyruq-istak fe'llarini talaffuz qilish, yozish va o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. Mavzuga oid sodda gaplar tuzish.

13. Uy hayvonlari va parrandalar

Nutqiy mavzu: “Uy hayvonlari va parrandalari” mavzusidagi tayanch so'zlar (parranda, toychoq, qo'zichoq, tovuq, xo'roz, jo'ja, o'rdak, g'oz, o'rdakcha, yem, o't, yeydi, beradi, don).

Tinglab tushunish: “Uy hayvonlari va parrandalar” mavzusidagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, she'r, topshiriq. —**cha, -choq** kichraytirish, erkalash qo'shimchalarining qo'llanishi.

Nutq namunalari: Sigir nima yeydi? - Sigir o't va yem yeydi. Sigirning bolasi – buzoq. Qo'yning bolasi – qo'zichoq. Otning bolasi – toychoq. Tovuqning bolasi – jo'ja. O'rdak va g'oz suvda suzadi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: *L - r* tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslagan holda o'qish. *-cha, -choq* kichraytirish, erkalash qo'shimchlarini talaffuz qilish, yozish va o'qish. «Jonli burchakda» matnini o'qish va yozish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. Tinglab yoki o'qib eslab qolingan matnning asosiy mazmunini so'zlash.

14. Yovvoyi hayvonlar va qushlar

Nutqiy mavzu: “Yovvoyi hayvonlar va qushlar” mavzusidagi tayanch so'zlar (bo'ri, timsoh, ayiq, burgut, kaklik, laylak, musicha, to'ti, mayna, shox, hamma, qafas, kiyik, o'rmon, tog', qo'nadi).

Tinglab tushunish: “Yovvoyi hayvonlar va qushlar” mavzusidagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, she'r; *ham, xuddi* yuklamalarining qo'llanishi.

Nutq namunalari: Timsoh qayerda yashaydi? - Timsoh suvda yashaydi. Kaklik kul rang qush, u tog'da bo'ladi. Qushlar daraxt shoxlariga qo'nadi. Yovvoyi hayvonlarni qafasda saqlashadi. Musicha xuddi kaklikka o'xshab sayraydi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: *S - z* tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslagan holda o'qish; *ham, xuddi* yuklamalarini talaffuz qilish, ular bog'langan so'zlarni yozish va o'qish. Mavzuga oid maqol, topishmoq va tez aytishlarni to'g'ri ko'chirib yozish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. Tinglab yoki o'qib eslab qolingan matnning asosiy mazmunini so'zlash.

15. Hayvonot bog'ida

Nutqiy mavzu: “Hayvonot bog'ida” mavzusidagi tayanch so'zlar (hayvonot bog'i, boraman, boramiz, qafasda, maymun, yo'lbars, bo'ri, yovvoyi hayvonlar, sher, ilon, fil, u yerda, boshqa, yuribdi).

Tinglab tushunish: “Hayvonot bog'ida” mavzusidagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, she'r. *edi, ekan* so'zlarining qo'llanishi.

Nutq namunalari: Biz kecha hayvonot bog'iga bordik. U yerda yovvoyi

va uy hayvonlarini ko'rdik. Bir qafasda sher, yo'lbars bor edi. Boshqa qafasda maymunlar bor ekan. Ilonlar kichkina qafasda, laylak va burgut katta qafasda ekan.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: **M -n** tovushlarining talaffuzi; **edi, ekan** so'zlarini talaffuz qilish, ular bog'langan so'zlarni ko'chirib yozish va o'qish. Mavzuga oid maqol, topishmoq va tez aytishlarni to'g'ri ko'chirib yozish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. Mavzuga oid sodda gaplar tuzish. Tinglab yoki o'qib eslab qolingan matnning mazmunini so'zlash.

16. Ob-havo

Nutqiy mavzu: "Ob-havo" mavzusidagi tayanch so'zlar (ob-havo, ochiq, iliq, salqin, hozir, mayin shabada, muz, eriydi, isiydi, kechalari, kunduzi, osmon, qoplandi).

Tinglab tushunish: "Ob-havo" mavzusidagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, she'r, topshiriq. **-(a,y)di** qo'shimchali hozirgi-kelasi zamon fe'lining qo'llanishi.

Nutq namunalari: Ob-havo qanday? Hozir havo iliq. Kechqurunlari salqin. Ertalab havo ochiq, mayin shabada esadi. Kunduzi qattiq shamol bo'ldi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: vergulning ishlatilishi va ular qo'yilgan so'zlar ohangi; **-(a,y)di** qo'shimchali so'zlarni talaffuz qilish, yozish, o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid sodda savollarga javob berish.

17. Sport o'yinlari

Nutqiy mavzu: "Sport o'yinlari" mavzusidagi tayanch so'zlar (tozalik, tennis, sog'lik, o'ynamoq, to'p, kurash, yugurish, suzish, doimo, badantariya).

Tinglab tushunish: "Sport o'yinlari" mavzusidagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, topshiriq, she'r. **-ni** qo'shimchasining egalik shakllari bilan qo'llanishi.

Nutq namunalari: Lola qanday qiz? - Lola ozoda qiz. Po'lat ertalab doim tishini yuvadi. Sovun bilan qo'llarini yuvadi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: **B - p** tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslagan holda

o'qish. Egalik shakllari bilan kelgan **-ni** qo'shimchali so'zlarni talaffuz qilish, yozish, o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. Tinglab yoki o'qib eslab qolingan matnning asosiy mazmunini so'zlash.

18. Bahor keldi

Nutqiy mavzu: "Bahor keldi" mavzusidagi tayanch so'zlar (bahorda, boychechak, ochiladi, gullaydi, isiydi, gullar, binafsha, lola, atirgul, g'uncha, guldon, ko'chat, o'tqazadilar, varrak, gala-gala, ekiladi, uyg'onadi).

Tinglab tushunish: "Bahor keldi" mavzusidagi matn, suhbat, she'r. **-a(y)di, -iladi** qo'shimchali fe'llarning qo'llanishi.

Nutq namunalari: Bahorda kunlar isiydi. Gala-gala qushlar uchib keladi. Boychechak ochiladi. Bolalar varrak uchiradi. Tabiat uyg'onadi. Binafsha – bahor guli, u bahorda ochiladi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Chiziqchanning ishlatilishi, u qo'yilgan juft va takror so'zlar ohangi. **-a(y)di, -iladi** qo'shimchali fe'llarni talaffuz qilish, yozish va o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid sodda savollarga javob berish. "Dalada» rasmi asosida suhbatlashish.

19. 8-mart bayrami

Nutqiy mavzu: "8-mart bayrami" mavzusidagi tayanch so'zlar (umumxalq, tabriklaydi, sovg'a qiladi, yaxshi ko'radi, xolasiga, ammasiga, buvisiga, sog'lik-salomatlik, yordam beradi, mehribon).

Tinglab tushunish: "8-mart bayrami" mavzusidagi matn, suhbat, she'r. Birinchi shaxs buyruq-istak fe'lining qo'llanishi.

Nutq namunalari: — Bugun qanday kun? - Bugun 8-mart — onajonlar, buvijonlar, qizlar bayrami. — Men kimlarni tabriklay? Nima deb tabriklay? Qanday sovg'a beray? — Sizga sog'lik tilayman.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: undov belgisining ishlatilishi va u qo'yilgan gaplar ohangi. Birinchi shaxs buyruq-istak maylidagi so'zlarni talaffuz qilish, yozish va o'qish.

So'zlash: mavzuga oid sodda savollarga javob berish.

20. Assalom, Navro'z!

Nutqiy mavzu: "Assalom, Navro'z!" mavzusidagi tayanch so'zlar (tantanalar, ko'kat, dorbozlar, karnay-surnay, quvnoq, tingladik, sumalak, halim, milliy bog', sayil, ot o'yini, musobaqa).

Tinglab tushunish: “Assalom, Navro‘zi” mavzusidagi matn, suhbat, she‘r. **-dik** qo‘shimchali o‘tgan zamon fe‘lining qo‘llanishi.

Nutq namunalari: Navro‘zi olam keldi. Milliy bog‘da bayram tantanalari boshlandi. Karnay-surnay chalindi. Quvnoq qo‘shiqlarni tingladik. Keyin ko‘k somsa, sumalak va muzqaymoq yedik

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: Jarangsizlashgan tovushlar talaffuzi, **-dik** qo‘shimchali fe‘llarni talaffuz qilish, yozish va o‘qish.

So‘zlash: Mavzuga oid sodda savollarga javob berish. «Navro‘z taomlari» rasmi asosida suhbatlashish.

21. Bahorgi ishlar

Nutqiy mavzu: “Bahorgi ishlar” mavzusidagi tayanch so‘zlar (bahorda, dehqon, ko‘m-ko‘k, qip-qizil, haydaladi, ekiladi, bog‘bon, sug‘oradi, nihol, ko‘chat, ketmon, yumush, daraxt, tozalamoq).

Tinglab tushunish: “Bahorgi ishlar” mavzusidagi matn, suhbat, she‘r **-a(y)di, -iladi** qo‘shimchali fe‘llarning qo‘llanishi.

Nutq namunalari: Bahorda kunlar isiydi. Yer haydaladi, ekin ekiladi. Tabiat uyg‘onadi. Lolalar qip- qizil bo‘lib ochiladi. Dehqon ekin ekadi. Bobom bilan ko‘chat o‘tqazdik.

Talaffuz qilish, yozish va o‘qish: E –e tovushining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslagan holda o‘qish. Chiziqchanning ishlatilishi, u qo‘yilgan juft va takror so‘zlar ohangi.

-a(y)di, -iladi qo‘shimchali fe‘llarni talaffuz qilish, yozish va o‘qish.

So‘zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. “Dalada» rasmi asosida suhbat.

22. Ona shahrim

Nutqiy mavzu: “Ona shahrim ” mavzusidagi tayanch so‘zlar (shahar, go‘zal, zamonaviy, bugungi kunda, qurilyapti, juda, shoh ko‘cha, turar joy, teatr, sport majmualari, saroy, savdo markazlari, bozor).

Tinglab tushunish: “Ona shahrim ” mavzusidagi matn, suhbat, she‘r. **-ning** qaratqich kelishigi qo‘shimchasining qo‘llanishi.

Nutq namunalari: Men shu shaharda tug‘ilganman. U respublikamizning katta shahri. Shahrimizning ko‘chalari keng va ravon.

Ona shahrimda yangi-yangi turar joylar, bozorlar, maydonlar qurilyapti. Shaharning markazida go'zal teatr binosi bor.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: - *ning* qo'shimchali so'zlarni talaffuz qilish, yozish va o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid sodda savollarga javob berish.

23. Yo'l harakati

Nutqiy mavzu: "Yo'l harakati" mavzusidagi tayanch so'zlar (yo'ldan, harakat, mumkin, mumkin emas, yo'lovchi, to'xtash, kutib turish, kesib o'tish, haydovchi, qoida, piyoda).

Tinglab tushunish: "Yo'l harakati" mavzusidagi matn, suhbat. – *dan* qo'shimchali buyruq-istak fe'lining qo'llanishi.

Nutq namunalari: Men yo'l harakati qoidalarini bilaman. Svetoforning yashil chirog'ida yo'ldan o'tish mumkin. Qizil chiroqda to'xtash va kutish kerak. Bu ko'chadan juda ko'p mashinalar o'tadi. Maktabga kichik yo'lakdan piyoda boraman. Abror maktabga avtobusda keladi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: –*dan* qo'shimchali so'zlarni talaffuz qilish, yozish va o'qish; *mumkin, mumkin emas, kerak* so'zlari bilan bog'langan birikmalarni to'g'ri yozish va o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. «Chorrahada» rasmi asosida suhbat.

24. Yoz keldi

Nutqiy mavzu: "Yoz keldi" mavzusidagi tayanch so'zlar (o'qish, tugaydi, yozgi ta'til, oromgoh, maskan, qishloqqa, sayohat, tog'ga, chiniqadi, dam oladi).

Tinglab tushunish: "Yoz keldi" mavzudagi matn, suhbat, she'r. Istak bildirish va hayrlashishga oid so'z hamda jumlar.

Nutq namunalari: May oyida o'qish tugaydi. Yozgi ta'til boshlanadi. O'quvchilar turli joylarda dam olishga ketadilar. Men oromgohga boraman. Hamma toza havoda chiniqadi. Aziza esa onasi bilan sayohatga ketadi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Istak bildirish va hayrlashishga oid so'z hamda jumalarni talaffuz qilish, ko'chirib yozish va o'qish.

So'zlash: Mavzuga oid savollarga javob berish. «Yozda» rasmi asosida suhbat.

4-SINF

1. O'zbekiston – mening Vatanim

Nutqiy mavzu: "O'zbekiston-mening Vatanim" mavzusidagi tayanch so'zlar (obod, boy, bepoyon, ipak, ko'mir, tabiiy boyliklar, dunyoga, tinchlik, birdamlik, mashhur, ko'rkam, barqaror, mavjud).

Tinglab tushunish: "O'zbekiston - mening Vatanim" mavzusidagi matn, suhbat, she'r. Mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va munosabat bildirish.

Nutq namunalari: O'zbekiston – juda boy davlat. Unda gaz, neft, oltin, ko'mir kabi tabiiy boyliklar mavjud. Yurtim ipak va paxtasi bilan tanilgan. Men O'zbekistonda tug'ildim. Bu yurt men uchun muqaddas Vatan. Uning xalqi, tuprog'i, daryo va dashtlari, bog' va tog'lari menga aziz.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z hamda jumalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlab berish. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **egalik va qaratqich kelishigi** qo'shimchalarini qo'llash.

1. Qadrdon maktabim

Nutqiy mavzu: "Qadrdon maktabim" mavzusidagi tayanch so'zlar (qadrdon, sevimli, nechanchi?, birinchi.., to'rtinchi, chorshanbada, darsida, fan, tadbir, partadosh, maktabdosh, hurmat qilamiz).

Tinglab tushunish: "Qadrdon maktabim" mavzusidagi matn, shu mavzuda o'qilgan yoki tinglangan suhbat, she'r. Mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va munosabat bildirish.

Nutq namunalari: Maktabim men uchun juda qadrdon. Har kuni turli fanlardan qiziqarli mavzularni o'rganamiz. Bugun haftaning nechanchi kuni? Bugun haftaning birinchi kuni – dushanba. Bugun qanday darslar bo'ladi? – Bugun o'zbek tili, matematika va mehnat darslari bo'ladi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z va jumalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlab berish. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **egallik va tushum kelishigi** qo'shimchalarini qo'llash.

3. Bizning sinfimiz

Nutqiy mavzu: "Bizning sinfimiz" mavzusidagi tayanch so'zlar (bizning, uy daftari, sinf ishi, mustaqil o'qish, bajaramiz, yodlaymiz, eslab qolamiz, yoddan aytamiz, gapiramiz, navbatchi, tozalaydi).

Tinglab tushunish: "Bizning sinfimiz" mavzusidagi matn, shu mavzuda suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish.

Nutq namunalari: Bizning sinfimiz ikkinchi qavatda. Sinfimizda barcha o'quv qurollari va kitoblar bor. Sinf xonasini har kuni navbatchi tozalaydi. Bu qanday daftar? – Bu sinf daftari. Ana u-chi? – U esa lug'at.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: - **(i) miz** qo'shimchasini olgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z hamda jummalarni xatosiz yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlab berish. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ot so'zlarda - **(i)miz** qo'shimchasini qo'llash.

4. Bizning uyimiz

Nutqiy mavzu: "Bizning uyimiz" mavzusidagi tayanch so'zlar (uyimiz, hovli, bir qavatli, ayvon, yotoqxona, zina, yoqadi, tom, devor, gulzor, hammom, oshxona, bolalar xonasi).

Tinglab tushunish: "Bizning uyimiz" mavzudagi matn. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Taklif qilishga oid so'z va jumalalar.

Nutq namunalari: Biz uch xonali uyda yashaymiz. Oshxonamiz o'ng tomonda, mening xonam esa chap tomonda. Uyimiz juda shinam va yorug'. Sizni uyimizga taklif qilamiz. Qachon biznikiga kelasiz?

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; taklif qilishga oid so'z va jummalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlab berish. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda taklif qilishga oid so'z hamda jumalarni qo'llash.

5. Bog'da

Nutqiy mavzu: "Bog'da" mavzusidagi tayanch so'zlar (bog', dala hovli, bog'bon, pishgan, shox, mo'l, eng, terdik, shirin, mazali, o'rik, olma, xurmo, anor, uzum, olxo'ri, quti, soldik, uzdik).

Tinglab tushunish: "Bog'da" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va munosabat bildirish. Hisob so'zlari.

Nutq namunalari: Yakshanba kuni otam bilan dala hovlimizga bordik. U yerda katta bog'imiz bor. Bog'da hamma mevalar pishgan. Mana eng mazali xurmo. Men bir quti olma terdim. Bog'bon menga bir bosh uzum berdi, uni non bilan yedim.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni to'g'ri o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z va jumalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlab berish. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **hisob so'zlarini** qo'llash.

6. Kuzgi ishlar

Nutqiy mavzu: "Kuzgi ishlar" mavzusidagi tayanch so'zlar (kuzgi, hosilni yig'adilar, hosil bayrami, qishki kiyim, etik, palto, qo'lqop, qalpoq, tayyorgarlik, haydaydilar, issiqxona, ombor, mo'ri,).

Tinglab tushunish: "Kuzgi ishlar" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Ko'plik sondagi shaxs-son qo'shimchalari.

Nutq namunalari: Kuzgi ishlar boshlandi. Hamma qishga tayyorgarlik ko'radi. Onam menga qishki kiyimlar sotib oldilar. Dehqonlar ham qishga tayyorlanadilar.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z va jumalarni yozish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlab berish. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda **koʻplik sondagi shaxs-son qoʻshimchalarini** qoʻllash.

7. Bozorda

Nutqiy mavzu: "Bozorda" mavzusidagi tayanch soʻzlar (bozor, sabzavotlar, sholgʻom, koʻkatlar, quruq meva, yongʻoq, mayiz, yeryongʻoq, qancha, necha dona, necha soʻm, koʻrsating, tortib bering, bir bogʻ kashnich) .

Tinglab tushunish: "Bozorda" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Xarid qilishga oid muloqot birliklari.

Nutq namunalari: Onam bilan bozorga bordik. Bozorda turli sabzavotlar, hoʻl va quruq mevalar koʻp. Nokning kilosi necha soʻm? Nok uch ming soʻm. Bizga ikki kilo yongʻoq va bir kilo mayiz tortib bering. Hammasi necha soʻm boʻladi?

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni toʻgʻri oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; oʻrganilgan faol soʻz va jumalarni yozish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha mustaqil ravishda sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda **sanoq sonlar bilan kelgan hisob soʻzlarini** qoʻllash.

8. Oshxonada

Nutqiy mavzu: "Oshxonada" mavzusidagi tayanch soʻzlar (mazali milliy taomlar, palov, kabob, mastava, sharbat, shoʻr, tuzsiz, qovurilgan, achchiq).

Tinglab tushunish: "Bozorda" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Sifat + ekan tuzilishli feʼl shakllari.

Nutq namunalari: Biz oshxonada ovqatlandik. Men shoʻrva, qovurilgan kartoshka va choy oldim. Anvar mastava va somsa oldi. Qaysi sharbatdan ichasiz? Olma sharbatidan bering.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni toʻgʻri oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; oʻrganilgan faol soʻz va jumalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha mustaqil ravishda sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **“ekan”** so'zini sifatlar bilan bog'lab qo'llash.

9. Kiyim do'konida

Nutqiy mavzu: "Kiyim do'konida" mavzusidagi tayanch so'zlar (do'kon, ust kiyim, ipak mato, yoqali, ko'k rangli, tanladim, kiyaman, yoqtiraman).

Tinglab tushunish: "Kiyim do'konida" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va munosabat bildirish. Kiyimlarning materiali va rangini ifodalash.

Nutq namunalari: Onam bilan kiyim do'koniga bordim. Men paxtali ko'ylakni tanladim. Shu ko'ylakni sotib oldik. Uni ertaga maktabga kiyaman.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni to'g'ri o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z va jumalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini matnga tayangan holda so'zlash. Mavzu bo'yicha mustaqil ravishda sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **“sifat + ot”** bog'lanishli so'z birikmalarini qo'llash.

10. Sport, sport, sport

Nutqiy mavzu: "Sport, sport, sport" mavzusidagi tayanch so'zlar (sport turlari, suzish, yugurish, badiiy gimnastika, kurash, mashq qilish, toza havo, sport anjomlari, chiniqtiradi, shug'ullanish).

Tinglab tushunish: "Sport, sport, sport" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. **-ish** qo'shimchasi bilan yasalgan sport turlari.

Nutq namunalari: Sport bilan shug'ullanish kerak. Sport bolalarni chiniqtiradi. Men badiiy gimnastika bilan shug'ullanaman. Keling, biz bilan voleybol o'ynashni mashq qiling.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: **-ish** qo'shimchali so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni to'g'ri o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z hamda jumalarni xatosiz yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda – **ish** qo'shimchali harakat nomlarini qo'llash.

11. Salom, yangi yil!

Nutqiy mavzu: "Salom, yangi yil!" mavzusidagi tayanch so'zlar (ko'm-ko'k, bezatilgan, atrofida, davraga, masxaraboz, sehrli xalta, rangli chiroq, aylandik, raqsga tushdik, tomosha qildik).

Tinglab tushunish: "Salom, yangi yil" mavzusidagi matn, suhbat, she'r. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, munosabat bildirish. Ko'plik sondagi **-k** tuslovchi qo'shimchasini olgan fe'llar.

Nutq namunalari: Yangi yil keldi. O'quvchilar ta'tilga chiqdilar. Otam bilan shahrimizning bosh maydoniga bordik. Maydonda baland archani tomosha qildik. Ko'm-ko'k archa chiroyli bezatilgan ekan. Uning atrofida Qorqiz va Qorboboni ham ko'rdik.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish; o'rganilgan faol so'z va jumalarni yozish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda *fe'lni II- shaxs ko'plik sonda* qo'llash.

12. Qish o'yinlari

Nutqiy mavzu: "Qish o'yinlari" mavzusidagi tayanch so'zlar (qorbo'ron, zavqli, qalin, tepalik, muz ustida, uchdi, yasashdi, quvlashdi, bir-biriga).

Tinglab tushunish: "Qish o'yinlari" mavzusidagi matn, suhbat, she'r. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va unga munosabat bildirish. **-(i)sh** qo'shimchasi orqali harakatning birgalikda bajarilganligini ifodalash.

Nutq namunalari: Qalin qor yog'di. Hamma yoq oppoq qor. Hamma bolalar hovliga to'plandik. Katta bolalar qorbo'ron o'ynashdi. Lola bilan Nodira Qorbobo yasashdi. O'g'il bolalar bir-birlarini quvlashdi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlab berish. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda harakatning birgalikda bajarilganligini ifodalovchi **-(i)sh** qoʻshimchasini qoʻllash.

13. Kasblar

Nutqiy mavzu: “Kasblar” mavzusidagi tayanch soʻzlar (kasb, hunar, boʻlib ishlaydi, shifokor, duradgor, muhandis, hamshira, oshpaz, rassom, egallash, qiziqish, orzu qilaman).

Tinglab tushunish: “Kasblar” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va unga munosabat bildirish. “uchun” koʻmakchisining harakat nomlari bilan ishlatilishi.

Nutq namunalari: Bu kishining kasbi nima? – U kishining kasbi shifokor. Akang nima uchun oʻqiyapti? – Akam muhandis boʻlish uchun oʻqiyapti. Siz kim boʻlishni istaysiz? – Men rassom boʻlishni orzu qilaman.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni toʻgʻri oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish;

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda **“uchun”** koʻmakchisini harakat nomlari bilan birga qoʻllash.

14. Kitobni asrang

Nutqiy mavzu: “Kitobni asrang” mavzusidagi tayanch soʻzlar (asrash, bilim, xazina, haqida, muqova, maʼlumot, xotira, soha, saqla, ehtiyot qil, mazmun).

Tinglab tushunish: “Kitobni asrang” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. *Haqida* koʻmakchisining ishlatilishi.

Nutq namunalari: Kitob bilimlarimizni oshiradi. Undan turli sohalar haqida maʼlumotlar olamiz. Mana bu kitobda hayvonlar haqida qiziqarli maʼlumotlar bor. Kitobni ehtiyot qil va toza tut.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni toʻgʻri oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **“haqida”** ko'makchisini qo'llash.

15. Orasta bo'ling

Nutqiy mavzu: “Orasta bo'ling” mavzusidagi tayanch so'zlar (orasta, tozalik, tirnoq, iflos, toza tuting, har doim, yuvib yuring, dazmollab kiying, sog'liq garovi, havasi keladi, amal qiling).

Tinglab tushunish: “Orasta bo'ling” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. -lik qo'shimchisining ishlatilishi.

Nutq namunalari: Orasta bo'lishni hamma yoqtiradi. Chunki tozalik – sog'lik garovi. Shuning uchun har doim ozodalikka amal qiling. Qo'llarni doim sovun bilan yuvish kerak. Tishingizni ertalab va kechqurun yuving.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda -lik qo'shimchali so'zlarni qo'llash.

16. Yil fasllari va ob-havo

Nutqiy mavzu: “Yil fasllari va ob-havo” mavzusidagi tayanch so'zlar (yilda, fasl, har xil, har kuni, har oyda, yozda, qishda, kuzdan keyin, bahordan oldin, harorat, esa, o'ziga xos).

Tinglab tushunish: “Yil fasllari va ob-havo” mavzudagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish; *oldin, keyin* ko'makchilarining ishlatilishi.

Nutq namunalari: Bir yilda to'rt fasl bor. Qishdan keyin bahor keladi. Har faslning o'ziga xos ob-havosi bo'ladi. Yozda kunlar juda issiq, qishda juda sovuq bo'ladi. Kuzda havo salqin, bahorda iliq bo'ladi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda **oldin, keyin** ko'makchilarini qo'llash.

17. Xotin-qizlar bayrami

Nutqiy mavzu “Xotin-qizlar bayrami” mavzusidagi tayanch so'zlar (xotin-qizlar, qadrli, guldasta singil, tabriklaydilar, tilaydilar, sovg'a beradilar, mehmon, sog'lik, baxt, uzoq umr).

Tinglab tushunish: “Xotin-qizlar bayrami” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Hozirgi- kelasi zamon fe'lining ishlatilishi.

Nutq namunalari: 8-mart xotin-qizlar bayrami. Bu kun hamma buvijoni, onajoni, opa-singillarini tabriklaydi. Ularga har xil sovg'alar beradilar. Barcha xotin-qizlarga sog'lik, baxt va uzoq umr tilaydilar. Bugun buvijonimni tabriklash uchun mehmonlar keladi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid hozirgi-kelasi zamon fe'llarini to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni to'g'ri o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda hozirgi-kelasi zamon fe'li qo'shimchalarini qo'llash.

18. Bahorda

Nutqiy mavzu: “Bahorda” mavzusidagi tayanch so'zlar (isidi, uzaydi, eridi, maysalar ko'kardi, kurtak yozdi, ekin ekish, yer haydash, gulladi, uyg'ondi).

Tinglab tushunish: “Bahorda” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. O'tgan zamon fe'lining ishlatilishi.

Nutq namunalari: Bahor fasli boshlandi. Kunlar isidi va qorlar eridi. Maysalar ko'kardi, daraxtlar kurtak yozdi. Hasharotlar uyg'ondi va qushlar uchib keldi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: O'tgan zamon fe'llarini to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni to'g'ri o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda o'tgan zamon fe'llarini qo'llash.

19. Navro'zi olam keldi

Nutqiy mavzu: "Navro'zi olam keldi" mavzusidagi tayanch so'zlar (qadimdan, shod, yil boshi, qariyalar, ziyorat, mehr-muruvvat, xabar olinadi, bahor taomi, tozalanadi, hashar, xalq sayli).

Tinglab tushunish: "Navro'zi olam keldi" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Egallik va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalarining birga qo'llanishi.

Nutq namunalari: Mana, Navro'zi olam keldi. Yurtimizda shodlik va mehr-muruvvat kunlari boshlandi. Qarindoshlar bir-birlarini ziyorat qiladilar. Ko'cha, hovli va uylar tozalanadi. Mahallalarda bahor taomlari pishiriladi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Mavzuga oid ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

So'zlash: Tinglash va o'qish asosida o'rganilgan matnning asosiy mazmunini so'zlash. Mavzu bo'yicha sodda yig'iq gaplar tuzish, ularda (egallik va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalarini qo'llash).

20. Qushlar va hasharotlar

Nutqiy mavzu: "Qushlar va hasharotlar" mavzusidagi tayanch so'zlar (sa'va, zog'cha, uchib keldi, sayrash, uya, eshitiladi, aylanadi, hasharotlar, qaldirg'och, chumchuq, chumoli, chivin, kapalak, asalari, janubdan).

Tinglab tushunish: "Qushlar va hasharotlar" mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Egallik va chiqish kelishigi qo'shimchalarining birga qo'llanishi.

Nutq namunalari: Bahorda janubdan qushlar uchib keladi. Hovlilardan qaldirg'ochlarning ovozi eshitiladi. Hasharotlar ham uyalaridan chiqadilar. Sa'va, zog'cha, chumchuqlar hasharotlarni yeydi.

Talaffuz qilish, yozish va o'qish: Qush va hasharot nomlarini to'g'ri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni to'g'ri o'qish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda *egalik va chiqish kelishigi* qoʻshimchalarini qoʻllash.

21. Oila aʼzolarining ish kuni

Nutqiy mavzu: “Oila aʼzolarining ish kuni” mavzusidagi tayanch soʻzlar (aʼzo, ish kuni, barvaqt, oʻqish, ish, korxonona, shifoxona, bogʻcha, boradi, ishlaydi, kechki ovqat, dam oladi, badantarbiya, suhbatlashamiz).

Tinglab tushunish: “Oila aʼzolarining ish kuni” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va munosabat bildirish. Egallik va joʻnalish kelishigi qoʻshimchalarining birga qoʻllanishi.

Nutq namunalari: Hammamiz ertalab barvaqt uygʻonamiz. Badantarbiyadan keyin nonushta qilamiz. Otam kichik korxonasiga, onam shifoxonaga ishga ketadilar. Akam universitetga oʻqishga ketadi. Men maktabga boraman. Kechqurun dasturxon atrofida yigʻilamiz.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda *egallik va joʻnalish kelishigi* qoʻshimchalarini qoʻllash.

22. Tinchlik barqaror boʻlsin!

Nutqiy mavzu: “Tinchlik barqaror boʻlsin!” mavzusidagi tayanch soʻzlar (tinchlik, barqaror, dunyo, vayron, yetim, koʻpaymasin, halok boʻladi, xotira, hech kim, qahramon).

Tinglab tushunish: “Tinchlik barqaror boʻlsin!” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, unga munosabat bildirish. Buyruq-istak maylining *-sin, -masin* qoʻshimchalari.

Nutq namunalari: Yurtimizda tinchlik barqaror boʻlsin! Ana shunda har bir oilada xotirjamlik boʻladi. Hech kim urushni istamaydi. Chunki urush uylarni vayron qiladi, odamlar halok boʻladi. Har yili ustozimiz bizlarni xotira maydoniga olib boradilar.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda Buyruq-istak maylining **-sin, -masin** qoʻshimchalarini qoʻllash.

23. Poytaxtimiz chiroyi

Nutqiy mavzu: “Poytaxtimiz chiroyi” mavzusidagi tayanch soʻzlar (chiroy, chet ellik sayyohlar, tarixiy obidalar, zamonaviy binolar, qurilish, kun sayin, goʻzal).

Tinglab tushunish: “Poytaxtimiz chiroyi” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish va munosabat bildirish. Koʻplik sondagi ikinchi shaxs buyruq-istak maylining maʼnolari.

Nutq namunalari: Poytaxtimiz chiroyi dunyoga tanilgan. Har kuni Toshkentga sayyohlar keladi. Ularga “Shahrimizga xush kelibsiz!” deymiz.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzudagi matnni toʻgʻri oʻqish, mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda **koʻplik sondagi ikkinchi shaxs buyruq-istak maylini** qoʻllash.

24. Yozgi taʼtil

Nutqiy mavzu: “Yozgi taʼtil” mavzusidagi tayanch soʻzlar (yozgi, birga, oromgoh, zerikmaymiz, doʻstlashamiz, oʻyingoh, koʻpchilik, baʼzi, chiniqamiz, taassurot, esdalik, qaytadilar).

Tinglab tushunish: “Yozgi taʼtil” mavzusidagi matn, suhbat, topshiriq. Shu mavzu doirasidagi suhbatlarni tushunish, munosabat bildirish. Koʻplik sondagi III shaxs qoʻshimchalari.

Nutq namunalari: Yozgi taʼtilda nima qilasis? – Taʼtilda oromgohga boraman. U yerda bolalar bilan doʻstlashamiz. Toza havo va quyoshda chiniqamiz. Baʼzi bolalar taʼtilda ota-onalari bilan sayohatga boradilar. Hamma bolalar yozgi taʼtildan yaxshi taassurotlar bilan qaytadilar.

Talaffuz qilish, yozish va oʻqish: Mavzuga oid koʻp boʻgʻinli soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va yozish. Shu mavzuda tinglangan yoki oʻqilgan matnni oʻqish, uning mazmunini yozma ravishda qisqacha bayon etish.

Soʻzlash: Tinglash va oʻqish asosida oʻrganilgan matnning asosiy mazmunini soʻzlash. Mavzu boʻyicha sodda yigʻiq gaplar tuzish, ularda **koʻplik sondagi III shaxs qoʻshimchalarini** qoʻllash.

5-sinf

1. Mening Vatanim (2 soat)

O'qish: “Mening Vatanim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. Kishilik va ko'rsatish olmoshlarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Mening Vatanim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: “Mening Vatanim” mavzusida o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, mavzu obyekt yoki predmetiga qarab so'zlash. Hol-ahvol so'rash. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari qatnashgan savollarga javob berish.

Yozish: “Mening Vatanim” mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Kishilik va ko'rsatish olmoshlarini to'g'ri yozish.

Grammatika: Olmosh. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari.

2. Sport o'yinlari (2 soat)

O'qish: “Sport o'yinlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. So'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Sport o'yinlari ” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: “Sport o'yinlari” mavzusida o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'rganilayotgan mavzu obyekt yoki predmetiga qarab so'zlash. So'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari qatnashgan savollarga javob berish. Hol-ahvol so'rashga javob.

Yozish: “Sport o'yinlari” mavzusiga oid faol so'zlarni yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. So'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarini to'g'ri yozish.

Grammatika: So'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari.

3. Yangi fanlarni o'rganamiz (3 soat)

O'qish: “Yangi fanlarni o'rganamiz” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni o'qish. Belgilash olmoshlarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Yangi fanlarni o‘rganamiz” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm–tasvir, o‘quv filmi kadri, o‘rganilayotgan mavzu obyektini yoki predmetiga qarab so‘zlash. Belgilash olmoshlari qatnashgan sodda savollarga javob berish.

Yozish: “Yangi fanlarni o‘rganamiz” mavzusiga oid faol so‘zlarni ko‘chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Belgilash olmoshlarini to‘g‘ri yozish.

Grammatika: Belgilash olmoshlari.

4. Uztozga rahmat (2 soat)

O‘qish: “Ustozga rahmat” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish. Ko‘plik qo‘shimchasini to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘qish.

Tinglab tushunish: “Ustozga rahmat” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm–tasvir, o‘quv filmi kadri, o‘rganilayotgan mavzu obyektini yoki predmetiga qarab so‘zlash. Ko‘plik qo‘shimchasi qatnashgan savollarga javob berish. Murojaat etish.

Yozish: “Ustozga rahmat” mavzusiga oid faol so‘zlarni ko‘chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Ko‘plik qo‘shimchasini to‘g‘ri yozish.

Grammatika: *-lar* ko‘plik qo‘shimchasining ishlatilishi.

5. Mening sinfdoshlarim (2 soat)

O‘qish: “Mening sinfdoshlarim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish. O‘qishda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z urg‘usi va gap ohangiga e‘tibor berish. Egallik qo‘shimchalarini to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘qish.

Tinglab tushunish: “Mening sinfdoshlarim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm–tasvir, o‘rganilayotgan mavzu obyektini yoki predmetiga qarab so‘zlash. Egallik qo‘shimchalari qatnashgan savollarga javob berish. Inkori etish.

Yozish: “Mening sinfdoshlarim” mavzusiga oid faol soʻzlarni yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Egalik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozish.

Grammatika: Egalik qoʻshimchalari.

6. Mening doʻstim (2 soat)

Oʻqish: “Mening doʻstim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqish. Oʻqishda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish. Qaratqich kelishigi qoʻshimchsini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Mening doʻstim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish, oʻrganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab soʻzlash. Qaratqich kelishigi qoʻshimchasi qatnashgan sodda savollarga javob berish. Rozilik berish.

Yozish: “Mening doʻstim” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Qaratqich kelishigi qoʻshimchasini toʻgʻri yozish.

Grammatika: Qaratqich kelishigining qoʻllanishi.

7. Oʻzbek tili xonasida (2 soat)

Oʻqish: “Oʻzbek tili xonasida” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqish. Oʻqishda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish. Egalik va qaratqich kelishigi qoʻshimchalarini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Oʻzbek tili xonasida” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, oʻrganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab soʻzlash. Egalik va qaratqich kelishigi qoʻshimchalari qatnashgan sodda savollarga javob berish. Murojaatga javob.

Yozish: “Oʻzbek tili xonasida” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Egalik va qaratqich kelishigi qoʻshimchalarini toʻgʻri yozish.

Grammatika: Egalik va qaratqich kelishigi qoʻshimchalarining birga qoʻllanishi.

8. Oltin kuz (3 soat)

O'qish: “Oltin kuz” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. Tushum kelishigi qo'shimchasini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Oltin kuz” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, o'rganilayotgan mavzu obyekti yoki predmetiga qarab so'zlash. Tushum kelishigi qo'shimchasi qatnashgan savollarga javob berish. E'tiroz bildirish.

Yozish: “Oltin kuz” mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Tushum kelishigi qo'shimchasini to'g'ri yozish.

Grammatika: Tushum kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi.

9. Kun tartibim (2 soat)

O'qish: “Kun tartibim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Kun tartibim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, o'rganilayotgan mavzu obyekti yoki predmetiga qarab so'zlash. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi qatnashgan savollarga javob berish. Axloq-odob qoidalari.

Yozish: “Kun tartibim” mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini to'g'ri yozish.

Grammatika: O'rin-payt kelishigining qo'llanishi.

10. Mening darsxonam (2 soat)

O'qish: “Mening darsxonam” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Mening darsxonam” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o‘quv filmi kadri, o‘rganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab so‘zlash. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qatnashgan sodda savollarga javob berish. Axloq-odob qoidalari.

Yozish: “Mening darsxonam” mavzusiga oid faol so‘zlarni ko‘chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini to‘g‘ri yozish.

Grammatika: Jo‘nalish kelishigining qo‘llanishi.

11. Dam olish kunim (2 soat)

O‘qish: “Dam olish kunim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish. O‘qishda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z urg‘usi va gap ohangiga e‘tibor berish. Chiqish kelishigidagi so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘qish.

Tinglab tushunish: “Dam olish kunim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o‘quv filmi kadri, o‘rganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab so‘zlash. Chiqish kelishigidagi so‘z qatnashgan sodda savollarga javob berish. Axloq-odob qoidalari.

Yozish: “Dam olish kunim” mavzusiga oid faol so‘zlarni ko‘chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Chiqish kelishigidagi so‘zni to‘g‘ri yozish.

Grammatika: Chiqish kelishigining qo‘llanishi.

12. Ertaklar olamida (3 soat)

O‘qish: “Ertaklar olamida” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish. O‘qishda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z urg‘usi va gap ohangiga e‘tibor berish. O‘tgan zamon hikoya fe‘llarini to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘qish.

Tinglab tushunish: “Ertaklar olamida” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o‘quv filmi kadri, o‘rganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab so‘zlash. Hol-ahvol so‘rash. O‘tgan zamon hikoya fe‘li qatnashgan savollarga javob berish. Inkori etish.

Yozish: “Ertaklar olamida” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Oʻtgan zamon hikoya feʼllarini toʻgʻri yozish.

Grammatika: Oʻtgan zamon hikoya feʼli.

13. Taʼtil taassurotlari (2 soat)

Oʻqish: Taʼtil taassurotlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqish. Oʻqishda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish. Oʻtgan zamon aniq feʼllarini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Taʼtil taassurotlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, oʻquv filmi kadri, oʻrganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab soʻzlash. Oʻtgan zamon aniq feʼli qatnashgan sodda savollarga javob berish. Tasdiqlash.

Yozish: “Taʼtil taassurotlari” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Oʻtgan zamon aniq feʼlini toʻgʻri yozish.

14. Uy jihozlari (2 soat)

Oʻqish: “Uy jihozlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqish. Oʻqishda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish. Rang-tus va maza-taʼmni bildiruvchi sifatlarni toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Uy jihozlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, oʻquv filmi kadri, oʻrganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab soʻzlash. Rang-tus va maza-taʼmni bildiruvchi sifatlar qatnashgan sodda savollarga javob berish. Istak bildirish.

Yozish: “Uy jihozlari” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Rang-tus va maza-taʼmni bildiruvchi sifatlarni toʻgʻri yozish.

Grammatika: Rang-tus va maza-taʼmni bildiruvchi sifatlar.

15. Mashhur kishilar (3 soat)

O'qish: “Mashhur kishilar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. Hajm-o'lchov sifatlarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Mashhur kishilar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, o'rganilayotgan mavzu obyeksi yoki predmetiga qarab so'zlash. Hajm-o'lchov sifatleri qatnashgan savollarga javob berish. Ma'qullash.

Yozish: “Mashhur kishilar” mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Hajm-o'lchov sifatlarini to'g'ri yozish.

Grammatika: Hajm-o'lchov sifatleri.

16. Odobli bo'l (2 soat)

O'qish: “Odobli bo'l” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Odobli bo'l” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, o'rganilayotgan mavzu obyeksi yoki predmetiga qarab so'zlash. Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar qatnashgan savollarga javob berish. Telefonda murojaat qilish.

Yozish: “Odobli bo'l” mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlarini to'g'ri yozish.

Grammatika: Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar.

17. Ko'cha qoidalari (3 soat)

O'qish: “Ko'cha qoidalari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. Shakl-ko'rinishni bildiruvchi sifatlarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: “Ko‘cha qoidalari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o‘quv filmi kadri, o‘rganilayotgan mavzu obyektini yoki predmetiga qarab so‘zlash. Shakl- ko‘rinishni bildiruvchi sifatlar qatnashgan sodda savollarga javob berish. Axloq-odob qoidalari.

Yozish: “Ko‘cha qoidalari” mavzusiga oid faol so‘zlarni ko‘chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sifatlarni to‘g‘ri yozish.

Grammatika: Shakl-ko‘rinishni bildiruvchi sifatlar.

18. Assalom, bahor! (2 soat)

O‘qish: “Assalom, bahor!” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish. O‘qishda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z urg‘usi va gap ohangiga e‘tibor berish. Dona va taqsim sonlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘qish.

Tinglab tushunish: “Assalom, bahor!” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o‘quv filmi kadri, mavzu obyektini yoki predmetiga qarab so‘zlash. Dona va taqsim sonlar qatnashgan sodda savollarga javob berish.

Yozish: “Assalom, bahor!” mavzusiga oid faol so‘zlarni ko‘chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Dona va taqsim sonlarni to‘g‘ri yozish.

Grammatika: Sanoq son. Dona va taqsim sonlar.

19. Bahor bayramlari (3 soat)

O‘qish: “Bahor bayramlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish. O‘qishda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z urg‘usi va gap ohangiga e‘tibor berish. Tartib sonlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘qish.

Tinglab tushunish: “Bahor bayramlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o‘quv filmi kadri, mavzu obyektini yoki predmetiga qarab so‘zlash. Tartib sonlar qatnashgan sodda savollarga javob berish. Tabriklash.

Yozish: “Bahor bayramlari” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. Tartib sonlarni toʻgʻri yozish.

Grammatika: Tartib son.

20. Shahar boʻylab sayohat (2 soat)

Oʻqish: “Shahar boʻylab sayohat” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqish. Oʻqishda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish; *va, hamda* bogʻlovchilari qatnashgan soʻz qoʻshilmalarini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Shahar boʻylab sayohat” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, oʻquv filmi kadri, oʻrganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab soʻzlash; *va, hamda* bogʻlovchilari qatnashgan sodda savollarga javob berish. Taklif etish.

Yozish: “Shahar boʻylab sayohat” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish; *va, hamda* bogʻlovchilari qatnashgan soʻz qoʻshilmalarini toʻgʻri yozish.

Grammatika; *va, hamda* bogʻlovchilarining qoʻllanishi.

21. Qadimiy shaharlar (3 soat)

Oʻqish: “Qadimiy shaharlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqish. Oʻqishda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish. *bilan, uchun* koʻmakchilarini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Qadimiy shaharlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, oʻquv filmi kadri, oʻrganilayotgan mavzu obykti yoki predmetiga qarab soʻzlash. *bilan, uchun* koʻmakchilari qatnashgan sodda savollarga javob berish.

Yozish: “Qadimiy shaharlar” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. *bilan, uchun* koʻmakchilarini toʻgʻri yozish.

Grammatika: *bilan, uchun* koʻmakchilarining ishlatilishi.

22. To'garak mashg'ulotlari (2 soat)

O'qish: "To'garak mashg'ulotlari" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. -*yap* qo'shimchali hozirgi zamon fe'llarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: "To'garak mashg'ulotlari" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, o'rganilayotgan mavzu obyekt yoki predmetiga qarab so'zlash. -*yap* qo'shimchali hozirgi zamon fe'llari qatnashgan sodda savollarga javob berish. Kechirim so'rash.

Yozish: "To'garak mashg'ulotlari" mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. -*yap* qo'shimchali hozirgi zamon fe'llarini to'g'ri yozish.

Grammatika: -*yap* qo'shimchali hozirgi zamon fe'lining tuslanishi.

23 . Transportda (2 soat)

O'qish: "Transportda" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usi va gap ohangiga e'tibor berish. *ma, -may* qo'shimchali bo'lishsiz fe'llarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qish.

Tinglab tushunish: "Transportda" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, o'quv filmi kadri, o'rganilayotgan mavzu obyekt yoki predmetiga qarab so'zlash. *ma, -may* qo'shimchali bo'lishsiz fe'llari qatnashgan sodda savollarga javob berish. Transportda yurish odobi.

Yozish: "Transportda" mavzusiga oid faol so'zlarni ko'chirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. *ma, -may* qo'shimchali bo'lishsiz fe'llarni to'g'ri yozish.

Grammatika: *ma, -may* qo'shimchali bo'lishsiz fe'llarning ishlatilishi.

24 . Ta'til rejalari (2 soat)

O'qish: "Ta'til rejalari" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish. O'qishda tovushlarni to'g'ri

talaffuz qilish, soʻz urgʻusi va gap ohangiga eʼtibor berish. II shaxs buyruq-istak maylidagi feʼllarini toʻgʻri talaffuz qilish va oʻqish.

Tinglab tushunish: “Taʼtil rejalari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Rasm-tasvir, oʻquv filmi kadri, oʻrganilayotgan mavzu obyekti yoki predmetiga qarab soʻzlash. II shaxs buyruq-istak maylidagi feʼl qatnashgan savollarga javob berish.

Yozish: “Taʼtil rejalari” mavzusiga oid faol soʻzlarni koʻchirib yozish. Shu mavzu doirasida gaplar tuzish. II shaxs buyruq-istak maylidagi feʼllarini toʻgʻri yozish.

Grammatika: II shaxs buyruq-istak maylidagi feʼllarning qoʻllanishi.

Jami dars mashgʻulotlari	- 55 soat
Takrorlash	- 5 soat
Nazorat ishlari	- 8 soat
Jami	- 68 soat

6-SINF

1. Obod oʻlkam (2 soat)

Oʻqish: “Obod oʻlkam” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallar va yangi soʻzlarni toʻgʻri, oʻrtacha tezlikda va ravon oʻqish. Aniq va mavhum otlarni toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: “Obod oʻlkam” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Oʻqituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bogʻliq topshiriq va fikrlarini toʻliq tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida soʻzlab berish.

Yozish: Aniq va mavhum otlarni toʻgʻri yozish. Oʻzlashtirilgan grammatik bilimlar asosida shu mavzuda gaplar tuzish, ularni oʻzbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: Aniq va mavhum otlarining ishlatilishi.

2. Oromgohda (2 soat)

Oʻqish: “Oromgohda” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri, oʻrtacha tezlikda va ravon oʻqish. Oʻrin-joy otlarini yasovchi qoʻshimchalarni toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: “Oromgohda” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: O'rin-joy otlarini yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: O'rin-joy otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi.

3. Bilim – xazina(3 soat)

O'qish: “Bilim - xazina” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Kasb-hunar otlarini yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Bilim-xazina” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Kasb-hunar otlarini yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi.

4. Sinf rahbari(2 soat)

O'qish: “Sinf rahbari ” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Narsa-buyum otlarini yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Sinf rahbari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Narsa-buyum otlarini yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Narsa-buyum otlari, ularning yasalishi va qo'llanishi.

5. Adabiyot muzeyida(3 soat)

O'qish: "Adabiyot muzeyida" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: "Adabiyot muzeyida" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Otlarda *-day, -dek, kabi, xuddi* shakllarining ishlatilishi.

6. Men sevgan ko'rsatuv(2 soat)

O'qish: "Men sevgan ko'rsatuv" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish, egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik olmoshlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: "Men sevgan ko'rsatuv" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik olmoshlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Egalik qo'shimchalari bilan kelgan o'zlik olmoshlarining ishlatilishi.

7. Kuzgi ne'matlar (2 soat)

O'qish: “Kuzgi ne'matlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan bo'lishsizlik olmoshlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Kuzgi ne'matlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan bo'lishsizlik olmoshlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan bo'lishsizlik olmoshlarining ishlatilishi.

8. Kutubxonada (2 soat)

O'qish: “Kutubxonada” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Kutubxonada” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Kelishik qo'shimchalari bilan kelgan gumon olmoshlarining ishlatilishi.

9. Qadimiy va navqiron shaharlar (3 soat)

O'qish: “Qadimiy va navqiron shaharlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Ozaytirma darajadagi sifatlarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Qadimiy va navqiron shaharlar ” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O‘qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog‘liq topshiriq va fikrlarini to‘liq tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali o‘rganilgan voqea-hodisalarning belgi-xususiyati haqida so‘zlab berish.

Yozish: Ozaytirma darajadagi sifatlarni to‘g‘ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o‘rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Ozaytirma darajadagi sifatlarning qo‘llanishi.

10. Tabiat va iqlim(2 soat)

O‘qish: “Tabiat va iqlim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, o‘rtacha tezlikda va ravon o‘qish. Orttirma darajadagi sifatlarni to‘g‘ri o‘qish.

Tinglab tushunish: “Tabiat va iqlim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O‘qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog‘liq topshiriq va fikrlarini to‘liq tushunish.

So‘zlash: O‘rganilayotgan mavzuda o‘zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali o‘rganilgan voqea-hodisalarning belgi-xususiyati haqida so‘zlab berish.

Yozish: Orttirma darajadagi sifatlarni to‘g‘ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o‘rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Orttirma darajadagi sifatlarning qo‘llanishi.

11. Chimyon tog‘larida (2 soat)

O‘qish: “Chimyon tog‘larida” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to‘g‘ri, o‘rtacha tezlikda va ravon o‘qish. Chama sonlarni to‘g‘ri o‘qish.

Tinglab tushunish: “Chimyon tog‘larida” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O‘qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog‘liq topshiriq va fikrlarini to‘liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali o'rganilgan voqea-hodisalar miqdorini so'zlab berish.

Yozish: Chama sonlarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Chama sonlarning yasalishi va qo'llanishi.

12. Yangi yil rejasi(2 soat)

O'qish:“Yangi yil rejasi” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Jamlovchi sonlarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Yangi yil rejasi” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar miqdorini so'zlab berish.

Yozish: Jamlovchi sonlarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Jamlovchi sonlarning yasalishi va qo'llanishi.

13. Ona yurt posbonlari (2 soat)

O'qish: “Ona yurt posbonlari ” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Butun va kasr sonlarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Ona yurt posbonlari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalarning miqdori haqida so'zlab berish.

Yozish: Butun va kasr sonlarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Butun va kasr sonlarning yasalishi va qo'llanishi.

14. Sport – salomatlik garovi (2 soat)

O'qish: “Sport - salomatlik garovi” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Daraja-miqdor ravishlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Sport - salomatlik garovi” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Daraja-miqdor ravishlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Daraja-miqdor ravishlarining ishlatilishi.

15. Salomatlik – tuman boylik (2 soat)

O'qish: “Salomatlik – tuman boylik” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Haqida, to'g'risida ko'makchilarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Salomatlik – tuman boylik” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Haqida, to'g'risida ko'makchilarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Haqida, to'g'risida ko'makchilarining ishlatilishi.

16. Buyuk allomalarimiz (3 soat)

O'qish: “Buyuk allomalarimiz” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Vaqtini ifodalovchi birikmalarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Buyuk allomalarimiz” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalarning payti haqida so'zlab berish.

Yozish: Vaqtni ifodalovchi birikmalarni to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Vaqtning ifodalanishi.

17. Bahorgi ishlar (2 soat)

O'qish: “Bahorgi ishlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Payt ravishlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Bahorgi ishlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalarning o'rni haqida so'zlab berish.

Yozish: Payt ravishlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Ravish. Payt ravishlarining yasalishi va ishlatilishi.

18. Milliy taomlar (2 soat)

O'qish: “Milliy taomlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Holat (tarz) ravishlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Milliy taomlar” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar darajamiqdori haqida so'zlab berish.

Yozish: Holat (tarz) ravishlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Holat (tarz) ravishlarining yasalishi va ishlatilishi.

19. Navro'z udumlari (3 soat)

O'qish: "Navro'z udumlari" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. O'rin ravishlarini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: "Navro'z udumlari" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalarning qay tarzda sodir bo'lganligi haqida so'zlab berish.

Yozish: O'rin ravishlarini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: O'rin ravishlarining yasalishi va ishlatilishi.

20. Dam olish kuni (2 soat)

O'qish: "Dam olish kuni" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. Hozirgi-kelasi zamon fe'lini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: "Dam olish kuni" matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: Hozirgi-kelasi zamon fe'lini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalishi va ishlatilishi.

21. Ona shahrim (2 soat)

O'qish: “Ona shahrim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. *-moqda* qo'shimchali hozirgi zamon fe'lini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Ona shahrim” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: *-moqda* qo'shimchali hozirgi samon fe'lini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: *-moqda* qo'shimchali hozirgi zamon fe'lining ishlatilishi.

22. Buyuk astronom (2 soat)

O'qish: “Buyuk astronom” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. *-ar edi* shaklli o'tgan zamon davom fe'lini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Buyuk astronom” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: *-ar edi* shaklli o'tgan zamon davom fe'lini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: *-ar edi* shaklli o'tgan zamon fe'lining tuslanishi va ishlatilishi.

23. Bobom xotiralari (2 soat)

O'qish: “Bobom xotiralari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. *-gan edi* shaklli o'tgan zamon fe'lini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “Bobom xotiralari” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: *-gan edi* shaklli o'tgan zamon fe'lini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: *-gan edi* shaklli o'tgan zamon fe'lining tuslanishi va ishlatilishi.

24. O'quvchining kun tartibi (2 soat)

O'qish: “O'quvchining kun tartibi” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri, o'rtacha tezlikda va ravon o'qish. *-moqchi* shaklli kelasi zamon fe'lini to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: “O'quvchining kun tartibi” matni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. O'qituvchining yangi dars bayoni, grammatik tahlil bilan bog'liq topshiriq va fikrlarini to'liq tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Egallangan grammatik bilimlar asosida kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea-hodisalar haqida so'zlab berish.

Yozish: *- moqchi* shaklli kelasi zamon fe'lini to'g'ri yozish. Yangi grammatik bilimlar asosida o'rganilgan nutqiy mavzudagi savollarga yozma javob yozish.

Grammatika: *- moqchi* shaklli kelasi zamon fe'lining tuslanishi va qo'llanishi.

Jami dars mashg'ulotlari	- 56 soat
Takrorlash	- 4 soat
Nazorat ishlari	- 8
Jami	- 68 soat

7-SINF

1. Gulla, yashna, hur O'zbekiston! (2 soat)

O'qish: “Gulla, yashna, hur O'zbekiston!” matni, yangi soʻz va birikmalarni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni ifodali oʻqish. Qaratqich va tushum kelishigidagi soʻzlarni toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: “Gulla, yashna, hur O'zbekiston!” mavzusiga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali oʻrganilgan bogʻlanishli matnning mazmunini toʻliq, qisqa va tanlab olgan holda soʻzlash.

Yozish: Oʻrganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qoʻllab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni koʻchirib yozish.

Grammatika: Qaratqich va tushum kelishiklarining belgili-belgisiz qoʻllanishi.

2. Kuch – bilimda (3 soat)

O'qish: “Kuch - bilimda” matni, yangi soʻz va birikmalarni, mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri va ifodali oʻqish. Shaxs otlarini toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish; notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali oʻrganilgan bogʻlanishli matnning mazmunini toʻliq, qisqa va tanlab olgan holda soʻzlash; oʻzlashtirilgan grammatik bilimlarni qoʻllagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: Oʻrganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qoʻllab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni koʻchirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish. Toʻgarak faoliyati haqida eʼlon yozish.

Grammatika: Shaxs otlarining yasalishi va qoʻllanishi.

3. Doʻstlar davrasida(2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi soʻz va birikmalarni ifodali oʻqish. –*gacha*, –*dagi* qoʻshimchali otlarni toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali o'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini to'liq, qisqa va tanlab olgan holda so'zlash.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, tanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: Otlarda *-gacha, -dagi* qo'shimchalarinig qo'llanishi.

4. Mening birinchi o'qituvchim (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi so'z va birikmalarni to'g'ri va ifodali o'qish. Ot ko'makchilarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. O'zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo'llagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish; adabiy-badiiy matnlarni ko'chirib yozish; tanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish. Reja asosida ta'limiy bayon yozish.

Grammatika: Ot ko'makchilar, ularning egalik va kelishik qo'shimchalri bilan ishlatilishi.

5. Insoniy fazilatlar (3 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri va ifodali o'qish. Qo'shma va juft otlarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali o'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini to'liq, qisqa va tanlab olgan holda so'zlash.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni ko'chirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish. Tabriknoma yozish.

Grammatika: Qo'shma va juft otlarning yasalishi va qo'llanishi.

6. Til boyligi – el boyligi (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi soʻz va birikmalarni toʻgʻri va ifodali oʻqish. Daraja shaklidagi ravishlarni toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda suhbatlashish. Oʻzlashtirilgan grammatik bilimlarni qoʻllagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: Oʻrganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qoʻllab gaplar, savollar tuzish, tanish mavzuga oid gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: Ravishlarda daraja. (*eng, juda, gʻoyat, biroq* kabilarning ishlatilishi).

7. Oʻzbekistonning shifobaxsh oʻsimliklari (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallarni toʻgʻri va ifodali oʻqish. *Boʻlmoq* feʻli qatnashgan birikmalarini toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali oʻrganilgan bogʻlanishli matnning mazmunini toʻliq, qisqa va tanlab olgan holda soʻzlash.

Yozish: Oʻrganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qoʻllab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni koʻchirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish.

Grammatika: *Boʻlmoq* feʻlining qoʻllanishi.

8. Dunyo moʻjizalari (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi soʻz va birikmalarni toʻgʻri va ifodali oʻqish. *Turmoq, oʻsmoq, gullamoq* kabi holat feʻllari qatnashgan birikmalarini toʻgʻri oʻqish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, maqbul javob qaytarish.

Soʻzlash: Oʻrganilayotgan mavzuda suhbatlashish. Oʻzlashtirilgan grammatik bilimlarni qoʻllagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, tanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: *Turmoq, o'smoq, gullamoq* kabi holat fe'llarining ishlatilishi.

9. Milliy hunarmandchilik (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri va ifodali o'qish. Zidlov bog'lovchili so'z va gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali o'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini to'liq, qisqa va tanlab olgan holda so'zlash.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni ko'chirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish.

Grammatika: Zidlov bog'lovchilarining qo'llanishi.

10. Toshkentning yangi inshootlari (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi so'zlarni to'g'ri va ifodali o'qish. Ayiruv bog'lovchili so'z va gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda suhbatlashish. O'zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo'llagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, tanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: Ayiruv bog'lovchilarining qo'llanishi.

11. Bizning mahalla(ko'cha) (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri va ifodali o'qish. Ta'kid, kuchaytiruv yuklamalari qatnashgan so'z va gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali o'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini to'liq, qisqa va tanlab olgan holda so'zlash.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni ko'chirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish. Reja asosida ta'limiy bayon yozish.

Grammatika: Ta'kid va kuchaytiruv yuklamalarining qo'llanishi.

12. Sog'lik-salomatlik (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi so'zlarni ifodali o'qish. Aniqlash va chegaralash yuklamalari qatnashgan gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda suhbatlashish. O'zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo'llagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, tanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: Aniqlash va chegaralash yuklamalarining qo'llanishi.

13. Vatanga sadoqat (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallarni to'g'ri va ifodali o'qish. *Boshlab, tortib* ko'makchilari qatnashgan gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Radio va televideniye xabarini tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali o'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini to'liq, qisqa va tanlab olgan holda so'zlash.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni ko'chirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish.

Grammatika: *Boshlab, tortib* ko'makchilarining qo'llanishi.

14. Tabiatni asrang (3 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi so'zlarni to'g'ri va ifodali o'qish. Shart mayli qo'shimchali gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda suhbatlashish. O'zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo'llagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, tanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

Grammatika: -sa shart mayli qo'shimchasining qo'llanishi.

15. Donolar bisotidan (2 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallarni ifodali o'qish. Shart maylidagi fe'l *kerak*, *bo'ladi* so'zlari bilan kelgan gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda o'zaro suhbatlashish. Kuzatilgan yoki audiovizual vositalar orqali o'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini so'zlash.

Yozish: O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab gaplar, savollar tuzish, adabiy-badiiy matnlarni ko'chirib yozish, mavzuga oid dialogik matn tuzish.

Grammatika: Shart maylidagi fe'lning *kerak*, *bo'ladi* so'zlari bilan qo'llanishi.

16. Alisher Navoiy (3 soat)

O'qish: Mavzuga oid matn, suhbat, adabiy-badiiy materiallar, yangi so'zlarni to'g'ri va ifodali o'qish. Sifatdosh qatnashgan gaplarni to'g'ri o'qish.

Tinglab tushunish: Mavzuga oid suhbat, adabiy-badiiy materiallarni tinglab tushunish. Notanish mavzudagi fikrni tushunib, javob qaytarish.

So'zlash: O'rganilayotgan mavzuda suhbatlashish. O'zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo'llagan holda matn mazmunini qayta hikoya qilish.

